

Azizaxon RASULOVA

**O‘ZBEK TILINING
SOHADA
QO‘LLANILISHI**

**Jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalari
uchun o‘quv qo‘llanma**

“Farg‘ona” nashriyoti,
2023-yil

UO‘K: 811.512.133‘373(075)

KBK: 81.2O‘zb-3ya7

R 25

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar
vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘iga
asosan nashrga tavsiya etilgan.*

Mas‘ul muharrir:

Sh.Iskandarova,
filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

G.Roziqova,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent;
D.Jamoliddinova,
filologiya fanlari doktori (DSc), QDPI professori.

Azizaxon RASULOVA

R25 O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANILISHI:

Jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma; ilmiy-uslubiy nashr; lotin yozuvida; A.Rasulova. – Farg‘ona: “Farg‘ona” nashriyoti, 2023. – 148 bet.

Ushbu qo‘llanmada talabalar uchun o‘z kasbi doirasida qo‘llanadigan termin (atama)lar, davlat tilida ish yuritish, nutq madaniyati asoslari bo‘yicha muhim tushunchalar berilgan. Mamlakatimizdagi davlat tili va o‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari yuzasidan qonunchilik me‘yorlari batafsil yoritilgan. Qo‘llanmadan barcha yo‘nalishdagi bitiruvchi talabalar, stajyor xodimlar, til va nutq bo‘yicha tadqiqotchilar, keng kitobxonlar ommasi foydalanishi mumkin.

ISBN: 978-9910-9851-3-3

© A.Rasulova – 2023
© “Farg‘ona” nashriyoti – 2023

KIRISH

Jamiyatning rivojida ma'naviy o'zlikning o'rni beqiyos. Shu bois ham yangi O'zbekistonda ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash muhim ustuvor vazifa sifatida belgilanib, ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda o'zbek tilining nufuzi oshdi, davlat tili sifatida o'rni mustahkamlanmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida ta'kidlaganidek, milliy o'zligimizning timsoli bo'lgan, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimizga e'tibor yanada kuchaytirildi¹.

Darhaqiqat, yangi O'zbekistonda o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlashga qaratilgan yangidan yangi tashabbuslar ilgari surilayotgani juda muhim. Ona tili millatning ruhi, borligimiz va birligimiz, davlat timsoli ekani ni e'tiborga olgan holda, uni asrash va rivojlantirish har bir fuqaroning insoniy burchi hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek, **har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shun-**

1 <https://www.gazeta.uz/uz/2022/12/20/ona-tili/>

day qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak. Bu oliyjanob harakatni barchamiz o‘zimizdan, o‘z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak².

Avvalo, ta’kidlash kerakki, o‘zbek tili – O‘zbekiston Respublikasi aholisining mutlaq ko‘pchiligi bo‘lmish o‘zbek xalqining ona tilidir. U O‘zbekiston birligi va yaxlitligi, jamiyat jipsligining muhim omili ham hisoblanadi. Hozirgi vaqtda yer yuzida o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar soni qariyb 50 million kishini tashkil etishi esa uning dunyodagi yirik tillardan biriga aylanib borayotganidan dalolat beradi.

O‘zbek tili xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ma’naviy-ma’rifiy va badiiy tafakkuri, ilmiy salohiyati mahsuli bo‘lib, eng qadimiy tillardan biridir. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, xalqimiz o‘zbek tiliga, o‘zbek adabiy tilini yanada rivojlantirishga, uning qonuniy huquqlarini tiklashga katta e’tibor berdi. 1989-yilning 21-oktabrida o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimiz hayotida muhim voqea bo‘ldi. Hozirda davlat tilining nufuzini oshirishga doir bir qancha qarorlar, davlat dasturlari qabul qilindi va ular izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Mana shunday ulkan ishlardan biri 21-oktabrning “O‘zbek tili bayrami kuni” sifatida belgilanishi bo‘ldi. “O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida”gi Qonun 2020-yilning 10-aprel kundan kuchga kirgan. “O‘zbek tili bayrami kuni”ning nishonlanishi o‘zini o‘zbek millati va xalqining vakili deb bilgan yurt-doshlarimiz qalbida cheksiz g‘urur va iftixor tuyg‘ularini

2 <https://xs.uz/uzkr/post>. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.



uyg'otdi. Binobarin, o'zbek tili nufuzi va obro'sini yanada oshirish, o'z ona tiliga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda namoyon etish har bir o'zbek farzandining maqsadi, muhim vazifasi bo'lishi zarur.

Aytish joizki, o'zbek tili – o'zbek xalqining milliy tili. Unda o'zbek xalqining o'zligi, tabiati, saviyasi, tafakkur tarzi o'z tajassumini topar ekan, demak, mazkur tilni asrab-avaylash, uning nufuzini, obro'-mavqeyini ko'tarish shu tilda so'zlovchi har bir shaxsning ijtimoiy burchi va huquqidir.

Shu ma'noda, avvalo, ta'limning barcha bo'g'inlarida tahsil olayotgan talaba-yoshlar o'zlari tanlagan soha bo'yicha o'zbek tilida nutqiy kompetensiyaga ega bo'lishi, mutaxassisligi bo'yicha og'zaki va yozma nutqda terminlarni qo'llay olishi, o'z bilimlarini o'zbek tilida ifoda etish malakasiga ega bo'lishi, sohada qo'llanadigan hujjatlarni rasmiylashtira olishi, nutq uslublari erkin muloqotga kirishishi, amaliyotga tatbiq qilishi, yozma savodxonlikni oshirish ko'nikmalarini o'zida mujassam etishi kerak.

Umuman, oliy o'quv yurtlari bakalavriat yo'nalishlari uchun yaratilgan ushbu "O'zbek tilining sohada qo'llanilishi" nomli qo'llanmaning ahamiyati katta. Chunki bo'lajak mutaxassislar kasbiy layoqati bilan birga, o'z kasbi doirasida qo'llanadigan termin (atama)larni, davlat tilida ish yuritish malakasini, nutq madaniyati asoslarini to'la egallashlari talab etiladi. Zero, yosh kadrlarning to'laqonli kasb malakasi, keng dunyoqarash va yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lishlarida bu jihatlarda hal qiluvchi rol o'ynashi shubhasizdir.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTNING FARMONI

MAMLAKATIMIZDA O‘ZBEK TILINI YANADA RIVOJLANTIRISH VA TIL SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA³

O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta‘minlash, O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoniga muvofiq:

1. Quyidagilar:

a) 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda – Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va unda quyidagilar nazarda tutilsin:

mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish;

ta‘lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish;

3 <https://lex.uz/docs/5058351>



davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish;

davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash;

davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish;

mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o'rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

b) 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020-2022-yillarda amalga oshirish dasturi (keyingi o'rinlarda – Dastur) 2-ilovaga muvofiq;

v) 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari (keyingi o'rinlarda – Asosiy yo'nalishlar) 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki, asosiy yo'nalishlar quyidagilarni nazarda tutadi:

a) ta'lim tashkilotlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish sohasida:

2025-yilga qadar davlat maktabgacha ta'lim tizimida amaldagi maktabgacha ta'lim muassasalarining hududlarini kengaytirish yoki yangi quriladigan muassasalar hisobiga o'zbek tili guruhlar qamrovini 72 foizga, 2030-yilgacha esa 80 foizga yetkazish;

2030-yilga qadar umumta'lim maktablarida o'quv yillari uchun tayanch o'quv rejalarida o'zbek tili fanini o'qitish ko'lamini amaldagi haftada 84 soatdan 110 soatgacha oshirish;

oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili kafedralari sonini 2025-yilga qadar 120 taga, 2030-yilgacha esa 140 taga yetkazish;

b) davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish sohasida:

lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida "O'zbekiston milliy qomusi" jildlarini nashr etishni bosqichma-bosqich ko'paytirib borish;

2020-yilda o'zbek tilining lug'at boyligini oshiruvchi 15 ta lingvistik, sohaviy-terminologik, izohli lug'atlar yaratish;

teleradiokanallar suxandon-boshlovchilarining o'zbek adabiy tilidagi nutq madaniyatini oshiruvchi qayta tayyorlov kurslarida o'qitish tizimini joriy etish va qamrovni 2030-yilgacha 100 foizga yetkazish;

v) davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga integratsiyalashuvini ta'minlash sohasida:

2025-yilga qadar davlat tilida sohaviy ish yuritish hujjatlarining yagona elektron namunalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish uchun 14 ta onlayn dastur ishlab chiqish, 2030-yilgacha esa ushbu ko'rsatkichni 25 taga yetkazish;

dasturiy mahsulotlarning o'zbekcha ilovalari va elektron lug'at dasturlarini yaratish;

xorijliklar uchun o'zbek tilini o'rgatuvchi dasturlar yaratish;

g) davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish sohasida:

2030-yilga qadar xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'rgatuvchi markazlar sonini amaldagi 17 tadan 60 tagacha ko'paytirish;



2025-yilga qadar “O‘zbek tilining do‘stlari” klublari sonini 30 taga, 2030-yilgacha esa 40 taga yetkazish;

xorijiy oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili kurslarini zarur ilmiy, o‘quv-uslubiy, badiiy adabiyotlar bilan ta’minlash, o‘zbek tilini o‘rgatishga doir ilmiy tadqiqotlar miqdorini oshirish.

3. Vazirlar Mahkamasi (A.N.Aripov) uch oy muddatda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga to‘liq o‘tishni ta’minlash maqsadida ishchi guruhini tashkil qilsin va aniq chora-tadbirlar hamda ularni moliyalashtirish manbalari va hajmlarini nazarda tutuvchi “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritilsin.

4. Belgilab qo‘yilsinki:

2021-yil 1-apreldan boshlab o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha bilimni baholashning milliy test tizimi asosida rahbar kadrlarning davlat tilida rasmiy ish yuritish darajasi aniqlanadi hamda mas’ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslar uchun davlat tilini bilish bo‘yicha daraja sertifikatlari joriy etiladi;

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazida o‘zbek adabiy tili me’yorlari va davlat tilida ish yuritish bo‘yicha qisqa muddatli (1-2 oygacha) o‘quv kurslari muntazam ravishda tashkil etiladi.

Davlat test markazi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda mazkur bandning ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

5. Fanlar akademiyasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o'zbek tilidagi mavjud lug'atlar asosida uzluksiz ta'limning barcha turlari uchun quyidagi o'quv lug'atlarini yaratish choralarini ko'rsin, shu jumladan:

ko'p jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"ning to'ldirilgan yangi nashri (kirill va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida);

"O'zbek tilining imlo lug'ati";

"O'zbek tili sinonimlari lug'ati";

"O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati";

"O'zbek tili frazeologizmlarining katta izohli lug'ati";

"O'zbek tili omonimlari lug'ati".

Mazkur bandda ko'rsatilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari yo'naltirilsin.

6. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi:

oliy ta'lim muassasalarining filologiya ta'lim yo'nalishlarida "Kompyuter lingvistikasi", "Amaliy filologiya" yo'nalishlarini tashkil qilsin;

Tashqi ishlar vazirligi, Fanlar akademiyasi bilan birgalikda xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili markazlari faoliyatini yo'lga qo'ysin;

o'zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma'lumotlarni o'zida jamlagan elektron ko'rinishdagi o'zbek tili milliy korpusini yaratish choralarini ko'rsin;

Xalq ta'limi vazirligi, Fanlar akademiyasi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda har yili 1-dekabrga qadar Dasturda va Asosiy yo'nalishlarda belgilangan topshiriqlar yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni puxta tahlil



qilish asosida Vazirlar Mahkamasiga ma'lumot kiritib bor-
sin.

7. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi:

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan birgalikda o'zbek tilidan jahon-ning yetakchi xorijiy tillariga va xorijiy tillardan o'zbek tiliga tarjima qiluvchi kompyuter dasturini Vazirlar Mahkamasida huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan yaratish choralarini ko'rsin;

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda tizimdagi axborot-tahliliy, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy-gumanitar telekanallarini xorijiy davlatlarda teleradiokompaniyaning OTT platformasini (Internet tarmog'i orqali teledasturlarni namoyish etish tizimi) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan ishga tushirish va boshqa zamonaviy informatsion texnologiyalardan foydalangan holda namoyish etilishini ta'minlasin.

8. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Tashqi ishlar vazirligi, Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining "O'zbekiston" telekanalida yurtimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlarini va an'alarini targ'ib qiluvchi, mamlakatimizga oid axborot-tahliliy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-gumanitar bilim doirasini kengaytirishga xizmat qiluvchi va intellektual hamda boshqa ma'lumotlarni xorijiy tillarda (O'zbekistonda istiqomat qilayotgan turli millatlar tilida) yoritadigan "Do'stlik" axborot-ma'rifiy dasturlar tahririyatini tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

Belgilab qo'yilsinki, "Do'stlik" axborot-ma'rifiy dasturlar tahririyati O'zbekiston Milliy teleradiokompaniya-

sig a ajratilayotgan byudjet mablag‘lari va quyi tashkilotlarning mavjud shtat birliklari doirasida tashkil etiladi.

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi manfaatdor tashkilotlarni jalb qilgan holda 2021-yil 1-yanvardan boshlab markaziy telekanallarda “Tilga e’tibor”, “Ona tilida so‘zlashamiz”, “Notiqlik mahorati”, “Til – millat ko‘zgusi”, “Kitob – bilim manbayi”, “Bilimli yoshlar – kelajak bunyodkori” kabi turkum ko‘rsatuv va eshittirishlarni tashkil qilib, muntazam ravishda efirga uzatib borilishini ta’minlasin.

9. Mazkur Farmonda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish manbalari etib Davlat budjeti, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi, oliy ta’lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag‘lari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, xalqaro moliya tashkilotlari, xorijiy davlatlar va boshqa donorlar kreditlari (qarzlari) va grantlari, shuningdek, qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar belgilansin.

10. Quyidagilarga:

Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamentiga – Konsepsiya va Dasturni amalga oshirish hamda Asosiy yo‘nalishlarga erishish borasida davlat organlari va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda monitoring qilish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, vazirlik, idora va boshqa tashkilotlar rahbarlariga – Konsepsiya, Dastur va Asosiy yo‘nalishlarda nazarda tutilgan tadbirlarning o‘z vaqtida, sifatli va to‘liq bajarilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklansin.



11. Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan oʻzgartirish va qoʻshimchalar toʻgʻrisida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

12. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish Oʻzbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

**Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti
Sh. MIRZIYOYEV**

**Toshkent sh.,
2020-yil 20-oktabr,
PF-6084-son**



“O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANILISHI” FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI. UNING BOSHQA FANLAR BILAN BOG‘LIQLIGI

Reja:

1. “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanining predmeti.
2. Fanning maqsad va vazifalari.
3. O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi va boshqa fanlar.

Tayanch so‘z va iboralar:

Til, musiqa tili, afisha tili, davlat tili, kasbiy bilim, ko‘nikma, malaka, soha leksikasi.

Jamiyat taraqqiy etar ekan, til ham takomillashib bo-raveradi. Til muloqot vositasigina bo‘lib qolmay, u ijtimoiy-siyosiy vazifani bajarishga xizmat qiladi.

Til ijtimoiy hodisadir, chunki ijtimoiy munosabatlardan tashqarida uni o‘zlashtirish mumkin emas. Inson tug‘ilgandan boshlab nutqsiz bo‘ladi. Axir, bola atrofdagilarning fonetik tovushlarini takrorlashni o‘rganishni boshlaganida, gapira boshlaydi va o‘ylash qobiliyati tufayli ularga to‘g‘ri ma‘noni beradi.

Inson tili ajoyib, noyob mo‘jizadir. Bizni boshqa jon-zotlardan ajratib turadigan vosita hisoblanadi. Til inson bilan aloqa vositasi sifatida belgilangan. Bu tilning mumkin bo‘lgan ta‘riflaridan biri, chunki tilni uning tuzilishi va boshqalar nuqtayi nazaridan emas, balki u nimaga mo‘ljallanganligi nuqtayi nazaridan tavsiflaydi. Boshqa aloqa vositalari ham mavjud. Muhandis hamkasbi bilan ona tilini bilmasdan gaplashishi mumkin, chunki agar ular chizmalardan foydalansalar, bir-birlarini tushunadi-



lar. Musiqachi o‘z his-tuyg‘ularini musiqa orqali yetkazadi va tinglovchilar uni tushunadilar. Rassom tasvirlarda o‘ylaydi, maqsadini chiziqlar va ranglar yordamida ifodalaydi. Bularning barchasi “tillar”dir, shuning uchun ularni ko‘pincha “afishaning tili”, “musiqa tili” deb aytishadi. Ammo bu so‘z tilning yana bir ma‘nosi⁴.

Tilning rivojlanishi jamiyat rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Til – bu ijtimoiy hayotdagi tarixiy, siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlarning ta’siri ostida bo‘lgan tirik organizm. Har qanday millatning tili – bu so‘zda aks ettirilgan uning tarixiy xotirasi. Ming yillik ma‘naviy madaniyat, xalq hayoti tilda, uning og‘zaki va yozma shakllarida, turli janrdagi yodgorliklarda o‘ziga xos tarzda aks ettiriladi. Va shuning uchun til madaniyati, so‘z madaniyati ko‘p avlodlarning ajralmas bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘ladi.

“O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fanini o‘qitishdan maqsad ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni muntazam boyitib borish va yangilash, o‘qituvchi, talaba, rahbar va xodimlarga sohalar bo‘yicha (tibbiyot, texnika, huquq kabi) yo‘naltirish berish, o‘zbek adabiy tilining sohalarda qo‘llanishi, soha leksikasi va terminologiyasi haqida ma’lumot berish asosida ularning kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

“O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fanining vazifalari:

- davlat tili talablariga rioya qilish, soha leksikasidagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish, kasbiy muloqot etikasi bo‘yicha tushunchalarni takomillashtirish;

- har bir mutaxassis o‘z sohasining davlat tilidagi muhim jihatlarini bilishi va o‘zlashtirishi shart;

4 <https://hozir.org/ozbek-tilining-sohada-qollanishi-fanini-oqitishning-maqsad-va.html>

- soha leksikasi va terminologiyasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish;

- davlat tili talablariga rioya qilish, soha leksikasidagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish malakalarini rivojlantirish.

“O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fani boshqa sohalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, jismoniy madaniyat fakultetida tahsil oluvchi yoshlar o‘z sohasidagi atamalarni davlat tilida qo‘llay olishi kerak. Zero, ona tiliga hurmat shundan shakllanadi. Spotchilar xalqaro musobaqalarda ishtirok etganida o‘z ona tilida gapirgani barchada faxr-iftixor uyg‘otadi.

Bakalavr o‘z mutaxassislik fanlari bilan bir qator-da mutaxassislik tili va uslubi, terminologiya va atamashunoslik, ish yuritish va hujjat ishi to‘g‘risida mukammal bilimga ega bo‘lmasdan turib, fikrini o‘z sohasiga qo‘yladigan talablar asosida aniq va ravshan ifoda eta olmaydi. Shunga ko‘ra, bo‘lajak mutaxassis ona tilining o‘ziga xos xususiyatlaridan puxta xabardor bo‘lmog‘i lozim.

Bakalavrlar o‘z ixtisosligidan kelib chiqqan holda, O‘zbekistonni yuksaltirishga, uning jahonda munosib o‘rin egallashiga hissa qo‘shadi, chet mamlakatlarda va yurtimizda davlatimiz manfaatini himoya qiladi, kuch-qudratini namoyish etadi. Shunga ko‘ra, bo‘lajak mutaxassislar davlat tili – o‘zbek tilini mukammal, aniq va ravshan egallashlari shart.

Mazkur o‘quv kursining o‘qitilishi muayyan amaliy yo‘nalishga ega bo‘lib, bakalavr mutaxassislik tili bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni, o‘z sohasiga oid so‘zlarni va hujjatlarni to‘g‘ri yozish malakasini hosil qilishni ko‘zda tutadi.



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Til nima uchun ijtimoiy hodisa hisoblanadi?
2. Millat tili deganda nimani tushunasiz?
3. Davlat tili jumlasiga ta'rif bering.
4. "Afisha tili", "musiqa tili" deganda nimani tushunasiz?
5. "O'zbek tilining sohada qo'llanilishi" fanini o'qitishdan maqsad nima?
6. Tilning og'zaki va yozma shakli deganda nimani tushunasiz?
7. Fanning vazifalarini sanang.
8. "O'zbek tilining sohada qo'llanilishi" fanining boshqa sohalar bilan bog'liqligi haqida gapiring.
9. Kasbiy muloqot etikasi haqida ma'lumot bering.
10. "Ona tiliga hurmat" mavzusida matn yarating.



O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANILISHI VA UNING JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Reja:

1. Til – millatning ko‘zgusi.
2. O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining davlat tilidir.
3. Jismoniy madaniyat yo‘nalishida davlat tilining ahamiyati.

Tayanch so‘z va iboralar:

Milliy til, davlat tili, til to‘g‘risidagi qonun va farmonlar, dunyo tillari, sportchilar tili.

Buyuk ma‘rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek: “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oyinayi hayoti tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”. Til har bir millatning ko‘zgusi, uning haqiqiy sarchashmasidir. Til bor ekan, millat barhayotdir. Tilning Onaga qiyoslaniishi bejiz emas, inson o‘z onasini ko‘rmasdan, uning sof muhabbatini, mehrini tuymasdan yashay olishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘zbek tili maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. O‘zbek tili haqidagi qonun qabul qilinganidan so‘ng barcha davlat hujjatlari o‘zbek tilida yuritila boshlandi, gazeta va jurnallarning o‘zbek tilida chop etilishi yo‘lga qo‘yildi. 1993-yil 2-sentabrda «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi tuzish to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilingandan so‘ng, mamlakatimiz har tomonlama rivojlandi va jahon kommunikatsiya tizimidan munosib o‘rin egallashiga yo‘l ochildi. Shu o‘rinda statistik ma‘lumotlarga e‘tibor qaratsak: dunyoda 5600 dan ortiq tillar mavjud bo‘lib (internet man-



balariga ko‘ra 7000ga yaqin ham deyiladi), bundan 200 ga yaqinigina davlat tili maqomiga ega. Ular orasida o‘zbek tilining borligi uning naqadar sof, mukammal, purma‘no va jozibadorligining yorqin dalilidir. Rossiyalik tilshunos olim, professor A.M.Kozlyanina “O‘zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador” deb bejiz ta’kidlamagan edi.

Yangilanayotgan O‘zbekistonning bugungi bosqichi – milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, bugungi kunda ona tilimizning nufuzini yanada oshirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, 2019-yil 21-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni e‘lon qilindi. Farmonga muvofiq, 21-oktabr – “O‘zbek tili bayrami kuni” deb e‘lon qilindi hamda Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi⁵.

Davlat tili – O‘zbekiston degan o‘tmishi buyuk mamlakatning tili. U qonun bilan himoyalangan. Bu tilning qonuniy talablariga barcha birdek rioya etishi shart. Shunday ekan, har bir soha vakili davlati tilini bilishi, bu borada malakaga ega bo‘lishi lozim.

Mamlakatimizda bugungi kunda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga muhim e‘tibor qaratilmoqda. Albatta, bu sohada davlat tilini puxta o‘zlashtirish katta ahamiyatga ega. Xususan, sportchilar keng omma bilan muloqotga kirishadi. Undan ko‘p jihatlarni o‘rganadi. Shu bois ona tilida sof va to‘g‘ri so‘zlash ham sportchilarga juda zarur.

Jismoniy tarbiya sohasi ham doimiy taraqqiyotda. Yangi atamalar faol qo‘llanilyapti, imkoniyatlar yanada

5 [https://xs.uzkr/post Til – millat kozgusi](https://xs.uzkr/post/Til-millat-kozgusi).

kengaymoqda. Shu bilan birgalikda jahon sport arenalari-
da o‘zbek tilining jozibasi, kalomi yangramoqda.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Abdulla Avloniyning ona tili haqidagi fikrlarini ay-
ting va tahlil qiling.

2. Tilning onaga qiyoslanishi haqidagi fikrlaringizni
bildiring.

3. Jismoniy madaniyat yo‘nalishida davlat tilining
ahamiyati qanday?

4. Lavhalar, e‘lonlar, narxnomalar va boshqa
ko‘rgazmali hamda og‘zaki axborot matnlari qaysi tilda
rasmiylashtiriladi va e‘lon qilinadi?

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek
tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan
oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qachon qa-
bul qilindi?

6. Qaysi oliy ta‘lim muassasasining tashkil etilgani
tilimizning tarixiy ildizlarini chuqur o‘rganish, uni ilmiy
asosda har tomonlama rivojlantirish va qo‘llanish doira-
sini kengaytirish, filolog kadrlar tayyorlash borasidagi ish-
larni yangi pog‘onaga ko‘tardi?

7. Geografik obyektlarning nomlari qaysi tilda aks et-
tiriladi?



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

DAVLAT TILI HAQIDA⁶

1-modda.

O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.

2-modda.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

3-modda.

O‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilab beriladi.

Tilning Qoraqalpog‘iston Respublikasida amal qilishiga bog‘liq masalalar, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonunchiligi bilan belgilanadi.

Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog‘liq udumlarni ado etishda qo‘llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o‘z xohishlariga ko‘ra tanlash huquqiga egadirlar.

4-modda.

O‘zbekiston Respublikasida davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta‘minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o‘qitish bepul amalga oshiriladi.

⁶ <https://www.lex.uz/acts/121051>

5-modda.

O‘zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko‘rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda esa – ularning tillarida faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini tashkil etish ta‘minlanadi.

6-modda.

O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta‘lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o‘rta maxsus va oliy ma‘lumot olishni ta‘minlaydi.

7-modda.

Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirishini ta‘minlaydi, shu jumladan unga hamma e‘tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta‘minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis palatalari tegishli qo‘mitalarining roziligi bilan o‘zbek tiliga joriy etiladi.

8-modda.

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e‘lon etiladi. Bu hujjatlarining tarjimalari boshqa tillarda ham e‘lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e‘lon etiladi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e‘lon etiladi.



9-modda.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek, qatnashchilarning o'zlari tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

10-modda.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarining ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirishi mumkin.

11-modda.

Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o'sha joydagi ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi iqtisodiy nizolarni ko'rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo'llaniladi. Iqtisodiy nizolar taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko'rib chiqilishi mumkin.

12-modda.

O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko'ra rasmiylashtirilgan hujjat matni notarius yoki notarial harakati bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo'lgan taqdirda – boshqa maqbul tilda beriladi.

13-modda.

Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning

kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

14-modda.

O‘zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta’minlanadi.

15-modda.

O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o‘z millatidan qat’iy nazar, o‘z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an’analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

16-modda.

Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi.

17-modda.

Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

18-modda.

Pochta-telegraf jo‘natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko‘ra – boshqa tilda amalga oshiriladi.

19-modda.

Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg‘alari, ish qog‘ozlarining matnlari davlat tilida bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo‘shma korxonalarining, shuningdek, milliy madaniyat jamiyatlari va markazlarining muhrlari, tamg‘alari, ish qog‘ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi.

20-modda.

Lavhalar, e’lonlar, narxnomalar va boshqa ko‘rgazmali



hamda ogʻzaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va eʼlon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasini berilishi mumkin.

21-modda.

Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yoʻriqnomalar, etiketkalar bilan taʼminlanadi.

22-modda.

Geografik obyektlarning nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

23-modda.

Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning oʻzida boshqacha qoida nazarda tutilmagan boʻlsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

24-modda.

Oʻzbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning oʻzaro muomala, tarbiya va taʼlim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga toʻsqinlik qiluvchi shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgar boʻladilar.

(Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-y., 12-son, 257-modda; Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2004-y., 51-son, 514-modda; 2010-y., 37-son, 313-modda; 2011-y., 41-son, 449-modda; 2017-y., 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 04.12.2020-y., 03/20/653/1592-son; Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

SOHA TILI ASOSLARI

Reja:

1. O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi va tilshunoslik.
2. Tilshunoslik va uning bo‘limlari.
3. Tilning lug‘at boyligi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Tilning og‘zaki va yozma nutq shakli, tilshunoslik bo‘limlari, lug‘at boylik, semantik struktura.

Til ham og‘zaki, ham yozma nutq shaklida reallashadi, yashaydi. Nutq madaniyati bu har ikki shaklni ham nazarda tutadi. Tilning bu ikki shakli barcha tasviriy tilshunoslik fanlarida o‘rganiladi, shunday ekan, o‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi bu fanlar bilan bevosita munosabatdadir. To‘g‘rirog‘i, fonetika, orfoepiya, orfografiya, leksikologiya, leksikografiya, morfologiya, sintaksis, semantika, uslubiyat kabi tilshunoslik bo‘limlariga asoslanib ish ko‘radi. Nutqdagi kommunikativ sifatlarning yuzaga kelish mexanizmlarini o‘rganish va baholashda ayni shu fanlarda aniqlangan ma‘lumotlarga suyaniladi. Nutq madaniyatining birinchi bosqichi hisoblangan nutqning to‘g‘riligi uning adabiy til me‘yorlariga muvofiqligi bilan belgilanadi. Tilshunos B.N.Golovin ta‘kidlaganidek, “nutq madaniyati fan va o‘quv predmeti sifatida til haqida normativ grammatikada bayon qilingan ma‘lumotlarga suyansada, til materialiga yondashuv nuqtayi nazaridan undan farq qiladi: tilning grammatik faktlari nutq madaniyatini, eng avvalo, me‘yorlarga tobeligi – amal qilinganligi, ikkilanilganligi va buzilganligi bilan qiziqtiradi”⁷.

Nutq madaniyati fonetika va orfoepiya bilan ham chambarchas bog‘liq. Orfoepiya tovushlarning talaffuz

7 <https://hozir.org/ozbek-tilining-sohada-qollanishi-v3.html>



xususiyatlarini o'rganadi, adabiy talaffuz me'yorlarini belgilab beradi. Nutqning to'g'riligini baholashda bu me'yorlar ham asos ekan, o'z-o'zidan nutq madaniyatining orfoepiya bilan bog'liqligi anglashiladi. Fonetika tilning butun tovush sistemasi, uning qonuniyatlari, urg'u, intonatsiya, ohang, nutqning tovush qurilishiga daxldor boshqa ko'plab masalalarni o'rganadi. Nutq og'zaki va yozma shaklda mavjud bo'lsa-da, aslida yozma shakl ham "ichki" og'zaki nutq shaklida tuziladi va idrok etiladi. Tabiiyki, yozma nutqda og'zaki nutqdagi juda ko'plab fonetik-intonatsion xususiyatlar aks etmaydi (albatta, punktuatsiya ularning barini aslo ifodalay olmaydi). Mashhur ingliz yozuvchisi Bernard Shouning "Nutqda "ha" deyishning ellik usuli va "yo'q" deyishning besh yuz usuli bor, ammo buni yozishning esa faqat bitta usuli mavjud, xolos" degan gapini tilshunoslar ko'p eslashadi.

Atoqli o'zbek adibi Asqad Muxtor ham "qalam so'zning soyasini chizadi" deganida yozma nutq imkoniyatining anchayin chegaralanganligini ta'kidlagan. Og'zaki nutq qurilishidagi ovozning tembr sifatleri, ton, urg'u, pauza, nutq ohangi kabilar ham kommunikativ, ham estetik ifoda uchun kerakli unsurlardir. Olmon tilshunosi Karl Fossler tomoshabinlarni g'ayrioddiy tarzda benihoya mutaassir eta olgan bir aktyor haqida hikoya qilgan. Bu san'atkor sahnada birdan yuzgacha bo'lgan sonlarni italyan tilida birin-ketin shunday ohang bilan talaffuz qilar ekanki, uning chiqishi tazarru qilayotgan qotilning nutqiday qabul qilinarkan: "Hech kim sonlar haqida o'ylamas, faqat sho'rlik jinoyatchiga titrab-qaqshab hamdardlik bildirardilar. Urg'u italyanacha sonlarga ayricha ma'no bergan edi", deb ta'kidlagan K.Fossler.

Albatta, bularning har birini yozuvda to'la ko'rsatishning iloji yo'q. Ohang jumlada sintaktik (gram-

matik) vazifa bajarishi, kommunikativ ifoda uchun xizmat qilishi (masalan, *Bahor keldi. Bahor keldi? Bahor keldi!* kabi), estetik-emotsional vazifa bajarishi, ifodaga emotsionallik, ta'sirchanlik baxsh etishi mumkin (masalan, jumla *Bor-may-man!* tarzida bo'g'inlab aytilganda, qat'iylik, g'azab ifodalanadi). Bu kabi holatlar nutq madaniyati uchun benihoya ahamiyatli, ularning mohiyati, tabiati va qonuniyatlarini fonetika o'rganadi; bunday fonetik-intonatsion vositalardan nutqning to'g'riligi va ta'sirchanligini ta'minlashni ko'zlab foydalanish esa nutq madaniyatining vakolatiga kiradi, bu o'rinda nutq madaniyatining fonetika bilan aloqadorligi namoyon bo'ladi.

Tilning lug'at boyligini yetarli darajada bilmasdan turib madaniy nutq tuzish mumkin emas. So'zlarning semantik strukturasi, undagi taraqqiyot, leksik sistemadagi so'zlarning bir-biriga munosabati kabi masalalardan boxabar bo'lmasdan turib, tilning behad boy so'z xazinasidan nutq uchun eng keraklisini tanlash mushkul. Bu xazina-ning hayotini esa leksikologiya o'rganadi. Nutq madaniyati so'zlarni nutq uchun tanlashda ayni shu leksikologiya-ning ma'lumotlariga tayanadi. Leksikografiyaning nutq madaniyati bilan bog'liqligi ham isbot talab etmaydi. Zotan, so'zlar va ularning ma'no tavsifi lug'atlarda jamlangan bo'lib, kerakli so'zni tanlash, ma'nosini to'g'ri tasavvur etish, o'rini adashtirmaslik, demakki, madaniy nutq tuzishda eng yaxshi va yaqin yordamchi aynan xilma-xil lug'atlardir. Nutq madaniyati va uslubiyat o'rtasidagi munosabat haqida gap ketganda, bu ikki sohaning o'rganish obyektini bir deb qarab, ularning birini ikkinchisi ichiga kiritib yuborish mumkin degan fikrdagi tadqiqotchilar ham bor. Haqiqatan ham, nutq madaniyati va uslubiyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq, biri ikkinchisiga suyanadi, ammo o'z o'rganish obyektiga ega bo'lgan alohida-alohida sohalardir.



O‘zbek tilshunosligida bu masalalar tadqiqi bilan jiddiy shug‘ullangan olimlar quyidagicha ta’kidlaydilar: “Nutq madaniyati sohasining tekshirish obyekti nutqning aloqaviy sifatlari yig‘indisi va tizimini, ularni ta’minlovchi shart-sharoitlar, shu sifatlarning takomillashuvi, rivoji yoki qoloqlashishi, pasayishi kabilarni o‘z ichiga olsa, uslubi-yat sohasining obyekti til va nutq uslublarini o‘rganishdir”. Modomiki, uslubi-yat nutq uslublarini ham o‘rganar ekan, xuddi shu holatda nutq madaniyati bilan uning munosabati vujudga keladi. Chunki nutq madaniyati haqidagi ta’limot o‘z-o‘zidan til uslublarini batafsil aks ettirish, har bir uslubning o‘ziga xos tomonlarga ega ekanligi, imkoniyatlarining yoritilishiga ehtiyoj sezadi. Chunki nutqning aloqaviy sifatlari, odatda, har bir uslub doirasida o‘zgarishi, biri bir uslubda yaxshiroq namoyon bo‘lgani holda, ikkinchisi boshqa bir uslubda sustroq namoyon bo‘ladi...

O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi fanining obyekti esa yuqorida aytilganlarni ma’lum sohalarga tatbiq etishdir. Shuni hisobga olib, aytish mumkinki, mazkur fanni tilshunoslik va nutq madaniyatisiz o‘rganib bo‘lmaydi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. B.Shouning nutq haqidagi fikrini ayting.
2. Nutq madaniyatining boshqa fanlar bilan aloqasi haqida gapiring.
3. O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi va tilshunoslikning qanday bog‘liqligi bor?
4. Tilshunoslik va uning bo‘limlari haqida gapirib bering.
5. Tilning lug‘at boyligi deganda nimani tushunasiz?
6. Nutq madaniyati va uslubi-yat o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?
7. O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi fanining obyekti?
8. Nutqning aloqaviy sifatlari deganda nimani tushunasiz?

SOHA NUTQI ASOSLARI

Reja:

1. Nutq va uning turlari.
2. Namunali nutq tuzish usullari.
3. Nutq texnikasi.
4. Jismoniy madaniyat yo‘nalishida nutqiy etiket.

Tayanch so‘z va iboralar:

Og‘zaki nutq, yozma nutq, muloqot xulqi, nutq madaniyati, ichki va tashqi nutq, namunali nutq, nutq texnikasi, to‘xtam.

Insonning muloqot madaniyati uning o‘ziga xos jihatlari ochib berishga xizmat qiladi. Professor S.Mo‘minov⁸ ta’kidlaganidek, o‘zbek tili va dilini bilishga qiziqqan barcha millat kishilari tilning ichki tomoni – fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini o‘rganishlari bilan birgalikda, uning amaliy tomoni – til birliklaridan to‘g‘ri foydalanish, o‘zbeklar bilan muloqotga kirishishning ijtimoiy va hududiy xususiyatlarini ham bilishlari muhim ahamiyatga ega.

Odam nutq yordamida o‘zining fikrlari, his-tuyg‘ulari, istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg‘ulari, istaklarini anglab oladi. Nutq ichki va tashqi ko‘rinishlarga ega. Ichki nutq odamning o‘z ichida gapiradigan passiv nutqi bo‘lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab etmaydi. Shuning uchun ham bu nutq o‘z-o‘ziga qaratilgan nutq sanaladi. Ichki nutq og‘zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Tashqi nutq boshqalarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin bo‘lgan faol nutq bo‘lib, u og‘zaki va yozma ko‘rinishlarga ega.

8 Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. -Ф., 2021.



Ogʻzaki nutq odatdagi tovushli soʻzlashuv nutqi boʻlib, bu nutq koʻproq ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqadordir. Unda murakkab grammatik qurilmalardan foydalanilmaydi. Bu nutqda fikrni ixcham ifodalash maqsadida toʻliqsiz gaplar keng qoʻllaniladi. Nutqning bu turi bir va bir necha kishi tomonidan amalga oshiriladi (monologik, dialogik nutq).

Inson xulq-atvorida eng muhim qonun bor, agar biz bu qonunga amal qilsak, hech qachon koʻngilsiz holatga tushmaymiz. Chunki bu qonun oʻquvchilarni koʻproq oʻzimizga moyil qilishga yordam beradi. Lekin biz uni oʻzgina buzishimiz bilan darrov koʻngilsizlikka uchraymiz. Bu qoida quyidagichadir:

Oʻquvchilar bilan shunday muomalada boʻlish kerakki, ular bu muomaladan oʻzlarining ahamiyatliroq ekani ni his qilishsin. Boshqalarning koʻz oʻngida ahamiyatli boʻlish xohishi inson tabiatining eng asosiy belgilaridan biridir. Chunki kattalarning oʻz suhbat mavzusi boʻlgani kabi, bolalarning ham toʻlib-toshib gapiradigan mavzulari boʻladi. Shuning uchun koʻpni koʻrgan kishilar bolalar bilan bola boʻlib, keksalar bilan keksa boʻlib suhbat qurishga harakat qiladilar. Tajribali oʻqituvchilar suhbat chogʻida inson koʻnglini asrash uchun unga muloyimlik bilan yoʻl topishga harakat qiladilar. Biror jiddiyroq fikrni aytishdan oldin oʻquvchisini (tinglovchini) suhbat mavzusiga tayyorlab olishga intiladilar. Shunday qilinganda eshituvchi har qanday hayajonli yoki qaygʻuli xabarlarni ham ancha yengil qabul qiladi va toʻgʻri munosabatda boʻladi. Inson qalbini zabt etish, uning muhabbatini qozonish uchun koʻp narsa kerak emas, shirin soʻz, samimiy muomala kifoya, aslida.

Inson butun umri davomida oʻz nutqini takomillashtirib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foy-

dalanish orqali nutqning go‘zal, ravon, ifodali, ta’sirchan bo‘lishiga intiladi. Zero, go‘zal va ta’sirchan so‘zlay bilish ham san’at. “Qaysi fanni o‘qitishdan qat’i nazar, o‘qituvchining asosiy quroli, ta’bir joiz bo‘lsa, ketmoni uning nutqidir. Ketmon o‘tkir bo‘lmasa, yerning ham, ketmonchining ham holiga maymunlar yig‘laydi. Xuddi shunday, o‘qituvchining nutqi o‘tmas, nochor bo‘lsa, uning bilimi qanchalik chuqur va tugal bo‘lmasin, o‘ziga ham azob, o‘quvchiga ham. Ona tilida puxta, lo‘nda va shirador nutq tuza olish malakasi va mahorati matematika o‘qituvchisi uchun ham, ona tili o‘qituvchisi uchun ham birday zaruriy fazilatdir. O‘qituvchi go‘zal, o‘zini ham, so‘zini ham qiynamaydigan ravon va iboralarga boy ta’sirchan yoki ifodali nutqi bilan o‘quvchilarni mahliyo etib, bermoqchi bo‘lgan bilimni yosh inson shuuriga osonlik bilan olib kiradi. Zotan, ona tili milliy ma’naviyatimizning, dunyoni teran idrok etishimizning zaminidir”⁹.

Nutq texnikasi deyilganda, nutqni tinglovchi yoki o‘quvchiga yetkazishda qo‘llaniladigan vositalar tushuniladi. Jonli, tovushli nutq va uning barcha unsurlarini to‘g‘ri voqelantirish ko‘nikma va malakalarining jami nutq texnikasi demakdir¹⁰. Nutq ikki xil ko‘rinishda bo‘lganidan uning texnikasini ikki xil ko‘rsatish mumkin:

1. Og‘zaki nutq texnikasi;
2. Yozma nutq texnikasi.

Og‘zaki nutq texnikasi – tovush, bo‘g‘in, so‘zlarni, uning shakllarini talaffuz etishni yaxshilash borasida nutq organlarini faollashtiruvchi mashqlarni anglatadi.

Yozma nutq texnikasi – o‘z mohiyatiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

9 Mahmudov N. Ma’rifat manzillari. – T., Ma’naviyat, 1999. 28-b

10 Махмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.



- har qanday yozma nutq xat boshidan bosh harf bilan boshlanadi. Har bir gap mazmunan, nisbatan tugallagan bo'lishi, erkin fikr anglatishi kerak. Gap tugagandan so'ng mazmunga ko'ra tegishli tinish belgisi qo'yiladi;

- ma'lum bir fikr bayon etilgandan so'ng, nutqning tarkibiy qismi bo'lgan boshqa bir fikr xat boshidan boshlanishi zarur. Xat boshidan bir-biri bilan mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim;

- dialoglardan tashkil topgan yozma nutqdan har bir shaxsning gapi tire orqali yoziladi;

- ko'chirma gaplar, o'z ma'nosida ishlatilmagan so'zlar, birikmalar qo'shtirnoq ichiga olinadi;

- nutq uchun ikkinchi darajali hisoblangan undagi gaplarning tarkibiy qismi hisoblanmaydigan narsalar tire yoki qavs bilan ajratiladi;

- ot, kesim, izohlovchi, undalma ajratilgan bo'laklarga tegishli tinish belgilari bilan ajratiladi;

- nutqning yirik qismlari xat boshidan boblarga bo'lib ko'rsatiladi.

Nutq ma'lum sur'at bilan aytiladi, nutq aytilish jarayonida sur'at oshib yoki pasayib turadi. Bu ifodali so'zlashga xos xususiyat bo'lib, nutqning yaxshi yetib borishini, tinglovchi xulqiga ta'sir etishini ta'minlaydi. Sur'at ifodali nutqning ajralmas bo'lagi. Sur'atsiz bir maromda aytilgan nutq lanj, zerikarli, ta'sirsiz bo'ladi. So'zlashuvda ba'zi o'rinlarda sur'atni oshirib borish, jonlantirish, tinglovchilar diqqatini jalb etish lozim.

To'xtam – ovozning vaqtincha to'xtashi (dam olishi orqali) bo'lib, bu bir davrda nafas olinadi va nutq a'zolari artikulyatsiyadan to'xtaydi va nutq oqimi uziladi. To'xtam davrida nafas olinadi va nutqning navbatdagi qismini talafuz etishga hozirlik ko'riladi. To'xtamdan turli maqsadlar-

da foydalaniladi. Nutqning bir nafas tugaguncha aytilgan qismidan so‘ng yangi nafas olish uchun qilingan to‘xtalish nafasni rostlash to‘xtamida o‘pkaga havo to‘ldirib olinadi. Bunday to‘xtamdan radio, televideniye suxandonlari yaxshi foydalanadilar.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Muloqot madaniyati deganda nimani tushunasiz?
2. Nutq madaniyati qanday fan?
3. Ichki va tashqi nutq haqidagi fikrlaringizni ayting.
4. Taniqli notiqalar ham o‘z nutqlarining namunali bo‘lishi uchun nimalarga e‘tibor berganlar?
5. Nutq texnikasi deyilganda qanday vositalar tushuniladi?
6. Nutq texnikasining necha xil ko‘rinishi bor?
7. Yozma nutqqa qo‘yiladigan talablarni sanab bering.
8. To‘xtam – nima?
9. Nutq nima sababdan shaxsiy hodisa sanaladi?
10. Notiqning ovozi qaysi xususiyatlar bo‘lmog‘i lozim?



SOHADA HUJJAT YURITISH ASOSLARI

Reja:

1. Ish yuritish tizimi va hujjatlar.
2. Hujjat tili va unga qo'yiladigan talablar.
3. Hujjat turlari.

Tayanch so'z va iboralar:

Hujjat, hujjat tili, ichki va tashqi hujjatlar, sodda va murakkab hujjatlar, xususiy, namunali, qolipli hujjatlar, xizmat va shaxsiy hujjatlar, tashkiliy hujjatlar, farmoyish hujjatlari, ma'lumot-axborot hujjatlari, xizmat yozishmalari.

Ish hujjatlari kundalik faoliyatimizda faol qo'llanadi. Shu bois ham uning muhim xususiyatlarini har bir soha vakili yaxshi o'zlashtirishi kerak bo'ladi. Davlat tilining jadal rivojlanishida mamlakatimizda ish yuritish tizimini to'laligigacha o'zbek tiliga o'tkazish dolzarb vazifa sanaladi. Ish yuritishning bevosita asosini hujjatlar tashkil qiladi. Zero, hujjatlar kecha paydo bo'lgan narsa emas, uning o'ziga xos tarixi bor. Kishilik jamiyatida o'zaro munosabatlardagi muayyan muhim holatlarni muntazam va qat'iy qayd etib borishga ehtiyoj bo'lgan va shu tariqa ish hujjatlari yuzaga keldi.

Boshqaruv jarayonining murakkabligi va serqirraligiga muvofiq ravishda idoraviy ish yuritish qog'ozlari, hujjatlar ham xilma-xil va miqdoran juda ko'p. Hujjatlarning maqsadi, yo'nalishi, hajmi, shakli va boshqa bir qator sifatleri ham turlichadir.

Hujjatshunoslikda hujjatlar bir necha jihatlariga ko'ra tasnif qilinadi. Tasniflashda mutlaqo bir xil guruhlashti-

rish mavjud bo‘lmasa-da, har qalay, ularni bir qadar yagonalashgan holda guruhlashtirish mumkin¹¹.

Hujjatshunoslikdagi ana shu an‘anaga ko‘ra ish yuritishdagi hujjatlar, eng avvalo, tuzilish o‘rniga ko‘ra tasnif qilinadi. Bu jihatdan **ichki va tashqi** hujjatlar farqlanadi.

Ichki hujjatlar ayni muassasaning o‘zida tuziladigan va shu muassasa ichida foydalaniladigan hujjatlardir, muayyan muassasaga boshqa tashkilot yoki ayrim shaxslardan keladiganlari esa **tashqi hujjatlardir**.

Hujjatlar **mazmuniga ko‘ra** ikki turli bo‘ladi:

1) **sodda hujjatlar** – bir masalani o‘z ichiga oladigan hujjatdir. Bularga ariza, e‘lon, tilxat, kafolat xati va boshqalar kiradi;

2) **murakkab hujjatlar** – ikki yoki undan ortiq masalani o‘z ichiga oladi. Bularga shartnomalar, ma‘lumotnoma, rejalashtirilgan hisobot hujjatlari va boshqalar kiradi.

Mazmun bayonining shakli jihatidan **xususiy, namunaviy va qolipli** (yoki trafaretli) hujjatlar farqlanadi.

Matnning o‘ziga xosligi, betakrorligi, hamisha ham bir andozada bo‘lmasligi, mazmun bayonining erkinligi **xususiy hujjatlarning** asosiy belgilaridir (masalan, xizmat, so‘rov, iltimos, javob, kafolat, axborot xatlari va shu kabilar). Bunday hujjatlarda ham muayyan doimiy tarkib mavjud bo‘lsa-da, bevosita mazmun bayoni bir qadar erkin bo‘ladi.

Namunaviy hujjatlar – boshqaruvning muayyan bir vaziyatlari bilan bog‘liq, bir-biriga o‘xshash va ko‘p takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matnlarni o‘z ichiga oladigan hujjatlardir. Bularga tavsiyanoma, ariza, e‘lon, taklifnoma va boshqalar kiradi.

11 Aminov M va b. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo‘llanma. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2020. 21-bet



Qolipli hujjatlar – odatda, oldindan tayyorlangan bosma ish qog‘ozlariga yoziladigan hujjatlardir. Bu tur hujjatlarga nisbatan ko‘pincha «yozmoq» emas, balki «to‘ldirmoq» so‘zi ishlatiladi. Bularga ish haqi yoki yashash joyi haqidagi ma‘lumotnomalar, mehnatga layoqatsizlik varaqasi, ayrim dalolatnomalar, xizmat safari guvohnomalari va boshqalar kiradi.

Tegishlilik jihatiga ko‘ra **xizmat** (rasmiy) va **shaxsiy hujjatlar** farqlanadi:

Xizmat (rasmiy) hujjatlari – tayyorlanishiga ko‘ra tashkilot yoki mansabdor shaxslarga tegishli hujjatlardir. Bularga ishga qabul qilish buyruqlari, javob, kafolat, axborot xatlari va boshqalar kiradi.

Shaxsiy hujjat – yakka shaxs tomonidan yoziladigan, ularning xizmat faoliyatlaridan tashqaridagi yoki jamoat ishlarini bajarish bilan bog‘liq masalalarga tegishli bo‘ladigan hujjatlardir. Bularga shaxsiy ariza, shikoyat va boshqalar kiradi.

Aksar hujjatlar dastlab qoralama nusxada tayyorlanadi, bu hujjat tayyorlovchining qo‘lyozma yoki mashinalangan dastlabki nusxasidir. Bu nusxa tuzatilib, qayta ko‘chirilishi mumkin. Qoralama hujjat huquqiy kuchga ega emas.

Hujjat qat‘iy belgilangan rekvizitlar tarkibiga ega bo‘lishi, ularning joylashish va rasmiylashtirish tartiblari 6,38-90 GOSTga muvofiq kelishi kerak. Hujjatlarni tayyorlash borasida bugungi kunda shakllangan umumiy qoidalarga ko‘ra, boshqaruv hujjatlari zaruriy qismlar (rekvizitlar)ning belgilangan majmuyiga va ularning barqarorlashgan joylashish tartibiga ega.

Ma‘muriy-boshqaruv faoliyatida xizmat mavqeyiga ko‘ra, hozirgi kunda hujjatlar asosan quyidagicha tasniflanadi:

- tashkiliy hujjatlar;
- farmoyish hujjatlari;
- ma'lumot-axborot hujjatlari;
- xizmat yozishmalari.

Tashkiliy hujjatlar mazmunan tashkilot, muassasa va korxonalarining huquqiy maqomi, tarkibiy tarmoqlari va xodimlari, boshqaruv jarayonida jamoa ishtirokining qayd qilinishi, boshqa tashkilotlar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalarni aks ettiradi. Guvoohnoma, yo'riqnoma, nizom, qoida, ustav, shartnomalar ana shunday hujjatlar turiga kiradi.

Shartnoma – ikki yoki undan ortiq tomonning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki to'xtatish yo'lidagi kelishuvidir. Boshqacha qilib aytganda, shartnoma tomonlarning biron-bir munosabatlari o'rnatish haqidagi kelishuvi (bitimi)ni qayd etuvchi va munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatdir. Shartnomada tomonlar bajarishi lozim bo'lgan shartlar va boshqa majburiyatlar ko'rsatiladi. Ba'zi shartnomalarda olingan majburiyatni bajarmaslik natijasida keltiriladigan zararni to'lash tadbirlari ham belgilanadi. Tomonlar shartnomaning barcha moddalari bo'yicha bir bitimga kelganlaridan keyin shartnoma tuzilgan hisoblanadi. Shartnomalar o'z mazmuniga ko'ra juda xilma-xil ko'rinishga ega. Muassasalar o'rtasida keng tarqalgan shartnoma turlariga mol (tovar) yetkazib berish, pudrat, imoratlar ijarasi, asbob-uskunalarni o'rnatish haqidagi shartnomalarni ko'rsatish mumkin. Har qanday shartnoma o'z mazmuni va shakliga ko'ra qonunga muvofiq bo'lishi kerak. Bu qoidaning buzilishi shartnomaning qonuniy kuchini yo'qqa chiqaradi va uni shu ahvolda tuzgan yoki tuzishga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslarni javobgarlikka olib keladi. Shartnomalar og'zaki, yozma usulda tuzilishi hamda notarial idoralar tomonidan tasdiqlangan tarzda ham bo'lishi mumkin.



Shartnoma munosabatlari muassasa bilan ayrim shaxs yoki shaxslar o'rtasida o'rnatilayotgan bo'lsa, bunda tuzilajak hujjat aksar hollarda mehnat bitimi deb ataladi.

Farmoyish – muassasa ma'muriyati, shuningdek, bo'limlarning rahbarlari tomonidan amaliy masalalar yuzasidan qabul qilinadigan hujjatdir. Odatda farmoyishlar amal qilish muddati cheklangan bo'lib, bo'limlarning tor doirasiga, ayrim mansabdor shaxslar va fuqarolarga taalluqli bo'ladi. Farmoyish matni xuddi buyruqdagi kabi zaruriy qismlardan tarkib topadi faqat uning asos (kirish) qismida “BUYURAMAN” so'zi o'rniga “TAVSIYA ETAMAN”, “RUXSAT BERAMAN” kabi iboralar ishlatiladi.

Buyruq – mazkur huquqiy hujjat muayyan muassasa asosiy va kundalik masalalarni hal qilish maqsadida qo'llaniladi. Buyruq uchun qog'oz (blanka)lar A4 hajmli (310*297) qog'ozga tayyorlanadi. Mohiyat e'tibori bilan, buyruqlar ikkiga bo'linadi: asosiy faoliyatga oid va kadrlar shaxsiy tarkibiga oid. Asosiy faoliyatga oid buyruqlar ishni tashkil qilish, muassasa yoki uning bo'limlari faoliyatini tartibga solishda qo'llaniladi. Ularda, odatda, yuqori tashkilotlardan kelgan ko'rsatma hujjatlar xodimlarga yetkaziladi, bularning ijrosi yuzasidan aniq tadbirchoralar belgilanadi, mas'ul shaxslar va bajarish muddati tayinlanadi. Buyruq vositasida rahbar tashkilotning ishlab chiqarish, rejalashtirish, hisobot, moliyalashtirish, kredit ajratish, mahsulot sotish faoliyati, tashqi iqtisodiy faoliyati, tashkilot tuzilmasini takomillashtirish va ishlarni tashkil etish hamda boshqa masalalar bo'yicha amaliy ish yuritiladi.

Ichki mehnat tartiboti qoidalari, mukofotlash nizomi va shu kabilarni tasdiqlash bilan bog'liq me'yoriy buyruqlar ham asosiy faoliyatga oid buyruqlar sirasiga kiradi. Buyruqqa tegishli imzolar qo'yilib, u blankaga

ko'chirilgach, tashkilot rahbari uni imzolaydi. Rahbar imzolagan buyruq ish yuritish bo'yicha mas'ul xodim tomonidan tegishli daftarga qayd etiladi. Buyruqning asosiy matni asoslovchi (kirish) va farmoyish qismlaridan tarkib topadi. Asoslovchi (kirish) qismida buyruqdan maqsad, shart-sharoit, sabablar ko'rsatiladi, asos qilib olinayotgan buyruqqa havola qilinadi (nomi, raqami, sanasi yoziladi). Buyruqning farmoyish qismi yangi satrdan, bosh harflar bilan yoziladi "BUYURAMAN" so'zi bilan boshlanadi. Shu so'zdan so'ng ikki nuqta qo'yilib yangi satrda farmoyishlar beriladi. Farmoyishlarda odatda kim qanday vazifani, qaysi muddatda bajarilishi ko'rsatiladi. Buyruqning farmoyish qismi oxirida buyruqni nazorat qilish kimga yuklatilganligi ham qayd qilib qo'yiladi.

Ma'lumot-axborot hujjatlari anchayin katta guruhni tashkil qiladi. Ular ish yuritish jarayonida ayniqsa ko'p ishlatiladi. Bu guruh ariza, bayonnoma, bildirishnoma, vasiyatnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, ma'lumotnoma, tavsifnoma, tavsiyanoma, taklifnoma, tarjimayi hol, tushuntirish xati, e'lon, hisobot kabi hujjatlarni o'z ichiga oladi.

Dalolatnoma – muassasa yoki ayrim shaxslar faoliyati bilan bog'liq bo'lib o'tgan (sodir bo'lgan) voqea, hodisa, ish harakatni yoki mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjatdir. Dalolatnoma tuzishdan asosiy maqsad sodir bo'lgan voqea hodisalar yoki mavjud holatni qonuniy-huquqiy jihatdan isbotlash yoki tasdiqlashdir. Dalolatnoma deyarli barcha hollarda pul mablag'lari va moddiy boyliklarga bog'liq tuziladi, binobarin, u ko'proq tadbirkorlik, moliya-xo'jalik faoliyatida, hisob-kitob, oldi-sotdi va savdo sohalarida keng qo'llanadi. Dalolatnomalar voqea-hodisalarni haqqoniy aks ettirish maqsadida bir necha



shaxslar yoki maxsus vakolatli yakka shaxs (taftishchi, nazoratchi) tomonidan tuziladi.

Xizmat yozishmalari – mazmunan xilma-xil bo‘ladi. Ularda muassasa faoliyatining turli masalalari bilan bog‘liq talab, iltimos, taklif, kafolat kabilar aks ettiriladi. Bu ma’nodagi xizmat yozishmalari hujjatlarning yuqorida ko‘rsatilgan guruhlari bilan uzviy aloqadordir. Shularni hisobga olib, xizmat yozishmalari hozirgi zamon hujjatshunosligida mazkur guruhlardan keyin alohida guruh sifatida tasniflangan va bu mantiqan o‘rinli¹².

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

2. Hujjatlarning inson hayotidagi o‘rni haqida gapirring.

2. Ichki va tashqi hujjatlar haqida fikr bildiring.

3. Xususiy hujjatlarning namunaviy va qolipli hujjatlardan farqi nimada?

4. Mazmunan tashkilot, muassasa va korxonalarining huquqiy maqomi, tarkibiy tarmoqlari va xodimlari, boshqaruv jarayonida jamoa ishtirokining qayd qilinishi, boshqa tashkilotlar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalarni aks ettiradi. Guvohnoma, yo‘riqnoma, nizom, qoida, ustav, shartnomalar ana shunday hujjatlar turiga kiradi. Bu xususiyatlar qanday hujjatlarning belgilari sanaladi?

5. Qaysi hujjatning asos (kirish) qismida “BUYURAMAN” so‘zi o‘rniga “TAVSIYA ETAMAN”, “RUXSAT BERAMAN” kabi birliklar ishlatiladi?

6. Ma’lumot-axborot hujjatlari haqida ma’lumot bering. Ularni boshqa hujjat turlaridan farqi nimada?

7. Tashkiliy hujjatlarga misollar keltiring.

12 Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. Darslik. -Toshkent: Cho‘lpon, 2013.

8. Mazmunan xilma-xil bo‘ladi. Ularda muassasa faoliyatining turli masalalari bilan bog‘liq talab, iltimos, taklif, kafolat kabilar aks ettiriladi. Bu xususiyatlar qanday hujjatlarga tegishli?

SOHA TILINING XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Sport va o‘zbek adabiy tili.
2. Sportga oid leksemalar va ularning tasnifi.
3. Sport terminlari va ularning nutqda qo‘llanilishi.

Tayanch so‘z va iboralar:

O‘zbek adabiy tili, leksema, sport terminlari, o‘z qatlam, o‘zlashgan qatlam, leksik birliklar.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi til sathlari orasida leksik birliklar alohida o‘rin tutadi va ularning o‘ziga xos me‘yoriy xususiyatlari mavjud.

Sportga oid leksemalar asosan ikki guruhga bo‘linadi: ot va fe‘l turkumiga mansub so‘z hamda birikmalar orqali ifodalanadi. Sport ma‘nosini ifodalovchi birliklarni quyidagicha mavzulashtirish mumkin:

1. Sport turlarini ifodalovchi leksemalar.
2. Sport anjomlari va jihozlarini ifodalovchi leksemalar.
3. “Harakat” va “holat” belgili nomlovchi leksemalar.
4. Sport musobaqasi o‘tkaziladigan maydon bilan bog‘liq leksemalar.
5. Sport tibbiyoti bilan bog‘liq birliklar.



Jumladan, sport o‘yinlari o‘tkaziladigan maydonlar *maydon, kort, stadion, majmua, trassa, arena, tatami, gilam, basseyn, trap, ring* kabi nomlar bilan ataladi va ochiq-yopiqligi, o‘lchamlari, qanday sport turiga mo‘ljallanishi bilan ajralib turadi.

Sport jihozlari qatoriga sport arenalarining uskunalari: *darvozalar, to‘rlar, qalqonlar (shchitlar), to‘siqlar, boks-chilar ringi, gimnastika gilami* va boshqalar; sport musobaqalari va mashg‘ulotlarda ishlatiladigan maxsus texnika (*fotofinish, elektr tablo, turli trenajorlar* va boshqalar) kiradi.

Sport terminlari tuzilishiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: sodda va murakkab terminlar (qo‘shma so‘z, so‘z birikmasi, ayrim hollarda juft so‘z shaklida bo‘ladi).

Sport terminlarini kelib chiqishiga ko‘ra quyidagicha guruhlash mumkin:

1. O‘z qatlamga mansub leksik birliklar.
2. O‘zlashgan qatlamga mansub leksik birliklar.

Sport terminlari tarkibida sport turining kelib chiqish vataniga ko‘ra inglizcha, ruscha, yunoncha, yaponcha, koreyscha, lotincha terminlar ko‘plab uchraydi. Bular ko‘proq xalqaro terminlar guruhiga mansub. Biroq sport turlarini birlashtirib turadigan ko‘plab semalar (“yugurish”, “zarba”, “masofa” kabi) o‘zbek tilida mavjud.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida sportga bo‘lgan e‘tibor, sportning davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnining yuksak baholanishi bu sohada ko‘plab o‘zgarishlarning amalga oshirilishiga sabab bo‘ldi.

Shu bilan birga sportga bo‘lgan e‘tibor jurnalistika, tilshunoslik oldiga bir qator vazifalarni qo‘ymoqda. Sportga oid terminlarni to‘g‘ri shakllantirish, ularni tizimlashtirish, turli mahalliy va xalqaro miqyosdagi sport musobaqalarini sharhlash mezonlarini belgilash shular

jumlasidandir. O‘zbekiston sportchilarining boks, futbol, dzyudo, sambo kabi turli sport ko‘rinishlarida xalqaro musobaqalarda erishayotgan yutuqlari aholi orasida ham shu sport turlariga bo‘lgan qiziqishni orttirmoqda. Natijada sport musobaqalarini sharhlash, uni keng jamoatchilik orasida targ‘ib qilish uchun sport sharhlovchisi mazkur sohaga oid ko‘plab terminlarni bilishi, tinglovchi hamda tomoshabinlarga tushunarli holatda yetkazib berishi talab qilinmoqda¹³.

Savol va topshiriqlar:

1. Adabiy tilning sport bilan qanday aloqasi bor?
2. Sport ma‘nosini ifodalovchi birliklarni qanday mavzulashtirish mumkin?
3. Sportga oid sodda va murakkab terminlar haqida nimalar bilasiz?
4. Sport terminlarining kelib chiqishiga ko‘ra qanday guruhleri bor?
5. Sport turining kelib chiqish vataniga ko‘ra qanday terminlarni bilasiz?
6. Sport jurnalistikasi deganda nimani tushunasiz?
7. Sport terminlarining kelib chiqishiga ko‘ra guruhlariga misollar ayting.
8. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan foydalanib, bu terminlarning ma‘nosini izohlang.
9. Ma‘nosi izohlangan terminlarni alifbo tartibida joylashtiring.

13 Iskandarova Sh., Shokirova M. Lug‘aviy birliklarning struktur-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari. – Farg‘ona, 2021. 38-42-betlar



SOHA TILI LEKSIKASI

Reja:

1. Termin va terminologiya haqida.
2. Soha terminlariga qo‘yiladigan talablar.
3. Sport sohasi terminologiyasi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Termin, atama, istiloh, terminologiya, maxsus leksika, tushunarlilik, aniqlik, qisqalik, sport terminologiyasi

Termin grekcha “terminus” so‘zidan olingan bo‘lib, “chek”, “chegara” degan ma’noni bildiradi. U fan-texnika, qishloq xo‘jaligi, san‘at va madaniyat sohasiga xos so‘z hisoblanadi. Terminologiya – terminlar haqidagi ta’limot va terminlar majmuyi degan ma’nolarni anglatadi.

Termin so‘zi o‘rnida ba‘zan atama, istiloh so‘zlarini ishlatish hollari uchrab turadi. Ammo bu to‘g‘ri emas. Atama termin so‘ziga nisbatan tor tushunchani ifodalaydi. Istiloh so‘zi esa arabchadir. Uni xalq tushunmaydi va me‘yorga aylanmagan. Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Chunki terminlarning sohalar lug‘aviy qatlamlaridagi o‘rni va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglash imkonini beradi.

Terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo‘llari har xil: boshqa tillardan so‘z olish, yangi so‘z yasash, ayrim grammatik kategoriyalarning leksikalashuvi, so‘z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi va boshqa bugungi kunda o‘zbek terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so‘z olish va ichki so‘z yasash hisobiga ro‘y bermoqda. U yoki bu soha terminologik tizimining barqarorligini belgilovchi asosiy omili uning tartibga solinganligi va muntazamligidir.

Ammo shuni ham aytish o‘rinliki, bu jarayonda ruscha va rus tili orqali kirib kelgan terminlarni o‘rinsiz, sun‘iy ravishda yangi yasalmalar yoki arab va fors-tojikcha so‘zlar bilan almashtirish hollari ham kuzatiladi. Masalan, bankrot – sinish, buxgalter – hisobchi, gazeta – ro‘znoma, institut – oliygoh (ta‘limgoh), klub – tomoshagoh (tad-birgoh), kompensatsiya – tovon, medal – nishon, kurs – bosqich, sinonim – ma‘nodosh, omonim – shakldosh, antonim – zid ma‘noli va hokazo.

Terminologiyaning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, umumadabiy tilda sinonimiya, omonimiya va ko‘p ma‘nolilik tilning boyligi bo‘lsa, terminologiyada bular salbiy hodisa hisoblanadi. Masalan, birgina tushunchani ifodalash uchun o‘zbek tilida *yarim o‘tkazgich – chala o‘tkazgich – nim o‘tkazgich* terminlari qo‘llanmoqda. Bu, o‘z navbatida, o‘qish, o‘qitish va axborot almashish jarayonini qiyinlashtiradi. Shu sababli ham terminologiyasi ma‘lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Tartibga solish ma‘lum terminologik me‘yorlar asosida amalga oshiriladi. Terminologiyaning rivojida fan sohalariga oid maxsus lug‘atlarni nashr qilib turish ham muhim ahamiyatga ega.

Terminlar o‘z ma‘nosining aniqligi va ixtisoslashganligi bilan odatdagi leksik so‘zlardan farq qiladi. So‘zlar terminga aylangach, zarur bo‘lgan bir ma‘nonigina anglatadi (kirish, engashish, tashlanish, ko‘prik, pastga tashlanish, osilish, tayanish va hokazolar). Bunda terminlar biron tushuchani, harakatni bildiribgina qolmay, balki uni turdosh tushuncha, harakatlardan ajratib, aniqlab beradi. Sohaga oid terminlarga ham ma‘lum talablar qo‘yiladi:

1. Tushunarlilik – terminologiya ona tili lug‘at sostavi va boshqa tillardan olingan so‘zlar, shuningdek, inter-

natsional termin-soʻzlar asosida qurilgan boʻlib, mazkur xalq tilidagi va soʻz yasash, grammatika qoidalariga toʻla mos boʻladi. Shundagina terminlar tushunarli, hayotiy va barqaror boʻladi. Ona tili normalarining buzilishi terminlarning tushunarli boʻlmay qolishiga olib keladi.

2. Aniqlik – termin taʼriflanayotgan harakat (mashq) yoki tushunchaning mohiyati haqida ochiq-oydin tasavvur beradigan boʻlishi kerak. Terminning aniqligi mashq haqida toʻgʻri tasavvur hosil qilish uchun katta ahamiyatga molik boʻlib, u mashqni tezroq oʻrganib olishda yordam beradi.

3. Qisqalik – terminlar qisqa, talaffuz etishga qulay boʻlgani maʼqul. Mashqlarga nom berish va ularni yozishni yengillashtiradigan qisqartiruv qoidalari ham shunga xizmat qilishi darkor.

Jahon hamjamiyati bugungi kunda sport sohasini millatlarni totuvlikka, hamjihatlikka, doʻstlikka, birdamlikka yetaklovchi eng maqbul yoʻl sifatida eʼtirof etmoqda. Sportning barcha turlarini keng tatbiq qilish uchun yaratilayotgan imkoniyatlar undagi yangi yoʻnalishlarning rivojlanishi, oʻz navbatida, sport milliy terminologiyasining shakllanishiga olib keldi. Zero, til va jamiyatning bevosita bogʻliqligi hamda ularning dinamik holda toʻxtovsiz oʻzgarishlarga uchrashida mazkur soha terminlari ham salmoqli oʻrin egallaydi.

Termin semantik nuqtayi nazardan maxsus soha doirasi bilan chegaralangan leksik birlikdir. Ayrim hollarda maʼlum bir soha terminlarida boshqa soha terminologiyasiga integrallashuv jarayoni kuzatiladi, natijada, ular oʻsha soha uchun qoʻshimcha terminlik vazifasini ham bajaradi. Masalan, “tosh” termini ekologiya sohasiga tegishli boʻlib, tabiiy qattiq jism hisoblanadi. Moliya, soliq, iqtisod sohalarida oʻlchov birligini ifodalaydi. Sport so-

hasida muskullarni rivojlantiruvchi og‘ir qurol ma‘nosini ifodalaydi¹⁴.

Terminlar yasashning eng ko‘p tarqalgan usuli mavjud so‘zlarga yangi ma‘no berish (ularni boshqacha tushunish), masalan, *ko‘prik, kirish, o‘tish, chiqish* kabi so‘zlar gimnastikada ana shunday terminlardan hisoblanadi. Ko‘pincha terminlar so‘zlarning, masalan, *past-baland* (bruslar), *balandga-uzoqqa* (sakrash) singari o‘zaro birikishidan ham yasaladi.

Osilish, tayanish, tebranish, o‘tirish va shu kabi ayrim so‘zlar termin sifatida qo‘llaniladi. Statik holatlarni bildiradigan terminlar, masalan, *tayanish, bilaklarga tayanish, qo‘ltiqlarga tayanish; kuraklarda turish, kallada turish, qo‘llarda turish* kabilarda tayanch sharti hisobga olinadi, *osilish, burchakli osilish, bukilib osilish, egilib osilish* singarilarda esa gavda holati (uning bo‘g‘inlarini bir-biriga nisbatan qanday turishini) hisobga olib yasaladi.

Tebranish mashqlarining terminlari muayyan harakatlantiruvchi faoliyat xususiyatlarini hisobga olib yasaladi. Masalan, *bilaklarga tayanib turib oldinga siltanib ko‘tarish, qaddini rostlab siltanib ko‘tarilish, oyoqni juftlab yoki bitta oyoqda ko‘tarilish* va hokazo.

Sakrash va *sakrab tushish* terminlari sport gimnastikasida gavdaning havodagi holatiga qarab belgilanadi, masalan, *oyoqlarni yig‘ib sakrash, oyoqlarni kerib sakrash, to‘ntarilish*; badiiy gimnastikada gavda bilan oyoqlar holatiga qarab belgilanadi: *yopiq sakrash, ochiq sakrash, odimlab sakrash, sapchish, tayanib dumbaloq oshish, tashlanib sakrash, siltanib sakrash, chir aylanib sakrash* va hokazolar.

14 Саримсоков Х. Инглиз ва ўзбек тилларида спорт терминларининг чоғиштирма тадқиқи. Филол.фанл. б. фалсафа докт (PhD) дисс. Автореф. Тошкент – 2020



Sport sohasining terminologik tizimi yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili natijasida shuni aytish mumkinki, soha terminlaridan tashqari, termin-neologizm (terminologik neologizm)lar ham mavjud bo'lishi tabiiy. Binobarin, ingliz tilida ma'lum bir sport sohasiga oid termin o'zbek tili iste'molida ilk marta qo'llanilsa yoki qo'llanilish ehtimoli yuqori bo'lsa, bu jarayon, albatta, termin-neologizm bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. Bunday terminlar qay darajada ommabop bo'lishi ular mavjud bo'lgan sohaning rivoji bilan chambarchas bog'liq, sportga oid leksik birliklarni nominatsiya tamoyillariga ko'ra, quyidagi shaklda tasniflash va guruhlashtirish samarali hisoblanadi:

1. Sport sohasida narsa yoki obyektни ifodalovchi birliklar: *belbog', kartochka, hushtak, lappak, yadro, channa*.

2. Sport sohasida "shaxs" yoxud "ishtirokchi"ni ifodalovchi birliklar: *hakam, himoyachi, xokkeychi, muxlis, sekundant, murabbiy*.

3. Sport sohasida "harakat"ni ifodalovchi birliklar: *tepmoq, to'smoq, hujum qilmoq, egmoq, olqishlamoq, tanaffus qilmoq*.

4. Sport sohasida "o'rin-joy"ni ifodalovchi birliklar: *maydon, kort, qarorgoh (lager), stadion, velotrek, suv havzasi (basseyn)*.

5. Sport sohasida sport o'yinlarini ifodalovchi birliklar: *kurash, boks, yugurish, suzish, qilichbozlik, tog'chang'isi, dengiz poygasi*.

6. Sport sohasida aralash turdagi birliklar: *muzsaroy, sport vaqti, sport gigiyenasi, VAR (video assistant refere) tizimi*.

Yuqoridagilar asosida aytish mumkinki, yurtimizda sport terminlarining shakllanishi kecha yoki bugun yuz

bergan emas, balki VIII-IX asrlardan oldin ham ular umumiste'mol leksemalari sifatida qo'llanilgan¹⁵.

Shuningdek, o'zbek tilidagi *kurash*, *yonbosh* kabi sport terminlari bir qator xorijiy tillarga o'zlashgani va faol qo'llanilayotganligi tilimizning sport sohasi bo'yicha jahonda ham o'z nufuziga ega bo'layotganligidan dalolat beradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Terminologiya qanday fan, uning o'rganish obyekti nima?
2. Termin deganda qanday so'zlar tushuniladi?
3. Terminga xos bo'lgan belgilarni sanang.
4. Atama, istiloh so'zlarining ma'nosini bilasizmi?
5. Odatdagi leksik so'zlar bilan terminlarning farqi nimada?
6. Tushunarlilik, aniqlik, qisqalik kabi talablar haqida gapiring.
7. Sport sohasining terminologik tizimiga ta'rif bering.
8. Sport sohasidagi atamalarni tasniflang.
9. O'zingiz tanlagan sohaga oid atamalarni izohlang.

15 Саримсоков Х. Инглиз ва ўзбек тилларида спорт терминларининг чоғиштирма тадқиқи. Филол.фанл.б. фалсафа докт (PhD) дисс. Автореф. Тошкент – 2020.



SOHA LEKSIKOGRAFIYASI

Reja:

1. Leksikografiya – lug‘atlarni o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi.
2. Lug‘at va uning turlari.
3. Sportga oid so‘zlar lug‘atlarini yaratish muammolari.

Tayanch so‘z va iboralar:

Lug‘at, imlo lug‘ati, izohli lug‘at, terminologik lug‘at, leksikografiya, sport terminologiyasi.

Leksikografiya – (grekcha lexicon – lug‘at, leksika, grafo – yozmoq) lug‘atlarni yaratish nazariyasi hamda amaldagi lug‘atchilik bilan shug‘ullanuvchi sohadir. Bu soha lug‘atshunoslik deb ham ataladi.

So‘zlarning biror maqsadda to‘planib, tartibga solingan yig‘indisiga lug‘at deyiladi. Turkiy tillarga oid ilk o‘zbek lug‘ati Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari bo‘lib, u qomusiy lug‘at hisoblanadi. Ushbu lug‘atda turkiy qabilalarning turmush tarzi, madaniyati, urf–odatlar, tabiati – o‘simlik va hayvonlari to‘g‘risida qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan.

Lug‘atlar, asosan, 2 turga bo‘linadi: qomusiy (ensiklopediya) va filologik (lingvistik) lug‘atlar.

Ensiklopedik lug‘atlar so‘zlarning qisqacha ma‘nosini, tushunchalar izohini berish asosida tuziladi. Unda barcha narsa va hodisalar, kishilar, fan-texnika haqida ma‘lumotlar keltiriladi. Zaruriy o‘rinlarda xarita va rasmlar, sxemalar beriladi.

Filologik lug‘atlar so‘zning turli xususiyatlarini yoritish, ko‘rsatishga xizmat qiladi. Filologik lug‘atlar quyidagi turlarga ega:

1. **Izohli lugʻat.** Soʻzlarning maʼnosi, qoʻllanishi, nutqdagi semalari, fonetik va grammatik xususiyatlarini ochib beruvchi lugʻat.

2. **Tarjima lugʻat.** Bir tilga oid soʻz va iboralarni boshqa bir yoki bir necha tilga oʻgirib ifodalovchi manbalar.

3. **Oʻzlashma soʻzlar lugʻati.** Bunday lugʻatlar bir tilga oʻzlashgan, lekin tarjima va izohni talab qiladigan soʻzlar asosida tuziladi.

4. **Tarixiy lugʻatlar.** Soʻzlarning qachondan boshlab va qanday kelib chiqishi, dastlabki fonetik, semantik, morfemik va grammatik shakllari rivojini ochib beruvchi lugʻatlar.

5. **Imlo lugʻati.** Muayyan bir tilning orfografik qoidalari, imloviy prinsiplari asosida toʻgʻri yozishni oʻrgatuvchi lugʻatlar. Oʻzbek lugʻatchiligida hozirga qadar 20 dan ortiq imlo lugʻatlari yaratilgan.

6. **Qiyosiy (tipologik) lugʻatlar.** Bir oilaga mansub tillarni oʻzaro chogʻishtirib izohlovchi manbalar.

7. **Sheva lugʻati yoki dialektal lugʻat.** Bir til doirasidagi sheva, dialekt va lahjalariga xos boʻlgan fonetik yoki semantik jihatlarni adabiy til bilan solishtiruvchi lugʻatlar.

8. **Orfoepik lugʻat.** Toʻgʻri talaffuz qoidalarini, yaʼni adabiy talaffuz meʼyorlarini koʻrsatuvchi lugʻat.

9. **Frazeologik lugʻat.** Frazeologik soʻz va iboralar maʼnosini sharhlaydigan manba.

10. **Morfem lugʻat.** Soʻzlarning morfem tarkibini tahlil qiluvchi qomus.

11. **Maʼlum bir yozuvchi yo asar tilini sharhlovchi lugʻat.** Bular sirasiga: Navoiy asarlari lugʻati.

12. **Etimologik lugʻat.** Soʻzning kelib chiqishini beruvchi lugʻat.



13. **Sinonimlar lug‘ati.**
14. **Omonimlar lug‘ati.**
15. **Antonimik lug‘at.**
16. **Antroponimik lug‘at.**
17. **Toponimik lug‘at.**
18. **Paronimlar lug‘ati.**
19. **Terminologik lug‘at.**
20. **Chastotali lug‘atlar.** So‘zlarning qo‘llanilish darajasini statik aniqlab beradigan lug‘atlar:
21. **Chappa (ters) lug‘atlar.** So‘zning tugagan harfi asosida tuzilgan lug‘atlar, masalan: bola, pona, shona, dona kabi.

O‘zbek leksikografiyasi uzoq va boy tarixga ega. Biroq hozirgi kun nuqtayi nazaridan olib qaraganda, lug‘atchiligimizda ba’zi muammolar ham mavjud. Ayniqsa, kundan kunga rivojlanib borayotgan davlatimiz, fanimiz va madaniyatimizni yuksaltirish singari ezgu vazifalar lug‘atchilik muammosini va lug‘atxonlik madaniyatini keskin hal qilish lozimligini ko‘rsatmoqda.

Lug‘at bilan ishlash – maroqli, qiziqarli va zavqli. Lug‘atlar, ensiklopediya va ma’lumotnomalar bilan ishlashni tamoyil qilib olgan kishi esa savodli, ongli va madaniyatli insondir¹⁶.

Mustaqillikkacha bo‘lgan so‘z o‘zlashish jarayonida ayrim leksemalarning tilimizga kirib kelishi, rus tilining fonetik, leksik, morfologik yoki sintaktik hodisalariga moslashgan holda o‘zbek tili leksikasiga o‘zlashganini kuzatish mumkin. “Trenirovka” leksemasi ham shu hodisa mahsuli bo‘lib, ma’lum sifat-xususiyatlarga ega bo‘lish yoki ularni saqlab qolish uchun muntazam ravishda amalga oshiriladigan mashqlar, mashg‘ulotlar tushuncha-

16 Sayfullayeva R., Abuzalova M., Mamadaliyeva N., Yuldasheva D. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2020. 119-123-b.

sini ifodalaydi. Bu leksemaning asl varianti mustaqillikdan soʻng *trening* [ingl. training – oʻrgatish, tarbiyalash, mashq qildirish] shaklida oʻzlashtirildi.

TRENIROVKA [r. < ingl. training]

1. Maʼlum sifat-xususiyatga ega boʻlish yoki ularni saqlab qolish uchun muntazam ravishda amalga oshiriladigan mashqlar, mashgʻulotlar.

2. Muayyan reja asosida sportchini, uning organizmini oʻz kuchini maksimal namoyon qilishga, chidamlilik, tezlik, chaqqonlikka va gʻalaba uchun intilishga tayyorlab borish.

TRENING [ingl. training – oʻrgatish, tarbiyalash, mashq qildirish] Trenirovka tizimi, mashq, mashgʻulot rejimi.

Trening leksemasining faollashganini hozirgi paytda turli vaqtli matbuot sahifalarida ham kuzatish mumkin. Bu leksema *seminar-trening*, *oʻquv-trening* leksemalari tarkibida ham uchrab turadi. Psixoterapiya sohasida *auto-trening* (ichki aʼzolar funksiyasi, harakat faoliyati buzilganda oʻz-oʻzini ishontirish va oʻz-oʻzini boshqarish orqali shu holatdan forigʻ boʻlishga olib keladigan psixoterapiya, ruhiy davolash usuli) sifatida ham ishlatiladi. Shunisi muhimki, bu leksema ingliz tilida keng maʼnoda ishlatilsa-da, hozirda tilimizda koʻproq oʻquv sohasiga xoslangan holda ishlatiladi.

Umuman olganda, chempionat [r. chempionat < ingl. championship], trenirovka [r. < ingl. training], tanketka [ingl. tankette – kichkina tank], kovboyka [r. < ingl. cowboy - otliq choʻpon], trusi [r. trusi < ingl. trousers – shim] kabi leksemalar soʻngida -at, -ka singari elementlarning kelish hollari inglizcha leksemalarning tabiatidan yiroq hisoblanadi.

Jismoniy tarbiyada, masalan, behad koʻp mashqlar qoʻllaniladigan gimnastikada terminologiya juda muhim



rol o'ynaydi. Terminologiya mashg'ulotlar vaqtida o'qituvchilar bilan o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini yengillashtiradi, gimnastikaga oid adabiyot nashr qilishda gimnastika mashqlari ta'rifini soddalashtirishda yordam beradi. Gimnastika terminologiyasi gimnastikadan boshqa mashg'ulotlarda ham keng qo'llaniladi.

Gimnastika mashqlarining aniq nomini bilmasdan turib uni o'rganish qiyin. Shu sababli, ularni o'rgatish jarayonida terminologiyaning ahamiyati, ayniqsa, kattadir. Qisqacha termin-so'zlar harakat ko'nikmalarini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlarning tasdiqlashicha, ular mashqni bajarish uchun o'zni tayyorlashga yordam beradi, o'quv jarayonini esa yanada ixcham va maqsadga muvofiq qiladi.

Boshqa sohalaridagi kabi, gimnastika terminologiyasi ham jismoniy tarbiya taraqqiyoti bilan, jumladan, gimnastika taraqqiyoti bilan bir qatorda takomillashib bordi, chunki amaliyot va fanda nimaiki yangilik paydo bo'lsa, u tilda muqarrar aks etib, uni boyita boradi.

Turishlar – asosiy turishlar saf turishiga mos keladi. Turishning quyidagi turlari bor: oyoqlarni kerib turish, oyoqlarni keng kerib turish, oyoqlarni sal kerib turish, o'ng oyoqni kerib turish, chalishtirib turish bunda oyoq kaftlari juftlanadi, o'ng (chap) oyoqda erkin turish. Oyoqlar uchida turishda “oyoq uchida (uchlarida)” so'zlari qo'shiladi. Tizzalarda turishdan (shuningdek, o'tirish, yotish va boshqa holatlardan) oyoqlarni to'g'rilab turishga o'tish “tik turish” termini bilan belgilanadi.

O'tirishlar – yerda yoki gimnastika snaryadlarida o'tirish holatlari. O'tirishning quyidagi turlari bor: o'tirish, oyoqlarni kerib o'tirish, burchakli o'tirish, oyoqlarni kerib burchakli o'tirish, bukilib o'tirish, oyoqlarni quchoqlab o'tirish, tovonlarda yoki o'ng tovonda, o'tirish, sonda o'tirish va boshqalar.

Cho‘qqayish – shug‘ullanuvchining oyoqlari bukilgan holat, yarim cho‘qqayish, do‘ngsimon cho‘qqayish, do‘ngsimon yarim cho‘qqayish, ortga engashib yarim cho‘qqayish, engashib yarim cho‘qqayish va bu «suzuvchi starti» deb ham yuritiladi, o‘ng yoki chap oyoqda yarim cho‘qqayish, o‘ng yoki chap oyoqda cho‘qqayish va boshqalar.

Ko‘tarilish – osilib turishdan tayanishga yoki pastroq tayanishdan yuqoriroq tayanishga o‘tish (harakat boshni oldinga qaratgan holda bajariladi). Ko‘tarilishning quyidagi turlari bor: galma-gal kuchanib ko‘tarilish, kuchanib ko‘tarilish, bir oyoqni silkitib to‘ntarilib ko‘tarilish, siltanib to‘ntarilib ko‘tarilish, kuchanib to‘ntarilib ko‘tarilish, o‘ng (chap) oyoqda ko‘tarilish, ikkala oyoqda ko‘tarilish, gavgani rostlab ko‘tarilish va hokazo.

Aylanish – gimnastikachining tayanishdan boshlanib, snaryad (turnik, yog‘och va hokazo) o‘qi atrofida aylanma harakatlanishi. Aylanishning quyidagi turlari bor: oyoqlarni kerib tayanishdan oldinga (orqaga) aylanish, tayanishdan oldinga yoki orqaga aylanish, katta aylanish.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sport XXI asrning muhim ijtimoiy hodisasi, universal tabiatga ega bo‘lgan ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda sportga turli ilmiy sohalar mutaxassislari katta ahamiyat qaratmoqdalar. Turli sport turlarining o‘ziga xos tiliga bag‘ishlangan lingvistik tadqiqotlar muhim ahamiyatga egadir¹⁷.

17 Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar| Инновации в педагогике и психологии| Innovations in pedagogy and psychology. №SI-2| 2020, 8-qism| Maxsus son.



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Leksikografiya qanday bo‘lim?
2. Lug‘at deganda ko‘z oldingizga qanday kitob keladi?
3. Lug‘at turlarini sanang.
4. Faoliyatingiz davomida qanday lug‘at turlari bilan ishlagansiz?
5. “Trenirovka” so‘ziga izoh bering.
6. *Trening* so‘zi qaysi sohalarda qay ko‘rinishda qo‘llaniladi?
7. Gimnastika mashqlarida qo‘llaniladigan terminlarga misol keltiring.
8. Jismoniy tarbiya va terminologiya fanlarining bog‘liqligi haqida gapiring.
9. O‘zingiz shug‘ullanadigan sport turiga oid so‘zlar lug‘atini tuzing.
10. Nima deb o‘ylaysiz, lug‘atlarni alifbo tartibida tuzish shartmi?



SOHA TILIDA ADABIY TIL VA UNING ME'YORLARI

Reja:

1. Adabiy til – sayqallangan til.
2. Me'yor: umumiy va xususiy me'yor.
3. Adabiy til me'yorlari.

Tayanch so'z va iboralar:

Adabiy til, me'yor, umumiy me'yor, xususiy me'yor, leksik-semantik me'yor, talaffuz me'yor, yozuv me'yor, imloviy me'yor, fonetik me'yor, aksentologik me'yor, grammatik me'yor, so'z yasalish me'yor, uslubiy me'yor, punktuatsion me'yor

Til o'zligimiz, ma'naviyatimiz ko'zgusi bo'lib, xalqimizning boqiy qadriyatlari, madaniy merosi uning tilida namoyon bo'ladi. Adabiy til tarixan shakllangan, so'z ustalari tomonidan qayta ishlangan, sayqal berilgan, me'yoriy va jamiyatda kishi faoliyatining hamma sohalari bilan bog'langan badiiy-publitsistik, ilmiy adabiyot tilidir. Boshqacha qilib aytganda, adabiy til barcha o'zbek tilidan foydalanuvchilar uchun namuna bo'ladigan, umumxalq tilining eng yaxshi ifoda imkoniyatlari mujassamlangan tildir.

Me'yor – jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan va ularga tushunarli bo'lgan til birliklarining nutq jarayonida qo'llanish holati va imkoniyatidir.

Nutq madaniyati to'g'risida gap borar ekan, tabiiyki, nutqda so'zlarning o'rinli va o'rinsiz ishlatilishi to'g'risida ham bahs boradi. Qo'llangan til birligini to'g'ri yoki noto'g'ri deyilganda, albatta, ma'lum bir o'lchovga asoslanamiz. Mana shu o'lchov tilshunoslikda adabiy til me'yori deb yuritiladi.



Til me'yorini belgilash muammolarini hal qilish har bir milliy til madaniyatini rivojlantirishning uzviy qismiga aylanadi. Tildagi me'yoriy muammolarni, qiyinchiliklarni qisqa muddatda hal qilishning esa imkoni yo'q.

O'zbek milliy adabiy tili garchi umumxalq tilidan o'sib chiqqan bo'lsa ham, unda mavjud bo'lgan dialektlar va shevalardan, jargonlardan, oddiy so'zlashuv tilidan, umuman, xalq tilidan ba'zi jihatlari bilan farq qiladi. Chunki umumxalq tili o'zbek tilida uchraydigan barcha elementlarni o'z ichiga oladi va ishlanmagan shaklda bo'ladi. Adabiy til esa undan o'zbek tilida so'zlashuvchilar uchun tushunarli bo'lgan va foydalanishda qulay deb topilgan variantlarini tanlab oladi hamda ularni millat va killari uchun me'yor sifatida tavsiya etadi.

Har qanday til me'yorlarini ikki guruhga – umumiy va xususiy me'yorlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Me'yorga nisbatan qo'llaniladigan umumiylik va xususiylik til me'yorlarining faoliyat doirasi, qamrovi va ularning biri ikkinchisiga nisbatan olinganda anglashiladigan tushunchalardir. Shu ma'noda o'zbek umumxalq tilidagi barcha me'yorlar yig'indisini umumiy me'yor, adabiy, lahjaviy, turli ijtimoiy qatlamlar tiliga oid me'yorlarni xususiy me'yorlar sifatida qabul qilish mumkin.

Shunday qilib, bir tomondan, o'zbek tiliga tegishli bo'lgan barcha me'yorlar yig'indisini umumiy me'yor deb tushunamiz. Ikkinchi tomondan esa, qo'llanish doirasi chegaralanmagan hamda tilning hamma iste'molchilari va tildagi barcha vazifaviy uslublar uchun baravar bo'lgan birliklar majmuyini anglaymiz. Masalan, *daryo, suv, osmon, yer, tosh, tog', bog', daraxt, uy, devor; oq, qizil, katta, kichik, uzun, qisqa, chiroyli, dono; bir, ikki, uch, yetmish, sakson, to'qson, yuz, ming; u, bu, shu, siz, biz; bor,*

kel, ket, qo'y, o't; tez, sekin, oz, kam, ko'p; va, ham, ammo, lekin, biroq; -u, -ku, -da, -yu; oh, voh, voy, dod, uh kabi.

Keltirilgan so'zlar adabiy tilda ham, tilning noadabiy shakli – umumxalq tili doirasida qaraladigan lahja va so'zlashuv nutqida ham qo'llanilaveradi. Bu esa ana shu til vositalarini bir tilning umumiy me'yorlari qurshovida qarashga asos bo'ladi.

Xususiy me'yor ma'lum til umumiy me'yorlarining yashash shaklidir. Shunday ekan, o'zbek adabiy tili, lahja va shevalari hamda ijtimoiy tarmoqlarining me'yori xususiy me'yor sanaladi. Xususiy me'yorlarni yanada aniqroq tasavvur qiladigan bo'lsak, har bir shaxsning tildan foydalanish me'yorini ham, o'zbek tilida mavjud bo'lgan beshta – rasmiy, ilmiy, publitsistik, badiiy, so'zlashuv uslublari doirasida amal qiladigan me'yorlarni ham xususiy me'yorlar deb tushunishimizga to'g'ri keladi.

Adabiy til esa umumxalq tilining yashash shakllaridan biri bo'lib, uning boshqa ko'rinishlaridan mukammalligi bilan bir qadar farq qiladi. Uning qamrov doirasi umumxalq tilining boshqa shakllariga nisbatan keng. U butun bir millatga oliy darajada xizmat qilishga mo'ljallangan. Shuning uchun chegara bilmasdan, xalq orasiga chuqur kirib boradi va keng tarqaladi.

Millat manfaati va madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladigan adabiy tilning o'ziga xos xususiyati, uning umumxalq tilidan farq qiluvchi jihati ko'p bo'lib, ular orasida me'yoriylik markaziy o'rinda turadi. O'zbek adabiy tilining o'zbek xalqi uchun umummajburiyligi, ko'pvazifaliligi va uslubiy tarmoqlanganligi kabi xususiyatlarning birortasi me'yoriyliksiz amalga oshmaydi.



ADABIY TIL ME'YORLARI

O'zbek adabiy tili me'yoriy ko'rinishlari ilmiy asarlarda quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Leksik-semantik me'yor.
2. Talaffuz (orfoepik) me'yori.
3. Yozuv (grafika) me'yori.
4. Imloviy me'yor.
5. Fonetik me'yor.
6. Aksentologik (urg'uni to'g'ri qo'llash) me'yor.
7. Grammatik (morfologik va sintaktik) me'yor.
8. So'z yasalish me'yori.
9. Uslubiy me'yor.
10. Punktuation me'yor.

Leksik me'yor deganda nutq jarayonida umumxalq tilida mavjud bo'lgan so'zlarni to'g'ri tanlash va o'rinni ishlatish tushuniladi. Ko'pma'nolilik, sinonimlar va variantlar shaklidagi leksik birliklar doirasida tanlanish imkoniyatining ko'pligi uning xususiy me'yorlari shakllanishiga ham sabab bo'lgan. Tilimizdagi dialektizm, neologizm va okkazionalizm, pleonazm va boshqa leksik birliklarning me'yoriy xususiyatlari yuzasidan mulohaza yuritish leksik me'yor to'g'risidagi tasavvurimizni kengaytiradi.

Dialektizmlar va adabiy til me'yori doirasida me'yorni belgilash tilimizdagi mas'uliyatli masalalardan biri sanaladi. Chunki adabiy til sheva leksikasidan ularning ko'pchiligi uchun umumiy bo'lgan so'zlarni tanlab oladi va uni o'z leksik tarkibiga kiritadi (masalan: *sigir-siyir-inak*, *chaqaloq-jiji-ninnicha-buvak*, *tuxum-moyak-yumurta*, *chumoli-murcha-qarinja-qumursqa* kabilar).

Orfoepik me'yorlar aslida xalq jonli tili faktarlari asosida yaratiladi – jonli tildagi turlicha talaffuz ko'rinishlaridan adabiy til an'analari mos keladiganlari

tanlanadi. Masalan, o‘zbek shevalarida bir so‘z turlicha talaffuz qilinadi: *yo‘q-jo‘q, ko‘z-go‘z, ota-ata, aka-oka, anor-onar* kabi. Hozirgi zamon fe‘li qo‘shimchasi shevalarda *-yap(ti), -op(ti), -utti, -vot(ti)* shakllarida qo‘llanadi: *boryapti, boropti, borutti, borvotti* kabi. Adabiy tilda shulardan *yo‘q, ko‘z, ota, aka, anor, boryapti* variantlari adabiy talaffuz me‘yori (orfoepik norma) sifatida saralangan.

Adabiy me‘yorning og‘zaki va yozma ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, og‘zaki adabiy me‘yorning rivojlanishiga xalq qiziqchilari, askiyachilari, latifago‘y xalq shoir-baxshilari katta hissa qo‘shsalar, yozma adabiy me‘yorning shakllanishida belgilangan yozuv shakli asosida yozib qoldiradigan yozma adabiyotning xizmati cheksizdir.

Grafika ham orfografiya ham yozuv bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ular mazmunan farqlanadi. Masalan: maktab so‘zidagi harflarning to‘g‘ri yozilishini (balandligi, kengligi, ulanishi, satrda joylashishi kabi jihatlarni) grafika aniqlasa, so‘z oxiridagi “b” undoshining og‘zaki nutqda jarangsizlanib “p” tarzida aytilsa-da, “b” deb yozilishini (maktap – maktab kabi) imlo me‘yorlari belgilaydi.

Tilshunoslikda, ma‘lumki, yangi alifbo joriy etilsa, shu alifbo asosidagi **imlo qoidalar**i ishlab chiqiladi. Imlo qoidalarini tasdiqlashdan maqsad esa, yozma nutqda bir xillikni ta‘minlashdan iborat. Demak, hozirgi vaqtda hech bir kishilik jamiyatini yozuvsiz tasavvur qilib bo‘lmaganidek, yozuvni imlo qoidalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Fonetik me‘yor hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun 6 ta unli va 23 ta undosh tovushning qabul qilinishi va ularning qo‘llanish tamoyillari, milliy tovush talaffuzlari asosida belgilanadi. Fonetik me‘yor deyilganda, milliy tovush talaffuzi, so‘z ohangi va gap intonatsiyasi tushuniladi. O‘zbek tili musiqiy tillar guruhiga kiradi. So‘zlarning jarangdor va serjiloligi, purma‘no va ohangdorligi, serqirra



va ma'nodoshligi o'zbek tilining zukkolik va zakovat omili ekanligini ko'rsatadi; o'zbekcha "askiyachi" so'zi boshqa hech bir tilda uchramaydi.

Aksentologik (urg'uni to'g'ri qo'llash) me'yor. O'zbek tilidagi urg'u asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi, ammo ayrim o'zlashgan so'zlarda urg'u so'zning oldingi bo'g'inlarida bo'lishi ham mumkin: *hamma, jami, hamisha, afsuski* kabi. Bunday holatlardan xabardor bo'lish adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilish imkonini beradi.

Grammatik me'yorlar morfologik va sintaktik me'yorlardan tarkib topadi. So'zlarning morfologik shakli va ularning nutqda qo'llanishini tartibga soluvchi qoidalar morfologik me'yorlar, so'zlarning birikish yo'llari, so'z birikmasi va gap tuzilishi bilan bog'liq qoidalar esa sintaktik me'yorlar deb yuritiladi. Taassufki, adabiy morfologik me'yorlarning nutqda buzilishi tez-tez uchraydi. Bu me'yorlarning buzilishidagi eng keng tarqalgan holatlardan biri qaratqich va tushum kelishiklarini qorishtirishdir. Aslida bu kelishiklarni qo'llash bilan bog'liq qoida kuchli me'yor bo'lishi kerak edi, chunki tilimiz tabiatiga ko'ra qaratqich kelishigi keng ma'noda ot turkumidagi so'zlarni bir-biri bilan bog'lashga (*daraxtning bargi, O'zbekistonning poytaxti* kabi), tushum kelishigi esa keng ma'noda ot bilan fe'lni bog'lashga (*kitobni o'qimoq, Vatanni sevmoq* kabi) xizmat qiladi. Ammo bu me'yor shevalar va og'zaki nutq ta'sirida kuchsizlangan. Aytish mumkinki, hozirgi kunda o'zbek tilining yetakchi shevalarida qaratqich kelishigi tushum kelishigi bilan aynan bir xil shaklda qo'llanadi (*daraxtni bargi, kitobni o'qimoq* kabi).

O'zbek tilining o'ziga xos **so'z yasalishi me'yorlari** mavjud. Har qanday yasaladigan so'z shu me'yorlar doira-

sida bo‘lmog‘i shart. Bu me‘yorlarga amal qilinmasdan yasalgan so‘z tilning lug‘at tarkibidan o‘rin ololmaydi. Masalan, *-gich (-g‘ich, -qich, -kich)* qo‘shimchasi faol yasovchi qo‘shimchalardan bo‘lib, tilimizdagi mavjud so‘z yasash me‘yorlariga ko‘ra fe‘lga qo‘shiladi va narsa-qurol, ya‘ni fe‘ldan anglashilgan harakatni bajaruvchi qurol otini yasaydi: *suzgich, tekislagich, chizg‘ich, qirg‘ich, qisqich, ko‘rsatkich* kabi.

O‘zbek tilida quyidagi nutq uslublari farqlanadi: 1) so‘zlashuv uslubi; 2) rasmiy uslub; 3) ilmiy uslub; 4) publitsistik uslub; 5) badiiy uslub. Bu uslublarning har biriga xoslangan grammatik shakllar, so‘z, so‘z birikmasi, gap va intonatsion vositalar mavjud. Ana shu xoslanish o‘zbek adabiy tili uslubiy me‘yorlarining asosidir. Aniqroq aytiladigan bo‘lsa, **uslubiy me‘yorlar** muayyan sohadagi aloqani ta‘minlaydigan nutqning mazmuni, maqsadi va vazifasi uchun mos keladigan til birliklarini tanlash qoidalaridir. Har bir uslubning o‘ziga xos til xususiyatlarini, demakki, uslubiy me‘yorlarini bilmasdan turib tuzilgan har qanday nutq tom ma‘nodagi madaniy nutq bo‘la olmaydi.

Tinish belgilari me‘yori – **punktuatsion me‘yor** yozma nutqqa xosdir. Tinish belgilari o‘z o‘rnida ishlatilmasa, gapning mazmuni ham, sintaktik tuzilishi ham o‘zgaradi. Masalan, *Siz yomon odam emassiz. – Siz yomon, odam emassiz.*

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Adabiy tilga ta‘rif bering.
2. Me‘yor deganda nimani tushunasiz?
3. Til birliklarini me‘yorlashtirish nima uchun kerak deb o‘ylaysiz?
4. Umumxalq tili va adabiy tilning qanday farqi bor?
5. Nutq madaniyati uchun me‘yor qanchalik ahamiyatli?



6. O‘zbek adabiy tili me‘yoriy ko‘rinishlari tasnifi haqida so‘zlang.

7. Umumiy va xususiy me‘yorlarga ta‘rif bering.

8. Sport sohasida adabiy tilning o‘rni haqida gapiring.

9. Me‘yorga rioya qilmaslikning nutq madaniyatiga qanchalik ta‘siri bor?

SOHADA FIKRNI ANIQ IFODALASH YO‘LLARI

Reja:

1. Nutq madaniyati – fikrni chiroyli ifodalay olish.
2. Nutqiy g‘alizlik va uni bartaraf etish.
3. Fikrni aniq ifodalashda so‘zlar ma‘nosiga e‘tibor berish.

Tayanch so‘z va iboralar:

Nutq madaniyati, fikr, so‘z ma‘nosi, nutqiy g‘alizlik, muomala, ma‘no nozikligi, ko‘p ma‘nolilik, noaniq fikr.

Inson o‘z faoliyatida fikrni ifodalash uchun turli usul va janrlardan foydalanadi. Qadimdan shunday naql bor: “Insonning kimligi uning ikki jihati – xatti-harakati va so‘zi (nutqi), odamlar bilan o‘zaro muomalasida ayon bo‘ladi”. Mana shu ikki jihat fikrni to‘liq va mukammal ifodalashga yordam beradi. Fikrni aniq, to‘g‘ri va ta‘sirchan ifodalash nutq madaniyatini egallashga bog‘liq.

Muloqot jarayonida ayrim kishilar fikrini bayon etishda qiynaladi. Tildagi bu nuqsonni V.Vinogradov ham o‘z vaqtida qayd qilgan edi: “...uchinchi keng tarqalgan stilistik kasallik – bu so‘zning voqelikka mos kelmasligidir, so‘zning predmetdan uzilib qolishi – bu buzilish, hatto ba‘zan uning predmet (asosiy) ma‘nosini yo‘q qilishdir. Bu kasallik tasvirlanayotgan hayot bilan tanish

bo'lmalikdan, yozuvchilar o'zlari chizayotgan narsa va hodisalarni yaxshi bilmasligidan kelib chiqadi¹⁸”.

Bu jihatdan A.Qahhorning ijodi va til mahorati haqidagi ayrim mulohazalari diqqatga sazovordir. Ma'ruf Hakimning “Qahramonning o'limi” hikoyasini tahlil qilgan yozuvchi *Botir beliga qator beshta bomba qistirib..., Qo'lida bomba ushlagan holda ko'chaga yugurdi* jumlaridagi *bomba* so'zining noto'g'ri qo'llanganligini, yozuvchining *bomba* va *granatani* farqlamasligini tanqid qiladi. A.Qahhor tahlilda davom etib, hikoyadan yana misollar keltiradi: *Botir* “*Sulton akaning oyoqlarini silaganda qo'lga yelimga o'xshagan bir narsa yopishganligini sezdi: qorong'ida nima ekanligini bilolmay qoldi*”. Shu yerning o'zida “*Jenya... yigitning ko'ziga uzoq tikilib qoldi*”. *Qo'lga tekkan qon ko'rinmagan qorong'ida ko'z ko'rinadimi, deydi yozuvchi. U yana yozadi: “Adabiyotda yolg'onning katta-kichigi yo'q. Hammasi ham baravar zarardir: “Uchrashuv” (M.Hakim)da mana bunday yolg'on gap bor: “Ahmad osmonga qaradi. Haqiqatan ko'kni bulut bosgan. Birona ham yulduz yo'q edi!” Shundan besh satr pastda: “Ahmad osmonga nazar tashladi. Haqiqatan uzoq ufqdan chiqib kelayotgan bulutlarning ko'rinishi xunuk edi”. Uzoq ufqdan chiqib kelayotgan bulutlarni ko'rish uchun havo qisman bo'lsa ham ochiq bo'lishi kerak. Bu yerda yo “ko'kni bulut bosgan”i, birona ham yulduz yo'qligi yolg'on yoki “uzoq ufqdan chiqib kelayotgan bulutlar” tog'risidagi gap behuda¹⁹.*

Bu kabi ma'no nozikliklarini payqamaslik ifodada g'alizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, *Mus-taqil hayotga qadam tashlayotgan yoshlarimiz nikohdan*

18 <https://genderi.org/reja-nutqning-togrilligi-nutqning-aniqligi-nutqning-mantiqiylik.html>

19 <https://azkurs.org/s-a-karimov-sh-m-maxmatmurodov-o-n-karimova-nutq-madaniyati.html?page=9>



o'tishganlaridan keyin qishloq markazidagi yodgorlik poyiga hurmat-ehtirom bilan gulchambarlar qo'yadilar (“Sharq tongi” gazetasi). O‘qiganda ma’nodagi noziklik go‘yo sezilmayotgandek tuyulsa ham, bu o‘rinda *qadam qo‘ymoq* iborasini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki *qadam qo‘ymoq* da harakatni endi boshlash ma’nosi mavjud, *qadam tashlamoq* esa harakatdagi bu chegarani ko‘rsata olmaydi. Mana bu *Meni yangi ishga yo‘rgaklagan hamqishloqlarim, shuningdek, ustoz Ma’rifat Rofiyevalar foydali maslahat va amaliy yordamlarini mendan ayamay, kasbni o‘zlashtirib olgunimcha madadkor bo‘lib turdilar* misolidagi *yo‘rgaklamoq* so‘zi umuman noto‘g‘ri qo‘llanilgan. U *o‘rgatmoq, jalb qilmoq* ma’nolarini ham bera olmaydi, *ishga yo‘rgaklamoq* deb ibora tuzib ham bo‘lmaydi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Nutq madaniyati qanday fan?
2. Fikrning aniqligi deganda nimani tushunasiz?
3. “Insonning kimligi uning ikki jihati – xatti-harakati va so‘zi (nutqi), odamlar bilan o‘zaro muomalasida ayon bo‘ladi”. Mazkur naqlga munosabatingizni bildiring.
4. Fikrni go‘zal ifodalash nimalarga bog‘liq?
5. Nutqiy g‘alizlik neganda nimani tushunasiz?
6. So‘zning voqelikka mos kelmasligi haqida gapiring.
7. Ifoda g‘alizlikdan xoli bo‘lishi uchun nimalarga e’tibor berish kerak?
8. Sport sohasida fikrni aniq ifodalash qanchalik ahamiyatli deb hisoblaysiz?
9. Sportdagi ifoda g‘alizligi haqida fikr yuring.
10. “Sport musobaqasida” mavzusida matn tuzing. Unda fikringizni aniq ifodalashga harakat qiling.

SOHA NOTIQLIGI

Reja:

1. Notiqlik – chiroyli va ta’sirchan so‘zlash san’ati.
2. G‘arb notiqligida ritorika.
3. Sharq ma’naviyatida voizlik san’ati.
4. Sport sharhlovchilarida notiqlik madaniyati

Tayanch so‘z va iboralar:

Notiqlik, so‘zlash madaniyati, nutq, ritorika, sarkardalik san’ati, voizlik, sport notiqligi, sport sharhi

Nutq odobi – insonning umumiy axloqini belgilovchi asosiy mezondir. O‘rta Osiyoda axloqiy tarbiya o‘z an’analariga egadir. Axloq haqidagi ibratli, dastlabki fikrlar qadimgi turkiy yodnomalarda, buyuk allomalarning asarlarida va boshqa yozma yodgorliklarda bizgacha yetib kelgan. Nutq shaxsiy hodisa, nutqni har bir shaxs o‘zi tutadi. Jamiyatda har bir kasb egalarining nutqi farqlanadi. Normativlarni tanlash, baholash ham shaxs tomonidan bajariladi. Yoqimli va jarangdor ovozga ega bo‘lgan notiq tinglovchilarni ovozining shiradorligi bilan ham asir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun notiq o‘z ovozining kuchini, shiradorligini, yoqimlilikini bilishi zarur. Lozim bo‘lganda undan foydalana bilish mahoratiga ega bo‘lishi darkor. O‘z ovozida kamchilik sezgan notiq uni bartaraf etishga harakat qiladi. Buning uchun ovozdan foydalanish va yaxshilash texnikasining bir-ikki mashqi bilan ovozni yaxshilab bo‘lmaydi. Notiqning ovozida jarangdorlik, keng diapazonlilik, havodorlik, ixchamlik, chidamlilik, moslashuvchanlik, qarshi to‘lqinlarga nisbatan barqarorlik kabi xususiyatlar bo‘lishi lozim:

Taniqli notiqalar o‘z nutqlarining namunali bo‘lishini ta’minlashda quyidagi asosli holatlarga alohida e’tibor berganlar:



1. O‘zi to‘xtalmoqchi bo‘lgan masalaga o‘z munosabatini aniq belgilab olish.

2. O‘z dunyoqarashiga ega bo‘lish, so‘z bilan ish birligi, nazariya bilan tajribaning dialektik birligiga erishish, fikrlarni ilmiy asoslash.

3. Mavzuga mas‘uliyat bilan yondashish, uni omma oldida to‘liq ochib berishga, yoritishga diqqat qilish.

4. Har bir nutqqa jiddiy tayyorgarlik ko‘rish, jumladan, ma‘ruzani nimadan boshlashdan tortib, nima bilan tugatishgacha jiddiy o‘ylab olish, masalalarni o‘rtaga tashlash, ketma-ketligini yaxshi belgilab olish, ularning o‘zaro bog‘lanishini ta‘minlash, ma‘lum rejalar yoki reja-konspektlar tuzib olib, o‘zi uchun alohida va keng to‘xtalish zarur bo‘lgan urinishlarini belgilab olish va boshqalar²⁰.

Ritorika grekcha so‘z bo‘lib, notiqlik san‘ati mazmunini beradi. *Notiqlik nazariyasi, notiqlik san‘ati haqidagi fan, notiqlik san‘ati haqidagi ta‘limot* ma‘nolarini esa notiqlik san‘atining keng rivoj topib, nutq madaniyatining alohida sohasi sifatida shakllangandan keyin olgan. U filologiyaning stilistika – uslubshunoslik yo‘nalishida o‘rganiladi.

Uning nazariy asoslari Aristotelning “Ritorika” asarida bayon qilingan. Sitseron, Demosfen, Kvintilian kabilar bu san‘atning yirik vakillari sanaladi.

Notiqlik san‘ati, ya‘ni ritorika eramizdan avvalgi III-II asrlarda Yunonistonda shakllangan bo‘lib, keyinchalik Rimda tarqalgan. Bu davrlarda Yunonistonda demokratik jarayonlar barq urib rivojlangan bir paytda davlat arboblarning obro‘-e‘tibori va yuqori mansablarga ko‘tarilishi ularning notiqlik mahoratiga ham bog‘liq bo‘lib qoldi. Notiqlik san‘ati sarkardalik san‘ati bilan bab-baravar ulug‘landi. Ana shu ikki san‘atni mukammal egallagan

20 <https://hozir.org>. O‘zbek tilining sohada qollanishi.

arboblargina yuqori lavozimlarga saylanadigan bo'ldi. Masalan, mamlakat hayotiga oid muhim masalalar demokratik yo'l bilan hal qilinadigan xalq majlislari va besh yuzlar Kengashida so'zini o'tkaza olgan kishigina xalqni boshqarishga loyiq deb topilgan. Aynan ana shu Kengash dunyoda notiqlik san'atining rivojlanishiga zamin yaratdi. U demokratik jarayonlarda insonning faol ishtirok etish ehtiyojiga aylandi.

Notiqlikda o'ziga xos uslub egasi bo'lgan Demosfen eskirgan so'zlardan qochgan, latif va jozibali so'zlarni qo'llamagan, gohi-gohida xalq hikmatlaridan foydalangan, xolos. Sinonimlarni, talaffuzda uzun va cho'ziq bo'g'inlarni qo'llashni ma'qul ko'rgan. Gapning oxiriga muhim ma'no anglatadigan so'zni qo'ygan va unga urg'u bergan. Nutqi tuzilishi jihatdan mukammal bo'lgan. Ifodada qaytariqlarni, qarama-qarshilikni yoqtirgan, ritorik so'roqni ko'p ishlatgan. Jest va mimikalardan, kishining diqqatini tortadigan, hayajonlantiradigan usullardan unumli foydalangan. Oqibatda bularning hammasi Demosfenni buyuk yunon siyosiy notig'i darajasiga olib kelgan.

Sharq ma'naviyatida notiqlik san'ati *voizlik san'ati* deb nomlangan. Manbalarda qayd etilishicha, qadimda podshohlar turli bayram va marosimlarda mamlakat va xalq hayotiga oid mavzularda va'z aytganlar. Keyinchalik esa bu vazifani hukmdorlar nomidan maxsus tayyorgarlik ko'rgan so'z ustalari amalga oshirishgan. Shu tarzda Sharqda ham notiqlik – voizlik san'atining o'ziga xos maktabi vujudga kelgan.

O'rta Osiyo madaniyati tarixida Bahovuddin Valad (XII), Jalodiddin Rumi (XIII), Husayn Voiz Koshifiy (XV), Muin Voiz Haraviy (XV) singari o'nlab so'z ustalarining nomlari ma'lum. Bu sohaning nazariy va metodik asoslarini tahlil qilishga bag'ishlangan Muham-



mad Rofi Voizning “Avbob ul-jinon”, Voiz Qazviniyning “Zilolu maqol”, Voiz Shirvoniyning “Ahsan ul-ahodis”, Muhammad Bobir binni Muhammad Voizning “Hidoyat ut-taqdim”, Quraysh Sindiyning “Anis ul-voizin”, Mulla Kalon Voiz Samarqandiyning “Ravzat ul-voizin”, Qozi Ushiyning “Miftoh un-najoh”, Husayn Voiz Koshifiyning “Dah majlis”, “Mahzan ul-insho” asarlari va boshqa ko‘plab asarlar yozilgan²¹.

Qadimda notiqlik san’atining dabirlik, xatiblik, muzakirlik, nadimlik, qissago‘ylik, masalgo‘ylik, badihago‘ylik, qiroatxonlik, muammogo‘ylik, go‘yandalik, maddohlik, qasidaxonlik singari ko‘plab turlarining mavjud bo‘lganligi bu san’atning xalqimiz ma’naviyati va madaniyati tarixida naqadar ildiz otganligidan dalolat beradi.

Nutq madaniyati amaliy jihatdan nutqning xilma-xil muammolarini tadqiq qiluvchi fan hisoblanadi. U chiroyli nutq tuzishning qonuniyatlari, sirlari, til, til normalari, nutq, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo‘lgan kamchilik va xatolar, nutqiy asarlarning ko‘rinishlari, nutqning talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi. Nutq madaniyati asoslari ham fan sifatida o‘z tekshirish obyekti va vazifalariga ega. Uning tekshirish predmeti til qurilishi, adabiy til normativlari va nutqning kommunikativ fazilatlaridir. Nutq madaniyati asoslari fani adabiy til normalarini, uning tarixiyligini, taraqqiy etib borishi, undagi ba’zi elementlarning eskirishi, yangilarining paydo bo‘lishini kuzatib, qayd etib boradi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Nutq odobi jumlasiga ta’rif bering.
2. Notiqlar ovozida qanday xususiyatlar bo‘lishi kerak?

21 Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. -Ф., 2021

3. Nutq namunali bo‘lishi uchun nimalarga e’tibor berish kerak deb o‘ylaysiz?
4. Ritorika so‘zi qaysi tildan olingan?
5. Notiqlik san’ati filologiyaning qaysi yo‘nalishida o‘rganiladi?
6. Sharq ma’naviyatida notiqlik san’ati qaysi atama bilan yuritiladi?
7. Qadimda notiqlik san’atining qanday turlari bo‘lgan?
8. “Mahzan ul-insho” asarining muallifi kim?
9. Sport sharhlovchilaridan kimlarni bilasiz?
10. Sport notiqligida sharhlovchilarning qanday roli bor?

VOIZLIK SAN’ATI HAQIDA

«Voizlik san’ati – jamoat oldida nutq so‘zlash, notiqlik san’ati; ilmiy-siyosiy ma’ruza, bahs, munozara, targ‘ibot va tashviqotning asosiy vositasi sifatida keng ijtimoiy mavqega ega bo‘lgan san’at Yunonistonda voizlik – ritorika deyilgan. Qadimda Sharq mamlakatlarida hukmdor shaxsan o‘zi jamoat oldiga chiqib, o‘z siyosatida xalqaro ahvol va boshqalar haqida nutq so‘zlagan. El oldiga chiqish, ayniqsa, juma namozi, hayit, navro‘z kunlari va boshqalarda, mamlakatlararo urush boshlangandagi yig‘inlarda odat tusiga kirgan. IX asrga kelib, bu muhim ishni xushovoz, ta’sirchan gapiradigan, ishontira oladigan maxsus kishilar – voizlarga topshirganlar. Shunday qilib, voizlik san’ati shakllangan. Rivoji jarayonida dabirlik (davlat ahamiyatidagi yozishmalarni insho etish va o‘qib berish), xatiblik (diniy, siyosiy mayldagi notiqlik), muzakirlik (diniy-axloqiy masalalarni sharhlab berish) kabi tarmoqlari vujudga kelgan. Voizlik san’atining nutq matnlari



tinglovchilarning bilimi, ijtimoiy mavqeyi va boshqa xususiyatlarga ko‘ra turli maqom (qism)larga bo‘lingan:

- Sultoniyot (yuqori tabaqa uchun);
- Xutubu jihodiya (jangovor nutqlar);
- G‘aribona maqom (oddiy xalq uchun) va boshqalar.

Voizlik san‘ati ijtimoiy va badiiy jihatdan muhimligi tufayli asrlar davomida rivojlana bordi. O‘rta asrlarda voizlik san‘atining nazariyasi va talqin uslublarini, yorituvchi ilmiy, uslubiy va xrestomatik asarlar yaratildi. Voizlik san‘atini o‘rgatuvchi maxsus soha – kalom ilmi, balog‘a ilmi yuzaga keldi. Voizlik san‘ati o‘tmishda katta ijtimoiy qudrat kasb etgan, hozirgi notiqlik san‘ati rivojida muhim rol o‘ynagan²².

SOHA NUTQIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Reja:

1. Ortologiya – nutq haqidagi ta‘limot.
2. Sport sohasida nutqqa qo‘yiladigan talablar:
 - nutqning to‘g‘riligi;
 - nutqning aniqligi;
 - nutqning mantiqiyligi;
 - nutqning tozaligi;
 - nutqning ta‘sirchanligi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Nutq, nutqiy madaniyat, ortologiya, namunaviy nutq, to‘g‘rilik, aniqlik, mantiqiylik, tozalik, ta‘sirchanlik,

Nutq so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko‘rinishi bo‘lib, u faqatgina tilga bog‘liq hodisa sanalmasdan, ham ruhiy, ham estetik hodisadir. Shuning uchun unga namunaviy nutq sifatida

22 <https://hozir.org>. O‘zbek tilining sohada qollanishi.

baho berilganda tinglovchi va kitobxonga ko'zda tutilgan maqsadning, aytilmoqchi bo'lgan muddaoning to'liq borib yetishi, ularga ma'lum ta'sir o'tkazishi nazarda tutiladi hamda bu vazifalarning amalga oshirilishida nutq oldiga ayrim talablar qo'yiladi. Bu talablar grammatik jihatdan nutqning to'g'ri bo'lishini, so'zlar ko'zlangan ma'noni aniq aks ettirishini, chiroyli, yorqin va ta'sirchan bo'lishini taqozo qiladiki, ular nutqning asosiy xususiyatlari sifatida qaraladi. Nutq haqidagi ta'limot – ortologiya ana shu sifatlarni o'rganish bilan shug'ullanadi.

Agar nutq ma'lum vaziyat va shart-sharoitlarda amalga oshirilishi nazarga olinsa, bunda joy, vaqt, mavzu va muloqot jarayonining maqsadi kabi omillar katta ahamiyatga ega bo'ladi. Aytilganlarni qisqacha umumlashtiradigan bo'lsak, nutqning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni belgilash lozim bo'ladi: to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ta'sirchanlik, obrazlilik, tushunarlilik va maqsadga muvofiqlik. Quyida ular haqida qisqacha ma'lumotlar beriladi.

Nutqning to'g'riligi uning bosh kommunikativ xususiyati bo'lib, dastlab uning adabiy til me'yorlariga muvofiq kelishi hisoblanadi. Nutqning to'g'ri tuzilgan bo'lishi tomonlarning – so'zlovchi va tinglovchining, yozuvchi va o'quvchining bir-birlarini tez va oson tushunishlarini ta'minlaydi.

Nutqning to'g'ri bo'lishi asosan ikki me'yorga – urg'u va grammatik me'yorga amal qilishni taqozo qiladi. So'zlardagi ayrim bo'g'inlarning zarb bilan talaffuz qilinishi, ya'ni ularga urg'uning tushishi hamma tillarda ham bir xil xususiyatga ega emas. Masalan, rus tilida urg'u so'zlardagi har xil bo'g'inlarga tushishi mumkin bo'lgani holda, o'zbek tilida u, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. So'zga qo'shimchalar qo'shila borishi bilan



urg‘uning o‘rni ham o‘zgarib boraveradi. Ba‘zi hollarda so‘zlardagi urg‘uning ko‘chishi bilan ma‘noning ham o‘zgarib ketishi mumkinligini esdan chiqarmasligimiz kerak. O‘zbek tilida shunday hodisa kuzatiladi: *o*лма* (harakat) – *olma** (mevaning bir turi). Tilimizda bunday so‘zlar anchagina: *qa*tlama – qatlama**, *ho*zir – hozi**, *yigitcha** – *yigi*tcha*, *o‘quvchi*miz – o‘quvchimi*z*, *ya*ngi – yangi** kabi. So‘zlardagi bu xususiyatlarni farqlamasdan, urg‘uni noto‘g‘ri qo‘llash so‘zlardagi ma‘noning buzilishiga olib keladi.

Shu holat gaplar doirasida ham kuzatiladi. Gap tarkibidagi so‘zlarni alohida urg‘u bilan qo‘llash ham gap mazmuni va ottenkasining o‘zgarishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Nutqning aniqligi nutqning asosiy kommunikativ sifatlaridan biridir. Bunda dastlab til va tafakkur munosabati turadi. Chunki tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi mutanosiblik va uning nutqda aks etishi ana shu aniqlikning xuddi o‘zidir.

Boshqacha aytganda, tabiat va jamiyatdagi turli voqea-hodisalar, predmetlar, olamning geografik tuzilishi, kishilarning his-tuyg‘ulari, harakat va holatlari har bir tilda o‘z atamasiga – nomiga ega. Ana shu atamalar yordamida bu hodisalar inson tomonidan anglanadi, tushuniladi, idrok qilinadi va fikr almashinadi. Shuning uchun ham nutq oldiga u aniq bo‘lishi kerak deb talab qo‘yilganda, til birligi hamda u ifodalayotgan tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi muvofiqlik tushuniladi.

Namunaviy nutqning yaratilishiga ko‘proq xizmat qiluvchi til birligi sinonimlardir. Chunki ular mazmunan bir-birlariga yaqin bo‘lsa ham, ma‘no qirralariga ko‘ra farqlanadi. Masalan, *aniq*, *ochiq*, *yaqqol*, *ravshan*, *yorqin*, *oydin*, *ayon* sinonimlarini olib ko‘raylik. Garchi ular

umumiy ma'noda bir sinonimik qatorni tashkil qilsa ham, birining o'rnida ikkinchisini qo'llash hamma vaqt mumkin bo'lavermaydi. *Aniq eshitdim* deyish to'g'ri bo'lgani holda *oydin eshitdim* deyish mumkin emas, *hamma narsa ayon, hamma narsa ravshan, hamma narsa aniq, hamma narsa oydin* deyish mumkin bo'lgani holda *hamma narsa yorqin* deb bo'lmaydi. Chunki asosan *aniq* eshitishga, *ochiq* va *oydin* tushunishga, *yaqqol* va *yorqin* ko'rish va eshitishga, *ravshan* ko'rish va tushunishga xos.

Aniqlikni vazifaviy uslublar doirasida tushunish ham o'ziga xos. Masalan, u so'zlashuv uslubida vaziyatga bog'liq bo'ladi. Rasmiy uslubda esa u tildagi tayyor, shtamp holiday so'z va iboralardan foydalanishni taqozo qiladi. Ilmiy uslubda atama va uning ifodalanish aniqligi asosiy o'rinda turadi. Ommabop va badiiy uslublarda esa so'z va iboralar faqatgina badiiy-estetik vazifani bajarishdan tashqari yozuvchining maslagi, g'oyaviy maqsadiga mos bo'lishi va shunga xizmat qilishi lozim bo'ladi.

Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatleri – to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'liq. Chunki grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifoda etish uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan leksik birlik ham mantiqning buzilishiga olib keladi. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o'quvchiga ifodalanayotgan fikrning to'liq borib yetmasligiga, ba'zan umuman anglashilmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Nutqni shakllantirishdagi e'tiborsizlik oqibatida ba'zan mantiqsizlik ham yuz beradi.

So'zlarni bir-biriga mazmunan bog'lash, ular o'rtasidagi grammatik aloqani to'g'ri shakllantirish sintaktik me'yorga amal qilishning asosiy sharti bo'lib hisoblanadi. Masalan, Tarbiyachi: *Bolajonlar, endi o'rgangan so'zlaringizni bir chizib beringlar-chi? deb vazifa top-*

shiradi. Bolalar qalam va daftarlarini olib, chiza boshlaydilar. Oddiy mantiqqa ko'ra so'z chizilmaydi, balki yoziladi, rasm esa chiziladi. Mazkur jumlada ham rasm chizish haqidagi fikr aytilmoqchi. Aslida, bu fikr ifodasi uchun *O'rgangan so'zlarinigiz ifodalangan narsalarning rasmini chizib bering* tarzidagi jumla qurilishi kerak edi²³.

Ba'zan esa so'zlar tushirib qoldiriladi: *Oyposh xola gorchechnik qo'yib bo'lib, ketmoqchi edi, Davron uni qo'yarda-qo'ymay choyga o'tqazdi* (M.Jaloliddinova).

Ko'r-ko'rona qilingan tarjimalar ham kulgili holatni yuzaga keltiradi: ***Erkak paypoqlar narxi 30 foizga arzonlashdi*** ("Mushtum" jurnali). Paypoqning erkak-urg'ochisi bo'lmasligini hamma biladi. Bunday qo'llanishni esa faqat nutqdagi e'tiborsizlik natijasi deb tushunish kerak.

Xulosa qilganimizda, mantiqiy nutq deganda yaxlit bir tizim asosida shakllangan, fikrlar rivoji izchil bo'lgan, har bir so'z, ibora aniq, maqsadga muvofiq ravishda yuzaga keladigan nutqni tushunamiz.

Nutqning tozaligi deganda unda til elementlarining ishlatilishida adabiy til me'yorlariga amal qilish-qilmaslik tushuniladi. Namunaviy nutq hozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos holda shakllangan bo'lishi, turli g'ayriadabiy va g'ayriaxloqiy til elementlaridan xoli bo'lishi kerak.

Nutqning toza bo'lishiga xalaqit berayotgan lingvistik elementlar asosan dialektizmlar va varvarizmlardir. To'g'ri, ular tilimizda ishlatilishi kerak, busiz bo'lmaydi. Chunki badiiy adabiyot tilida dialektizm va varvarizmlar ma'lum badiiy-estetik vazifani bajarishi, muallifning ma'lum g'oyasini, niyatini amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin. Aytaylik, muallif milliy ruhni bermoqchi, asar qahramonining qayerlik ekanligiga ishora qilmoqchi

23 Махмудов Н. Ўқитувчи нутки маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.123-б.

yoki boshqa bir maqsadni ko‘zlagan bo‘lsin. Ana shunday paytlarda tilning bu unsurlariga murojaat qilish hatto zarur. Masalan: ***Yoshulli, saning qizing bunda gatirilmagan. Ova, yoshulli. San, manglayi qara badkirdor, na sababdan mundoq yomon so‘zlarni elga tarqatding*** (Mirmuh-sin). Ushbu misolda dialektizmlar hududiy ruhni (xorazm ruhini) berishga xizmat qilayotgani kabi quyidagi misolda varvarizmlar – chet so‘zlar badiiy matnda xarakter yaratishda yozuvchiga ko‘maklashgan:

Dubora yana bordi bir ishga shul,

So‘kib – net, – dedi, kelma durrak, poshul!

(Muqimiy).

O‘zbek tilidagi ko‘p shevalilik sharoitida leksik me‘yorlarni belgilashning o‘ziga xos qiyinchiliklari ham bor. Har bir sheva vakilida ma‘lum tushunchani ifodalaydigan so‘zning tabiiy ravishda o‘z shevasidagi variantidan foydalanishga moyillik seziladi. Bu holatni hatto ayrim sheva vakillari bo‘lgan shoir va yozuvchilar ijodida ham kuzatish mumkin. Buning ham ijobiy, ham salbiy tomonlari bor, albatta. Ijobiy tomoni – adibning, ya’ni sheva vakili bo‘lgan ijodkorlarning sharofati bilan ma‘lum so‘z adabiy tilga kirib qolib, me‘yorlashishi mumkin. Agar bu birlik ko‘pchilik tomonidan qabul qilinmasa, uni endi til leksik me‘yorining buzilishi deb qarashga to‘g‘ri keladi.

Boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish ulardan nutqda zaruriyatga ko‘ra foydalanish salbiy hodisa emas. Ammo bunday so‘zlar orasida varvarizm deb ataluvchi shunday bir qatlam mavjudki, ularni nutqda qo‘llash-qo‘llamaslik masalasiga adabiy til me‘yorlari nuqtayi nazaridan munosabat bildirish lozim. Varvarizm sifatida qaraladigan *ну (ni), так (tak), вообще (voobshe), только (tolko), только так (tolko tak), конечно (konечно), уже (uje), почти (pochti), так что (tak chto), как раз (kak raz),*



тем более (tem boleye), документ (dokument), vo, akun, soni kabi soʻz va birikmalarning oʻzbek tilida aynan ekvivalentlari mavjud. Ammo, koʻpincha, ularni ijtimoiy muhit taʼsiridan boʻlsa kerak, farqiga bormasdan ishlataveramiz, nutqimizni nazorat qilmaymiz. Shu tarzda leksik meʼyor ham, nutq ham buziladi.

Tildagi kanselyarizm deb ataladigan rasmiy-idoraviy uslubga xos boʻlgan soʻzlar ham nutqning tozaligiga hamisha xavf solib turadi: *Oʻrtoq rafiqam! Ijzat bera-siz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunalik bajarib kelayotganimizga bir yil toʻlgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga! Eʼtibor beraylik: suhbatda oʻnlab yoki yuzlab kishi emas, ikki ki-shi – er va xotin ishtirok etyapti. Avval xotin bu gaplarni hazil deb oʻylaydi, “qiyqirib chapak chaladi”. Ammo no-tiq jiddiy qiyofada soʻzida davom etadi. **Birinchidan, ik-kinchidan** deb oilada bir yil davomida yuz bergan yutuq-kamchiliklarni rasmiy ravishda sanab oʻtadi va nutqni quyidagicha yakunlaydi: – *Lekin bu kamchiliklarga qara-may, turmushimizni aʼlo darajada olib borayotganligimiz-ga hech qanday shubha boʻlishi mumkin emas deb hiso-blash mumkin. Shu bilan qisqacha soʻzimni tamom qilib, oilamiz bundan keyin ham sharaflar bilan qoplanajagiga toʻla ishonch bildirishga ijzat bering!* (A.Qahhor “Nutq” hikoyasi).*

Nima uchun notiq bir vaziyatda oʻzini ikki xil tutyapti? Sababi shundaki, u garchi oʻzini “keng eshituvchilar ommasiga moʻljallangan notiq” deb hisoblasa ham, qaysi holatda, vaziyatda qanday gapirish kerakligini bilmaydi.

Parazit soʻzlar deb ataluvchi leksik birliklar ham til madaniyati uchun yotdir. Ular asosan soʻzlashuv nutqida koʻp ishlatilib, notiqning oʻz nutqini kuzatib bormasligi, eʼtiborsizligi natijasida paydo boʻladi va bora-bora odat-

ga aylanib qoladi. Masalan, ayrim kishilar o‘zlari sez-
magan holda *demak, xo‘sh* kabi so‘zlarni qaytaraverishga
o‘rganib qolganlar.

Vulgar so‘zlarning uchrashi ham nutqimiz toza-
ligiga salbiy ta‘sir qiladi. Og‘zaki nutqda ba‘zan uchrab
qoladigan so‘kinish, haqorat so‘zlarni ishlatish axloq
me‘yorlariga, sharqona muomala madaniyatimizga mut-
laqo to‘g‘ri kelmaydigan holatdir.

Xullas, nutqimizning tozaligi uchun kurash undan
foydalanuvchi har bir kishining vazifasi bo‘lishi lozim.
Ana shundagina umummilliy til madaniyati haqida gapi-
rishimiz mumkin bo‘ladi.

Nutqning ta‘sirchanligi – tinglovchi ongiga va ruhi-
yatiga ta‘sir etishdir. Shuning uchun ham ta‘sirchanlik
nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi hamda to‘g‘rilik
va aniqlik ham, mantiqiylik va tozalik ham suhbatdosh-
ga, tinglovchiga yoki o‘quvchiga ta‘sir etishga qaratilgan
bo‘ladi.

Nutqning ta‘sirchanligi deganda, asosan, og‘zaki
nutq jarayoni nazarda tutiladi va shuning uchun uning
tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyatni
e‘tiborga olish ham muhim sanaladi. Ya‘ni notiq audito-
riyani hisobga olishi – ularning bilim darajasidan yoshi-
gacha, hatto nutq ijro etilayotgan paytdagi kayfiyatigacha
kuzatib turilishi, nutqning tinglovchilar tomonidan qabul
qilinishi nazorat qilib borilishi lozim bo‘ladi. Malakali
bilimga ega bo‘lgan kishilar oldida jo‘n, sodda tilda gapi-
rish maqsadga muvofiq bo‘lmagani kabi, oddiy, yetarli da-
rajada ma‘lumotga ega bo‘lmagan auditoriya oldida ham
ilmiy va rasmiy tilda gapirishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.
Xullas, notiqdan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi.

Tinglovchining e‘tiborini qozongan nutq ta‘sirchan
nutq hisoblanishi mumkin. Buning uchun, yuqorida



ta'kidlanganidek, suhbat mavzusini yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq rejasi ham bo'lishi zarur. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o'zaro bog'lab, tinglovchilarga avval nutq rejasi tushuntirib, shundan keyingina gapni boshlash lozim.

Nutqning tinglovchilarga qanday ta'sir qilishida va ularda qanday taassurot qoldirishida notiqning nutqiy jarayon davomida o'zini qanday tuta bilishi, mimikalari, hatto kiyinishi kabi omillarning ham ahamiyati bor. Samimiylik, xushmuomalalik, odoblilik, auditoriyaga hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning tinglovchilar tomonidan e'tibor bilan tinglanishiga sabab bo'ladi²⁴.

Yaxshi nutq so'zlovchi va yozuvchidan savodxonlikni, katta mehnatni talab qiladigan murakkab jarayondir. Umuman, nutq aniq va ravon bo'lishi, grammatik jihatdan to'g'ri shakllangan bo'lishi va orfoepik talablar darajasida talaffuz etilishi, boshdan oxirigacha izchil bayon qilinishi lozim bo'ladi. Ana shunday nutq tinglovchi va o'quvchi qalbiga borib yetadi, madaniy nutq talablariga javob beradi. Buning uchun esa yozuvchidan va omma oldiga chiqib nutq so'zlaydigan kishidan tinimsiz izlanish va o'z ustida ishlash, muttasil nutqiy mashq talab qilinadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Nutq atamasiga ta'rif bering.
2. Ortologiya termini haqida fikr bildiring.
3. Nutqning to'g'riligi asosan qanday me'yorlarga amal qiladi?
4. Nutq aniqligiga ta'rif bering.
5. Sport sohasida nutqning mantiqiyiligi ahamiyatli deb o'ylaysizmi?

24
html?page=14

<http://hozir.org/nutqning-mantiqiyiligi-nutqning-tozaligi-reja.html>

6. Nutqning tozaligi nimalarga bog‘liq deb hisoblaysiz?
7. Kurash musobaqalari haqida matn tuzing. Unda nutqning ta’sirchanligiga e’tibor bering.
8. Qanday nutq tinglovchi va o‘quvchi qalbiga borib yetadi?
9. Sport sohasida nutqqa talab qo‘yish o‘rinlimi?

SOHADA MATN TUZISH MASALASI

Reja:

1. Matn – sintaktik birliklar yig‘indisi.
2. Dialogik matn va uning tuzilishi.
3. Monologik matn va sport.
4. Sportda tushuncha mantiqiyligi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Matn, sintaktik birlik, dialog, savol-javob, buyruq-javob, xabar-e’tiroz, monolog, tavsifiy matn, kommunikativlik, tushuncha mantiqiyligi

Ma’lum voqelik haqida tasavvur (ma’lumot) beradigan bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy butunlik matn hisoblanadi. Matn ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi: dialogik va monologik.

Dialogik matn ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr-axborot almashinuidan iborat. Dialogik matn so‘zlashuv uslubi va badiiy uslubga xosdir. Ikki kishi o‘rtasidagi dialog nutq savol-javob, buyruq-javob, xabar-e’tiroz kabi mazmunlarda bo‘lib, fikr xususidagi tasdiq yoki inkorni, ziddiyat yoki munozarani ifodalaydi. Ko‘p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-



javobdan iborat bo‘lmay, o‘rtaga tashlangan savol, taklif, da’vat biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi.

Monologik (tavsifiy) matn so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxs tasviri, tavsifi yoxud xabar, ma’lumot bayonidir. Maqola, insho ham tavsifiy matnning bir turi sanaladi. Monologik matn yaratishda uyushiq bo‘laklar, ajratilgan gap bo‘laklari, atov gaplar, qo‘shma gap ko‘rinishlaridan ham keng foydalaniladi. Monologik matn ilmiy, publitsistik, rasmiy-idoraviy, shuningdek, badiiy uslubga xosdir.

“Matnning asosiy funksiyasi kommunikativlikdir. Kommunikativ-lik matnda matn birliklarining ierarxik sistemasi (kichik birliklarning yirik birliklarga ergashi-shi, tobeligi) asosida yuzaga chiqadi. Bu xususiyatni lingvist olimlar matnning asosiy xarakteristikasi sifatida ko‘rsatadilar. Bunday qarash matnga nutq birligi sifatida umuman baho berishdir”²⁵.

Inson alohida olingan so‘zlar bilan emas, gaplar va matn yordamida fikr almashadi. Shuning uchun ham kommunikativ vazifa bajarish darajasi jihatdan matn birinchi o‘rinda turadi. Matn til birliklari yig‘indisining harakatdagi ko‘rinishidir.

Matn tarkibiga kiruvchi birliklar sifatida gap va abzas muhim ahamiyatga ega. Soha faoliyati davomida har qanday mutaxassis matn va uning birliklariga ko‘p murojaat qiladi. Aytish kerakki, matndagi abzaslar o‘rtasida ham mantiqiy bog‘lanish bo‘lishi zarur. Odatda, ma’lum bir fikr tugab, ikkinchisi boshlangan joyda ular abzas bilan ajratiladi. Bu yerda fikr tugalligi deganda yaxlit fikr nazarda tutiladi va abzas umumiy matn mazmunining bir qismi sanaladi. Tilda abzaslarni bir-biriga bog‘laydigan

25 Mamajonov A., Abdupattoyev M. O‘zbek matnining semantik-sintaktik va stilistik aspekti. – Farg‘ona, 2021.

ko‘rinadiki, demak, xulosa qilganimizda, shuni alohida ta‘kidlash kerakki, yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, boshqacha qilib aytganda, xullas singari so‘z va birikmalar mavjud. Xuddi ana shu til birliklari bir abzas ichida ham fikrlarni bir-biriga bog‘lashga, izchillikka xizmat qilishi mumkin. Misol: Farzandlarimiz ona xalqimizning mehri va ishonchi, millionlab muxlislarning qo‘llab-quvvatlashini har daqiqa yurak-yurakdan his etib turdilar va bu ularga cheksiz kuch va madad berdi.

Fursatdan foydalanib, Tokiodagi musobaqalarda Vatanimiz sharafini munosib himoya qilgan, barchamizga hayajonli va unutilmas damlarni taqdim etgan O‘zbekiston Olimpiya terma jamoasining barcha a‘zolari va ustoz-murabbiylarga o‘z nomimdan, xalqimiz nomidan samimiy minnatdorchiлик bildiraman.

Albatta, erishilgan natijalarda Olimpiada o‘yinlariga oldindan puxta tayyorgarlik ko‘rilgani, buning uchun davlatimiz tomonidan barcha sharoitlar yaratib berilgani muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ana shunday e‘tibor tufayli O‘zbekiston vakillari 17 ta sport turi bo‘yicha 71 ta Olimpiya yo‘llanmasini qo‘lga kiritganlari ham milliy sportimiz tarixidagi eng yuqori ko‘rsatkichdir²⁶.

Tushuncha mantiqiyliги alohida olingan matnda fikriy ketma-ketlik, mantiqiy izchillik bo‘lishini taqozo qiladi. Ammo bu talabni nutqiy jarayonning hamma ko‘rinishlarida ham o‘rtaga qo‘yib bo‘lmaydi. Masalan, vazifaviy uslublarda, xususan, ilmiy va badiiy nutq uslublarida bu talabga qanday amal qilinishini olib ko‘raylik. Ilmiy uslubda yozilgan asarlar yaxlit bir qurilishga ega. Unda kirish, asosiy qism va xulosa mavjud bo‘lib, ular

26 Шавкат Мирзиёевнинг Токио Олимпия ўйинларида иштирок этган Ўзбекистон спорт делегацияси вакиллари билан учрашувдаги нутқи. - Халқ сўзи (xs.uz)



yagona bir halqaga birlashadi. Matnda ifodalanayotgan fikrlar qat'iy izchillikda bayon qilinadi. Badiiy nutq quyulishi esa biroz boshqacha. Aytaylik, fikrlar bir maromda bayon etib kelinadi-yu, birdaniga uzilish yuz beradi va endi boshqa voqealar hikoya qilib ketiladi. Bu narsa go'yo mantiqiy izchillikka putur yetkazganday ko'rinsa-da, aslida unday emas. Badiiy asarlarda, xususan, qissa, roman kabi janrlardagi keng ko'lamlilik tasvir kompozitsiyasini ana shunday tuzishni taqozo qiladi. Mantiqqa putur yetmaganligi bunday asarlarning oxirida ma'lum bo'ladi.

Xalqimiz orasida "Berdisini aytguncha, shoshmaytur", "Tomdan tarasha tushganday gapirma" degan naqlar bor. Zero, tadbirkor va aqlli odamlar suhbatdoshlariga biror jiddiyoq fikrni aytishdan oldin tinglovchini suhbat mavzusiga tayyorlab olishga harakat qiladilar. Shunday qilinganda eshituvchi har qanday hayajonli yoki qayg'uli xabarni ham ancha yengil qabul qiladi va unga to'g'ri munosabatda bo'ladi. Muhimi shundaki, bu odat deyarli hamma xalqlar uchun ham xos bo'lib, suhbatning muvaffaqiyatli chiqishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Fikrimizni olis Peru mamlakatida bo'lib o'tgan quyidagi voqea tasdiqlashi mumkin. "Meksika chempionatidan avval Peru terma komandasiga braziliyalik Didi bosh trener etib tayinlanadi. Begona yurtdan kelgan trener bilan til topishib ketish, tabiiy, yengil ko'chmaydi. Va yuzaki qaraganda oddiy hodisadek tuyulgan bir voqea Didining obro'sini osmon qilib yuboradi.

Peru komandasi o'yinchilari Urugvay terma komandasi bilan uchrashuvga shay bo'lib turgan kuni ertalab, ishongan o'yinchilardan biri Fuentesning otasi vafot etgani haqidagi xabarni Didiga yetkazishadi. Didi shoshmaydi,

u yo‘l-yo‘lakay salomlashgandek Fuentes dam olayotgan xonaga kiradi, atayin u yoq-bu yoqdan gurung boshlaydi. Ancha suhbat quradi. Hayotning achchiq-chuchuklaridan so‘zlaydi, har qanday odamning, ayniqsa, er kishining boshiga og‘ir kun tushganda vazminroq bo‘lmog‘i zarurligini ayta turib, gap orasida Fuentesning otasi qazo qilganini qistirib o‘tadi. Fuentes tok urgandek sapchib tushadi, bugungi mashg‘ulotlardan va kechqurungi o‘yindan ozod etilganini eshitib labini qimtib qoladi. U uyiga – dafn marosimiga jo‘naydi. Oqshom uchrashuv oldidan esa... u stadionda hozir bo‘ladi va maydonga tushishga tayyorligini aytadi.

Shu voqeadan so‘ng Peru futbolchilari Didini Ustoz deb atay boshlaydilar...²⁷.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Matn atamasiga ta’rif bering.
2. Matnning qanday ko‘rinishlari bor?
3. Dialogik matnga ta’rif bering.
4. “Boks” mavzusida monologik matn yarating.
5. Tavsifiy matn nima?
6. Matnning asosiy funksiyasi nimadan iborat?
7. Abzas nima?
8. Matndagi tushuncha mantiqiyliги deganda nimani tushunasiz?
9. “Futbol”, “Yengil atletika”, “Suv sporti” mavzularidan birida matn yarating.

27 Мўмин С. Сухбатга тайёрмисиз? “Маънавият” газетаси. 2019 йил 2-сон.



SOHA HUJJATLARINI TUZISH TEXNOLOGIYASI

Reja:

1. Sport sohasida hujjat yuritish asoslari.
2. Hujjatlarning zaruriy qismlari.
3. Hujjatchilik tili.

Tayanch soʻz va iboralar:

Hujjat, rekvizit, hujjat qismlari, hujjat muallifi, hujjat tili, mazmuniy toʻliqlik

Hujjatlarni tayyorlash borasida bugungi kunda shakllangan umumiy qoidalarga koʻra, boshqaruv hujjatlari zaruriy qismlar (rekvizitlar)ning belgilangan majmuyiga va ularning barqarorlashgan joylashish tartibiga ega. Tashkiliy-farmoyish hujjatlari zaruriy qismlarining toʻliq roʻyxati quyidagicha:

1. Oʻzbekiston Respublikasining gerbi.
2. Tashkilot yoki korxonaning ramziy belgisi (emblemasi).
3. Mukofot tasviri.
4. Vazirlik yoki yuqori idoraning nomi.
5. Muassasa, tashkilot yoki korxonaning nomi.
6. Tarkibiy tarmoqning nomi.
7. Aloqa muassasasining shartli raqami (indeksi), tashkilot yoki korxonaning manzili, telefon raqami, faks raqami, elektron pochta manzili, rasmiy veb-sayti, bankdagi hisob raqami.
8. Matn sarlavhasi.
9. Sana.
10. Shartli raqam.

11. Keladigan hujjatlarning sanasi va shartli raqamiga havola.

12. Tuzilgan yoki nashr qilingan joyi.

13. Hujjatni oluvchi (adresat).

14. Tasdiqlash ustxati.

15. Munosabat belgisi (rezolyutsiya).

16. Hujjat turining nomi.

17. Nazorat haqida qayd.

18. Matn.

19. Ilova mavjudligi haqidagi qayd.

20. Imzo yoki elektron raqamli imzo.

21. Kelishuv ustxati.

22. Rozilik belgisi (viza).

23. Muhr.

24. Nusxaning tasdiqlanishi haqidagi qayd.

25. Ijrochining familiyasi va telefon raqami.

26. Hujjatning bajarilganligi va uni hujjatlar yig'ma jildiga yo'naltirilganligi haqidagi qayd.

27. Kompyuterga ko'chirilganligi haqidagi qayd.

28. Hujjat kelib tushganligi haqida qayd.

Albatta, hujjatning har bir turi mazkur zaruriy qismlarning barchasini o'z ichiga olmaydi. Hujjatning muayyan turiga muvofiq ravishda bu qismlarning ayrim bir turkumi huquqiy talablarni ta'minlash darajasida qo'llanadi. Shu narsa ham muhimki, ayni qismlarning hujjatda joylashishida qat'iy tartib mavjud, ular joylashishidagi qat'iy ketma-ketlik hujjatning huquqiy kuchini ta'minlash, hujjatni zudlik bilan ishlash, bajarish, undan osonlik bilan foydalanish uchun muhimdir.

Mazkur 28 ta zaruriy qismning o'ntasi nisbatan ko'p qo'llanadi, shuning uchun ular asosiy zaruriy qismlar deb ham yuritiladi: hujjat muallifi (muassasa nomi yoki shaxsiy hujjatda imzo qo'yuvchi shaxs), hujjat turining nomi,



sarlavha, hujjatni oluvchi (adresat), kelishuv va rozilik belgilari, matn, tasdiqlash, imzo, muhr, ilova mavjudligi haqidagi qayd²⁸.

Hujjatchilik tilining o‘ziga xos uslubi, mazmuniy to‘liqlikdan iborat zaruriy sifatlar, o‘ziga xos so‘z qo‘llash, morfologik va sintaktik xususiyatlar orqali ta‘min etiladi. Hujjatlar o‘ziga xos uslubga ega. Hujjatda ot va fe‘lga tegishli so‘zlar ko‘proq qo‘llaniladi. Sintaktik xususiyatidan kelib chiqib asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi. Hujjatlar tilida turg‘unlashgan, qoliplashgan so‘z birikmalaridan ko‘proq foydalaniladi. Masalan, buyruqda quyidagicha qoliplashgan tuzilmalar qo‘llanishi mumkin:

1) “...so‘m maosh bilan ... lavozimiga tayinlansin”;
2) “... o‘z xohishiga ko‘ra ... lavozimidan bo‘shatilsin”;
3) “... boshqa ishga o‘tganligi munosabati bilan ... lavozimidan bo‘shatilsin”; 4) “... ga ... dagi faol va samarali ishtiroki uchun tashakkur e‘lon qilinsin”; 5) “... ga o‘z bo‘limida intizomni bo‘shashtirib yuborganligi uchun hayfsan e‘lon qilinsin” va hok.

Yoki xizmat yozishmalarida mana bunday qoliplashgan so‘zlardan foydalanish mumkin: 1) “Sizga ...ni ma‘lum qilamiz”; “Sizga ...ni bildiramiz”; “Sizga ...ni eslatamiz”; 2) “... yordam tariqasida ...”, “... munosabat bilan ...”, “... qaroriga muvofiq...” 3) “... ga zavod ma‘muriyati qarshi emas”; “... ga zavod kafolat beradi” va hok.

O‘zbek tilidagi hujjatchilik takomillasha borgani sari, bunday qoliplashgan birikmalar ham ko‘payib, mukammalashib boradi. Buning natijasida hujjatlarni tuzish va rasmiylashtirish ham bir qadar yengillashadi. Ana shu qoliplashgan birikmalarning ishtirokiga ko‘ra, hujjatchilar

28 Aminov M. va b. Davlat tilida ish yuritish. – T: O‘zbekiston, 2020. 25-b.

“hujjatlar yozilmaydi, balki tuziladi²⁹” deyiladi adabiyotlarda.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Hujjatlarni tayyorlash borasidagi umumiy qoidalar nimalardan iborat?
2. Tashkiliy-farmoyish hujjatlari haqida ma'lumot bering.
3. Hujjat tilining o'ziga xos uslubi haqida gapiring.
4. Buyruq hujjatining tuzilishi haqida gapiring.
5. Hujjatlarning qanday turlari bor?
6. Xizmat yozishmalarida qanday qoliplashgan tuzilmalar qo'llanishi mumkin?
7. Hujjat tuzish texnologiyasidan foydalanib, sport musobaqasida qatnashish uchun ariza yozing.
8. Shartnoma va uning zaruriy qismlari haqida fikr yuriting.



29 Aminov M va b. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo'llanma. Toshkent., O'zbekiston, 2020. 20-bet.



SOHADA KASBIY MULOQOT MADANIYATI VA TILDAN FOYDALANISH

Reja:

1. Sohalarda kasbiy muloqot madaniyati
2. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy nutqi.
3. Sportdagi muloqot tili (jurnalistlar nutqi, sport sharhlovchilari nutqlari va sportchilar nutqi).

Tayanch soz va iboralar:

Muloqot odobi, kasbiy muloqot, o'qituvchi kasbi muloqoti, nutq va harakatni muvofiqlashtirish, lakonizm, nutq ravshanligi, katta sport zali akustikasi, suzish havzasi akustikasi, stadion akustikasi, og'zaki bo'lmagan vositalar, sport diskursi, Bebeto imo-ishora belgisi

Har bir kasbning muloqot odobi bo'lib, u ijtimoiy hayotda reallashadi. Tili ham, uslubi ham o'ziga xos jihatlarga ega bo'ladi.

Bugungi kunda turli sohalardagi kasbiy muloqot madaniyati, kasbiy notiqlik va unda tildan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj o'sib bormoqda. O'z kasbiy faoliyati orqali kelajakda obro'-e'tiborga ega bo'lishni istagan kasb egalari, albatta, muvaffaqiyatlari zamirida nutq madaniyatiga ega bo'lish turishini yaxshi anglaydilar. Demak, barcha sohalarda yaxshi mutaxassis bo'lish uchun, albatta, notiqlikdan xabardor bo'lish zarur jarayonga aylandi.

Filologiya fanlari nomzodi Q.Rasulov³⁰ning ta'kidlashicha, o'qituvchi kasbining o'ziga xos talablari mavjud. Bu talablarning eng muhimi o'z bilimini o'quvchilarga yetkazishdan iborat bo'lib, bu kasb egasining majburiyatini hosil qiladi. Shuningdek, o'qituvchi

30 Rasulov Q. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши. Филол. фанлари номзоди олиш учун дисс. Автореф. Тошкент, 2008.

o'z nutqiga va harakatlariga o'quvchilarning diqqatini qaratish huquqiga ham ega. Bu belgilar o'qituvchining butun dars davomida kommunikativ jihatdan o'rnining yuqori turishligini ko'rsatadi. Bu esa o'qituvchi o'quvchilar bilan qanday muloqotga kirishini ta'minlaydi.

O'qituvchi kasbi jihatidan jamiyatning yosh vakillariga o'qitish va tarbiya berish vazifasini bajaruvchi ziyolilar vakili hisoblanar ekan, u o'z ijtimoiy rolini bajarishda turli vaziyatlarda o'z nutqini har xil shakllantiradi:

1. Darsni tushuntirish jarayonida ilmiy nutq uslubining o'quv-ta'lim janridan foydalanadi.

2. Maktab yig'inlarida so'zga chiqqanda qisman rasmiy va publitsistik uslubdan foydalanadi.

3. O'quvchilar bilan dars mavzusidan, darsdan tashqari bo'ladigan kommunikativ vaziyatlarda kundalik-maishiy uslubdan foydalanadi.

Lekin shunga e'tibor berish kerakki, har uchala kommunikativ vaziyatda ham o'qituvchi o'z ijtimoiy roli ramkasidan chiqmaydi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy nutqi o'quv mashg'uloti doirasida nutq va harakatni muvofiqlashtirish, so'zlarning ta'sirchanligi ahamiyati bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'qituvchi-murabbiy nutqning lakonizm (fikrni bayon etishda qisqalik va aniqlik) va ravshanligi, katta sport zali, suzish havzasi, stadion akustikasida samarali ishlash uchun og'zaki bo'lmagan vositalardan faol foydalanishi mumkin. Pedagogik aloqa jismoniy tarbiya o'qituvchilari sinf o'quvchilari jamoasi bilan ham, maktab o'quvchilarining sport guruhi bilan ham ishlash qobiliyatini nazarda tutadi. Pedagog jismoniy madaniyat, sport tadbirlari, sog'liqni saqlash kunlari, sport tadbirlari va oqshomlar davomida, sport seksiyalaridagi mashg'ulotlar, musobaqalarda o'quvchilarning katta gu-



ruhi bilan muloqotga kirishadi. Ushbu ko'nikmalar maktabdagi ish davomida shakllanadi va o'quvchilar, ularning ota-onalari, o'qituvchilar va maktab rahbariyati, jamoat va boshqa tashkilotlar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Kasbiy muloqot madaniyati jismoniy tarbiya o'qituvchisining kompetensiyasi kognitiv vazifalarni hal qilish, nostandart yechimlarni izlash, ijodiy yangilik qobiliyatini ta'minlaydigan ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash bilan bog'liq. Bu muammolarni shakllantirish va ularni yechishda evristik usullardan foydalanish, nazariy bilimlarni tahlil qilish, talqin qilish va ijodiy foydalanish, uni ilmiy-tadqiqot faoliyati amaliyotida qo'llash qobiliyatlarida, adabiy manbalar bilan ishlash, amaliy eksperimental tadqiqotlar o'tkazish, faktlarni kuzatish, statistik ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashda namoyon bo'ladi.

So'nggi paytlarda sport sohasida ham yangi terminlarning kirib kelishi va o'zlashtirilishi, shuningdek, bir qator leksik birliklarning stilistik holatidagi o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bularning barchasi sportdagi muloqot tilining zamonaviy dinamik qatlami ekanligi va ko'p qirrali izlanishlarni talab qilishidan dalolat beradi.

Sport diskursini o'rganish jarayonida tildagi tizimda futbol konseptini ifodalovchi til vositalarining tarkibiy qismini aniqlash mumkin. Bu turdagi diskurslar ko'p darajali bo'lib, unda sport sharhlovchilari nutqlari va sportchilar nutqi mavjud. Zamonaviy sport diskursining konseptual asosi – bu alohida sport turining zamonaviy madaniyat uchun eng muhim sport tushunchalaridir. Bunga misol, bugungi kunda sport diskursi tarkibidagi eng muhim qismi bo'lgan futbol konseptidir.

Sport zamonaviy madaniyatning muhim qismini bel-

gilab berishi, ushbu hodisaning hozirgi lingvistik voqeligi, sportning lingvistik madaniyati to'g'risida aniq gapirish mumkin.

So'nggi o'n yilliklarda sportdagi yuqori yutuqlar tufayli, umuman, sportga, sportdagi muloqot tiliga bo'lgan munosabat o'zgardi. Zamonaviy sport XXI asrning mashhur hodisasidir va uning lingvistik tarkibi chuqur o'rganishni talab qiladi.

Sportdagi muloqot tili jurnalistlar nutqi, sport sharhlovchilari nutqlari va sportchilar nutqi kabilarga bo'linadi. Bugungi kunda sportdagi muloqot tili odatdagi muhitdan tashqariga chiqmoqda. Zamonaviy til nazariyasi doirasida olib borilgan tadqiqotlar tushunchalarni umuminsoniy, milliy, madaniy va boshqa toifalarga ajratish imkoniyatini ochib beradi. Ushbu turdagi tasniflash ko'pincha noaniqdir.

Muloqotning boshqa turlarida bo'lgani kabi, futbol sohasida ham insonning mavjud voqelik haqidagi bilimlari va g'oyalari har xil turdagi lug'atlarda keltirilgan til ma'nolari bilan cheklanib qolmaydi. Shu bilan birga, muayyan konseptning og'zaki ifodalangan tarkibini tahlil qilish orqali, verbal va noverbal makon o'rtasidagi muloqotni aniqlash mumkin. Konsept bo'yicha "og'zaki ravishda belgilangan shaklda ona tilida so'zlashuvchilarning xotirasida saqlanadigan kollektiv tushunchaning diskret birligi" degan ma'noni anglaymiz. Futbolning lingvistik va madaniy konsepti tarkibi leksikofrazeologik vositalar tizimi, futbol konseptini ifodalash uchun asosiy badiiy va metaforik modellar, shuningdek, tilda ijtimoiy ahamiyatga ega (jins) ma'lumotlarini o'z ichiga olish darajasi bilan belgilanadi. Futbol konseptini ifodalash darajasi tilda og'zaki shaklda saqlanadi. Obraz – metaforik jihatdan noverbal, ammo tavsiflanadi va talqin qilinadi. Jinsga oid



jihati esa ham verbal, ham noverbal ifoda etilgan komponentlarni o‘z ichiga oladi.

Sportdagi muloqot tili, bir tomondan, umumbashariy milliy voqelikni aks ettiradi, ikkinchi tomondan, maxsus til dunyosini ochadi, ma’lum bir sport jamiyatiga tegishli bo‘lgan tashuvchilarning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Sportdagi muloqot tilining muhim tarkibiy qismi noverbal muloqot hisoblanadi. Ko‘rib chiqilayotgan sohadagi verbal va noverbal tarkibiy qismlar o‘rtasidagi munosabatlar bugungi kunda murakkab va kam o‘rganilgan sohadir. Har qanday sport sohasini ushbu muhim elementsiz tasavvur qilish qiyin. Futbolga oid muloqotlar doirasidagi verbal va noverbal muloqot bir-biri bilan chambarchas bog‘liq.

Bebeto imo-ishora belgisi bu yerda “qo‘llarni yon tomonga siljitish, chaqaloqni allalash harakatiga taqlid qilish” ma’nosida ishlatilganiga yorqin misol. Ushbu leksik birlik – bu futbolchilar to‘pni raqib darvozasiga kiritgan vaziyatlarda ishlatadigan maxsus ishoradir. Bunday imo-ishora futboldagi muloqotning verbal va noverbal tarkibiy qismlari o‘rtasidagi eng yaqin bog‘liqlikning namunasi. Shunday qilib, o‘yinchi maydonda imo-ishora darajasida ishlab chiqqan sport ma’lumotlari to‘g‘ri shifrlangan, mos keladigan til ifodasini oladi, sportchilar nutqida faol ishlaydi.

Ma’lum bir tilga xos bo‘lgan universal va maxsus tarkibiy qismlarni tanlashda madaniyat tili sport muloqotlarida maqsadlarga samarali mos keladigan leksik birliklarni afzal ko‘radi. Shunday qilib, sport sharhlovchisining nutqida, olingan tarkibiy qism madaniy ahamiyatga ega bo‘lib, umuman olganda sportdagi o‘zaro muloqotlar maqsadlariga javob beradi. Ehtimol, sport jurnalisti va sport sharhlovchisining nutqida, jargon kabi maxsus ele-

mentlar, stilistik jihatdan neytral va tabiiydir, ular sportdagi hissiyotlarini juda aniq ifoda etishga imkon beradi³¹.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Madaniyat tushunchasiga ta'rif bering.
2. Kasbiy muloqot odobi haqida gapiring.
3. O'qituvchi kasbining o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.
4. Darsni tushuntirish jarayonida o'qituvchi nimalarga amal qilishi kerak?
5. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi kasbiy nutqining o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.
6. Sportdagi muloqot tili qanday ahamiyatga ega?
7. Sport jurnalistlari nutqi xususiyatlaridan kelib chiqib, intervyu tayyorlang.
8. Sport sharhlovchilari nutqida nimalarga e'tibor berishi kerak?
9. Sport sharhlovchilaridan kimlarni bilasiz, ular o'z nutqida nimalarga e'tibor berishadi?
10. Sportda kasbiy muloqot madaniyatidan foydalanib, "Men tanlagan soha" mavzusida matn yarating.



31 Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar / Innovatsii v pedagogike i psixologii / Innovations in pedagogy and psychology №SI-2, 2020. 8-qism. Maxsus son.



**Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi
339-son qaroriga
ILOVA**

O‘ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI³²

HARFLAR IMLOSI

Unlilar imlosi

1. **A a** harfi:

1) *aka, alanga, aloqa, og‘a; sentabr, noyabr* kabi so‘zlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *bahor, zamon; savol, gavda; vasvasa* kabi so‘zlarning oldingi bo‘g‘inida, *vaqt, vahm* kabi so‘zlarda **a** aytiladi va yoziladi

2. **O o** harfi:

1) *ona, omon, quyosh, fido, baho, xola, lotin; mukofot, mahorat* kabi so‘zlarda orqa qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

2) *boks, poyezd, tonna, talon; agronom, mikrofon; direktor, termos* kabi o‘zlashma so‘zlardagi unlini ifodalash uchun yoziladi.

3. **I i** harfi:

1) *ish, iz, qil; xirmon, ilhom, ikki, ixtisos, shoyi, tulki; volida, piramida; bilan, biroq, sira, qishloq, chiroq* kabi so‘zlarda old qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *o‘tin, o‘rik, bo‘lim* kabi oldingi bo‘g‘inida **o‘** unlisi keladigan so‘zlarning keyingi bo‘g‘inida **i** aytiladi va yoziladi.

4. **U u** harfi:

1) *uy, kun; buzoq, buloq, Buxoro; butun, uchuq, usul,*

32 O‘zbek tilining imlo lug‘ati. T., Akademnashr, 2013.

yulduz; mafkura; uyqu; aluminiy, yubiley kabi soʻzlarda orqa qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *qovun, sovun, tovush, yovuz, qirgʻovul, chirmovuq* kabi soʻzlarning oldingi boʻgʻinida **o** unlisi kelsa, keyingi yopiq boʻgʻin boshidagi **v** undoshidan keyin **u** aytiladi va yoziladi.

5. **Oʻ oʻ** harfi *oʻt, oʻq, oʻzbek, oʻsimlik, doʻppi, boʻtakoʻz, semizoʻt, gulkoʻrpa, nooʻrin* kabi soʻzlarda orqa qator oʻrta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

6. **E e** harfi *ekin, esla, evara, ekran, eksport; kel, zehn; kecha, behi; telefon, teatr; poyezd, atelye; eʻlon, neʻmat, sheʻr* kabi soʻzlarda old qator oʻrta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

7. Yonma-yon keladigan unlilar imlosi:

1) unlilar orasiga baʼzan **y** undoshi qoʻshib aytilsa ham, yozilmaydi.

a) **ia**: *material, milliard, radiator; tabiat, shariat* kabi;

b) **io**: *biologiya, million, stadion, radio* kabi;

v) **ai**: *mozaika, ukrain, said, maishat* kabi;

g) **oi**: *alkoloid, ellipsoid, doim, shoir, oila* kabi;

d) **ea**: *teatr, okean, laureat* kabi;

2) **ae, oe** unlilari soʻz ichida kelganda ikkinchi unli **y** aytilsa ham, asliga muvofiq **e** yoziladi: *aerostat, poema* kabi.

Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar odatda aynan aytiladi va yoziladi: *manfaat, kauchuk, aorta, saodat, burjua, shuaro, inshoot, sanoat, vakuum, muammo, matbuot, tabiiy, rioya* va boshqalar.

Undoshlar imlosi

8. **B b** harfi:

1) *bobo, bahor, bir, majbur, zarb* kabi soʻzlarda jarangli portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;



2) *kitob, yuzlab, kelib* kabi soʻzlar oxirida **p** aytilsa ham, **b** yoziladi.

3) *qibla, tobla* kabi soʻzlarda baʼzan **v** aytilsa ham, **b** yoziladi

9. **P p** harfi *paxta, pichoq, opa, tepa, tup, yop* kabi soʻzlarda jarangsiz portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.

10. **V v** harfi

1) *ov, suy, kuyov; ovoz, savol; volida, vatan* kabi soʻzlarda ovozdor sirgʻaluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *avtobus, avtomat* kabi oʻzlashma soʻzlarda **v** baʼzan **f** aytilsa ham, **v** yoziladi.

11. **F f** harfi:

1) *fan, feʼl, futbol, fizika; asfalt, juft; insof, isrof* kabi soʻzlarda jarangsiz sirgʻaluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *fasl, fayz, Fotima, fursat* kabi soʻzlarda **f** tovushi baʼzan **p** aytilsa ham, asliga muvofiq **f** yoziladi.

12. **M m** harfi *moy, muborak, tomon, ilhom* kabi soʻzlarda ovozdor lab-lab burun undoshini ifodalash uchun yoziladi.

13. **D d** harfi:

1) *dala, odat, bunyod, modda, jiddiy* kabi soʻzlarda til oldi jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *obod, savod, marvarid; zavod, pud, sud; badqovoq, badxoʻr* kabi soʻzlarda **t** aytilsa ham, **d** yoziladi.

14. **T t** harfi *tong, tun; butun, oʻtin, oʻt, kut* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

15. **Z z** harfi:

1) *zar, zamon, toza, oʻzbek, yoz, gʻoz* kabi soʻzlarda til oldi jarangli sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *iztirob, izquvar, bo'zchi, tuzsiz* kabi soʻzlarda jarangsiz undoshdan oldin **s** aytilsa ham, **z** yoziladi.

16. **S s** harfi *sogʻ, somon, oson, asos, olmos* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

17. **Sh sh** harflar birikmasi *shahar, shisha, shodlik; ishq, pishiq; bosh, tosh* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Sh harflari ikki tovushni ifodalasa, ular orasiga (ʻ) tutuq belgisi qoʻyiladi: *Isʻhoq, asʻhob* kabi.

18. **J j** harfi:

1) *jon, jahon, jiyda, tijorat; rivoj, vaj* kabi soʻzlarda til oldi jarangli qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *jurnal, proyektor; gijda, ajdar; garaj, tiraj* kabi oʻzlashma soʻzlarda til oldi jarangli sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

19. **Ch ch** harflar birikmasi *choy, chevar, chiroyli, chaman; achchiq, uchun, bichiqchi; kuch, kech* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

20. **R r** harfi *rahmat, rohat, orom, doira, bor, diyor* kabi soʻzlarda til oldi ovozdor titroq, undoshni ifodalash uchun yoziladi.

21. **L l** harfi *lola, loyiq, laʼl, iloj, mahal* kabi soʻzlarda sirgʻaluvchi ovozdor yon undoshni ifodalash uchun yoziladi.

22. **N n** harfi:

1) *non, nomus; ona, tana; bilan, tomon* kabi soʻzlarda til oldi ovozdor burun undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *shanba, yonbosh, jonbozlik; yonma-yon, koʻrinmaslik* kabi soʻzlarda **n** tovushi baʼzan **m** aytilsa ham, **n** yoziladi.

23. **G g** harfi: *gul, goʻzal; ega, gugurt; teg, eg* kabi

soʻzlarda til oldi jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

24. **K k** harfi *koʻl, koʻylak; uka, moki; tok, bilak* kabi soʻzlarda til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

25. **Y y** harfi *yoʻl, yigit, yetti, yaxshi, yoz, yulduz; tuya, dunyo, tayyor; soy, tuy* kabi soʻzlarda til oʻrta sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

26. **Ng ng** harflar birikmasi *yangi, koʻngil, dengiz, singil, keling, bordingiz; tong, ming, teng* kabi soʻzlarda til orqa ovozdor burun tovushini ifodalash uchun yoziladi.

27. **Q q** harfi *qizil, qimiz, qirq, haqiqiy, aql* kabi soʻzlarda chuqur til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi

28. **Gʻ gʻ** harfi *gʻoz, bagʻir, togʻ* kabi soʻzlarda chuqur til orqa jarangli sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

29. **X x** harfi *xabar, xoʻroz, xohish, xushnud, baxt, axborot, mix* kabi soʻzlarda chuqur til orqa jarangsiz sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

30. **H h** harfi *hosil, hamma, bahor; isloh, nikoh* kabi soʻzlarda jarangsiz sirgʻaluvchi boʻgʻiz undoshini ifodalash uchun yoziladi.

31. Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosi:

1) *baland, Samarqand, poyezd; doʻst, past, artist, gʻisht* kabi soʻzlarda **d, t** tovushi baʼzan aytilmasa ham, yoziladi;

2) *metall, kilogramm, kilovatt, kongress* kabi oʻzlashma soʻzlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday soʻzga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qoʻshilsa, soʻz oxiridagi bir harf yozilmaydi: *metall + lar = metallar, kilogramm + mi = kilogrammi* kabi.

32. ’ – tutuq belgisi:

1) *a’lo, ba’zan, ma’yus, ta’zim; ra’y, ta’b; e’lon, e’tibor, e’tiqod, me’mor, ne’mat, she’r, fe’l; Nu’mon, shu’la* kabi o‘zlashma so‘zlarda unli dan keyin shu unli tovushning cho‘ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo‘yiladi; *mo’jiza, mo’tadil, mo’tabar* kabi so‘zlarda **o’** unlisi cho‘ziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qo‘yilmaydi;

2) *in’om, san’at, qat’iy, mas’ul* kabi o‘zlashma so‘zlarda unli dan oldin shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qo‘yiladi.

Asos va qo‘shimchalar imlosi

33. Qo‘shimcha qo‘shilishi bilan so‘z oxiridagi unli o‘zgaradi:

1) **a** unlisi bilan tugagan fe’llarga **-v, -q, -qi** qo‘shimchasi qo‘shilganda **a** unlisi **o** aytiladi va shunday yoziladi: *sayla – saylov, sina – sinov, aya – ayovsiz; so’ra – so’roq, bo’ya – bo’yoq; o’yna – o’ynoqi, sayra – sayroqi* kabi;

2) **i** unlisi bilan tugagan ko‘pchilik fe’llarga **-v, -q** qo‘shimchasi qo‘shilganda bu unli **u** aytiladi va shunday yoziladi: *o’qi – o’quvchi, qazi – qazuvchi, sovi – sovuq* kabi. Lekin **i** unlisi bilan tugagan ayrim fe’llarga **-q** qo‘shimchasi qo‘shilganda bu unli **i** aytiladi va shunday yoziladi: *og’ri – og’riq, qavi – qaviq* kabi.

Eslatma:

1) undosh bilan tugagan barcha fe’llarga **-uv** qo‘shiladi: *ol – oluv, yoz – yozuv* kabi;

2) undosh bilan tugab, tarkibida **u** unlisi bor fe’lga **-uq** qo‘shiladi: *uz – uzuv, yut – yutuq* kabi. Lekin *uyushiq, burushiq, uchuriq* (shuningdek, *bulduriq*) kabi so‘zlarning uchinchi bo‘g‘inida **i** aytiladi va shunday yoziladi.

34. **k, q** undoshi bilan tugagan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga, shuningdek, *bek, yo‘q* kabi ayrim bir bo‘g‘inli so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda **k** undoshi **g** undoshiga, **q** undoshi **g‘** undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: *tilak – tilaging, yurak – yuragim, kubok – kubo-gi, bek – begi; tayoq – tayog‘i, qoshiq – qoshig‘i, yaxshiroq – yaxshirog‘i, yo‘q – yo‘g‘i* kabi. Lekin ko‘p bo‘g‘inli o‘zlashma so‘zlarga, bir bo‘g‘inli ko‘pchilik so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda **k, q** tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: *ishtirok – ishtiroki, ocherk – ocherki, erk – erki, huquq – huquqim, ravnaq – ravnaqi, yuq – yuqi* kabi.

35. Quyidagi qo‘shimchalar qo‘shilishi bilan so‘zning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi:

1) *o‘rin, qorin, burun, o‘g‘il, bo‘yin, ko‘ngil* kabi ba‘zi so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda, *qayir, ayir* kabi fe‘llarga nisbat shaklini yasovchi **-il** qo‘shimchasi qo‘shilganda, *ikki, olti, yetti* so‘zlariga **-ov, -ala** qo‘shimchalari qo‘shilganda ikkinchi bo‘g‘indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: *o‘rin – o‘rnim, qorin – qorni, burun – burning, o‘g‘il – o‘g‘ling, ko‘ngil – ko‘ngli, yarim – yarmi; qayir – qayril, ulug‘ – ulg‘ay, sariq – sarg‘ay, ikki – ikkov, ikki – ikkala, yetti – yettov* kabi;

2) **u, bu, shu, o‘sha** olmoshlariga **-da, -dan, -day, -dagi, -ga, -gacha, -cha** qo‘shimchalari qo‘shilganda **n** tovushi qo‘shib aytiladi va shunday yoziladi: *unda, bunday, shunda, o‘shancha* kabi; bu olmoshlarga egalik qo‘shimchalari quyidagicha qo‘shiladi; *buningiz, o‘shanisi* kabi;

3) **o, o‘, u, e** unililari bilan tugaydigan so‘zlarga egalik qo‘shimchalari quyidagicha qo‘shiladi:

a) ko‘pchilik so‘zlarga egalik qo‘shimchalari **-m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si** (yoki **-lari**) shaklida tovush orttirmay

qo‘shiladi: *bobom, bobong, bobosi, bobomiz, bobongiz, bobosi (yoki bobolari); orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi* kabi;

b) *parvo, obro‘, mavqe, mavzu, avzo* so‘zlariga I, II shaxs egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda bir **y** tovushi qo‘shib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obro‘yim, obro‘ying; obro‘yimiz, obro‘yingiz* kabi; III shaxs egalik qo‘shimchasi *parvo, avzo, obro‘, mavqe* so‘zlariga **-yi** shaklida, *xudo, mavzu* so‘zlariga esa **-si** shaklida qo‘shiladi: *avzoyi, mavzusi* kabi (*dohiy* kabi **y** undoshi bilan tugagan so‘zga ham III shaxsda **-si** qo‘shiladi: *dohiysi* kabi);

4) *men, sen* olmoshlariga **-ni, -ning, -niki** qo‘shimchalari qo‘shilganda qo‘shimchadagi **n** tovushi aytilmaydi va yozilmaydi: *meni, mening, meniki; seni, sening, seniki* kabi.

36. Quyidagi qo‘shimchalarning birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham, bir xil yoziladi:

1) **-bon, -boz** qo‘shimchalari ba‘zan **-von, -voz** aytilsa ham, hamma vaqt **-bon, -boz** yoziladi *darvozabon, masxaraboz* kabi. Lekin **-vachcha** qo‘shimchasi hamma vaqt shunday aytiladi va yoziladi: *amakivachcha, xolavachcha* kabi;

2) o‘rinkelishigi va chiqish kelishigi qo‘shimchasining, o‘tgan zamon yasovchisi va III shaxs ko‘rsatkichi **-di** qo‘shimchasining boshidagi undosh ba‘zan **t** aytilsa ham, hamma vaqt **d** yoziladi; *ishda, misdan, ketdi, kelmabdi* kabi.

37. Quyidagi qo‘shimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

1) taqlid so‘zlardan fe‘l yasovchi **-illa** (*chirilla, taqilla*) qo‘shimchasi so‘z tarkibida **v** yoki **u** tovushi bo‘lganda **-ulla** aytiladi va shunday yoziladi: *shovulla, lovulla, gurulla* kabi;

2) nisbat shaklini yasovchi **-dir** qo‘shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo‘g‘inli so‘zlarga (*kel* so‘zidan boshqa), shuningdek, **z** undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qo‘shiladi: *quvdir, egdir, kuldirdir, yondir; o‘tkazdir, tomizdir* kabi. Qolgan barcha hollarda bu qo‘shimcha **-tir** aytiladi va shunday yoziladi: *tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir* kabi;

3) jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi **-ga**, chegara bildiruvchi **-gacha**, ravishdosh shaklini yasovchi **-gach**, **-guncha**, **-gani**, **-gudek**, sifatdosh shaklini yasovchi **-gan**, buyruq maylining ikkinchi shaxs ko‘rsatkichi **-gin**, shuningdek **-gina** qo‘shimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

a) **k** undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda bu qo‘shimchalarning bosh tovushi **k** aytiladi va shunday yoziladi: *tokka, yo‘lakkacha, ko‘nikkach, zerikkuncha, to‘kkani, kechikkudek, bukkan, ekin, kichikkina* kabi;

6) **q** undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda bu qo‘shimchalarning bosh tovushi **q** aytiladi va shunday yoziladi: *chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qo‘rqqudek, achchiqqina* kabi;

v) qolgan barcha hollarda, so‘z qanday tovush bilan tugashidan va bu qo‘shimchalarning bosh tovushi **k** yoki **q** aytilishidan qat’i nazar, **g** yoziladi: *bargga, pedagogga, bug‘ga, sog‘ga, og‘gan, sig‘guncha* kabi.

Qo‘shib yozish

38. *Xona, nota, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so‘zlar yordamida yasalgan qo‘shma ot va qo‘shma sifatlar qo‘shib yoziladi: *qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug‘doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab* kabi.

39. **-(a)r** (inkor shakli **-mas**) qo‘shimchasi bilan tugaydigan qo‘shma ot va qo‘shma sifatlar qo‘shib yoziladi: *o‘rinbosar, otboqar, cho‘lquvar, ishyoqmas, qushqo‘nmas* kabi.

40. Takror taqlid so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shish bilan yasalgan ot va fe‘llar qo‘shib yoziladi: *pirpirak (pir-pir+ak), bizbizak (biz-biz+ak), hayhayla (hay-hay+la), gijgijla (gij-gij+la)* kabi.

41. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o‘xshatish yo‘li bilan bildiruvchi qo‘shma ot va qo‘shma sifatlar qo‘shib yoziladi: *karnaygul, qo‘ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg‘iyko‘z* kabi.

42. Narsani uning rangi, mazasi, o‘zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *olaqarg‘a, qizilishton, achchiqtoosh, mingoyoq* kabi.

43. Narsaning biror maqsad, ish uchun mo‘ljallanganligini bildiruvchi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqo‘ra, nosqovoq, ko‘zoynak* kabi.

44. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *tog‘olcha, cho‘lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

45. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *kiryuvdi, kelintushdi, qoryog‘di, Urto‘qmoq, Ochildasturxon* kabi.

46. Qaratuvchili birikmaning bir so‘zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *mingboshi, so‘zboshi, olmaqoqi* kabi.

47. Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki **obod** so‘zi bilan ifodalangan joy nomlari qo‘shib yoziladi: *Yangiyo‘l, To‘rtko‘l, Mirzacho‘l, Sirdaryo, Kosonsoy, Yangiobod,*

Xalqobod kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: *O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, O'rta Chirchiq* kabi.

48. Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika; teleko'rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti* kabi.

49. Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo'shiladigan qo'shimchalar qo'shib yoziladi: *SamDU, ToshDUNing* kabi. Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: *O'zXDP MK (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi)* kabi.

50. Bir tovush ikki va undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday holat harfni takror yozish bilan ko'rsatiladi: *yo'o'q, nimaa, himm, uffff* kabi.

Chiziqcha bilan yozish

51. Juft so'z va takror so'z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *el-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-to'rt, o'n-o'n beshta (10-15 ta), bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldab-suldab, o'ylab-netib, so'ramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikir-chikir, duk-duk, taq-tuq, qop-qop, ming-ming (ming-minglab), bitta-bitta (bitta-bitalab), baland-baland, cho-pa-chopa, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, uy-uyiga, ich-ichidan* kabi.

Eslatma:

1) juft so'zdan qo'shimcha yordamida yasalgan so'zlar ham chiziqcha bilan yoziladi: *baxt-saodatli, xayrxo'shlashmoq* kabi;

2) juft soʻz qismlari orasida **-u (-yu)** bogʻlovchisi kel-
sa, undan oldin chiziqcha qoʻyiladi va juft soʻz qismlari
ajratib yoziladi: *do 'st-u dushman (do 'st-dushman), kecha-
yu kunduz (kecha-kunduz)* kabi;

3) yetakchi va koʻmakchi feʼl bir xil shaklda boʻlsa,
chiziqcha bilan yoziladi: *yozdi-oldi, borasan-qoʻyasan,
uxlabman-qolibman* kabi.

52. Belgini kuchaytiruvchi *qip-qizil, yam-yashil, dum-
dumaloq, kupp-kunduzi, to'ppa-to'g'ri, bab-baravar*
kabi soʻz shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin *oppoq*
soʻzi qoʻshib yoziladi).

53. Soʻzning **-ma, ba-** yordamida birlashgan qismlari
chiziqcha bilan yoziladi: *ko'chama-ko'cha, uyma-uy,
rang-barang, dam-badam* kabi. Lekin mustaqil ishlatil-
maydigan qism qatnashsa, bunday soʻzlar qoʻshib yozila-
di. *ro'baro', darbadar* kabi.

54. Rus tilidan aynan yoki soʻzma-soʻz tarjima qilish
yoʻli bilan olingan soʻzlar asliga muvofiq chiziqcha bilan
yoziladi: *unter-ofitser, kilovatt-soat* kabi.

55. **-chi, -a (-ya), -ku, -u (-yu), -da, -e, -ey (-yey)** yuk-
lamalari chiziqcha bilan yoziladi: *sen-chi, boraylik-chi,
sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u,
yaxshi-yu, yaxshi-da, qo'y-e, yashang-e, o'g'lim-ey, keldi-
yey* kabi. Ammo **-mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -gina (-kina,
-qina)** yuklamalari oʻzidan oldin kelgan soʻzga qoʻshib
yoziladi: *keldimi?, keliboq, o'ziyoq, ko'rganov, ko'rdiyov,
mengina, qo'shiqqina* kabi.

56. Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, **-nchi**
qoʻshimchasi oʻrniga chiziqcha (-) qoʻyiladi: *7-sinf, 5-"A"
sinfi, 3-, 7-, 8-sinf o'quvchilari, 60-yillar, 1991-yilning
1-sentabri* kabi. Tartib sonni koʻrsatuvchi rim raqamlari-
dan keyin chiziqcha yozilmaydi: *XX asr, X sinf* kabi.

Ajratib yozish

57. Qo'shma fe'lning qismlari ajratib yoziladi: *sarf qil, ta'sir et, tamom bo'l, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma* kabi.

58. Ko'makchi fe'l va to'liqsiz fe'l mustaqil fe'ldan ajratib yoziladi: *aytib ber, olib ko'r, so'rab qo'y, ko'ra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish* kabi. Lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush o'zgarishi bo'lsa, bunday qismlar qo'shib yoziladi: *aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilar-kan (bilar ekan)* kabi.

59. Ko'makchilar ajratib yoziladi: *shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun bo'yi* kabi. Lekin *bilan* ko'makchisining **-la** shakli, *uchun* qo'shimchasining **-chun** shakli chiziqcha bilan yoziladi: *sen-la, sen-chun* kabi.

60. **Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o'sha** so'zlari o'zidan keyingi yoki oldingi so'zdan ajratib yoziladi: *hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o'sha yoqqa* kabi. Lekin *birpas, biroz, birato'la, birvarakayiga, birmuncha, buyon* so'zlari qo'shib yoziladi. Shuningdek, **qay** so'zi **yoq, yer** so'zlari bilan ishlatilganda bir y tovushi tushsa, bu so'zlar qo'shib yoziladi: *qayoqqa, qayerda* kabi.

61. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan **to'q, jiqqa, tim, liq, lang, och** kabi so'zlar ajratib yoziladi: *to'q qizil, jiqqa ho'l, tim qora, liq to'la, lang ochiq, och sariq* kabi.

62. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: *o'n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchi* kabi.

63. *Yildan yilga, tomdan tomga* kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalar ajratib yoziladi.

64. Belgining ortiq darajasini bildiruvchi *ko'pdan ko'p, tekindan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi* kabilar ajratib yoziladi.

65. Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so'zlarga **i** shaklida, unli bilan tugagan so'zlarga **yi** shaklida qo'shiladi: *dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol* kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so'zlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so'zlar qo'shib yoziladi: *gulbeor (guli beor), dardisar* kabi.

Bosh harflar imlosi

66. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Dilbar, O'rinova, Muhabbat Majidovna, Azamat Shuhrat o'g'li, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif So'fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat; Yelpig'ichxon, Salomjon Alikov* kabi.

67. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: *Andijon, Yangiyo'l* (shaharlar), *Naymancha, Buloqboshi* (qishloqlar), *Bodomzor, Chig'atoy* (mahallalar), *Zavraq* (dara), *Yarqoq* (yaylov), *Qoratog'*, *Pomir* (tog'lar), *Oqtepa, Uchtepa* (tepalar), *Zarafshon, Sirdaryo* (daryolar), *Yoyilma* (kanal); *Turkiya, Hindiston* (mamlakatlar) kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: *Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum* kabi.

68. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Hulkar, Qavs, Mirrix* (yulduz va sayyoralar nomi), *Tinchlik dengizi* (Oy-dagi relyef nomi) kabi. *Yer, quyosh, oy* turdosh otlari sayyora nomi bo'lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: *Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi*.

69. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, ada-

biyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: "Tong" (mehmonxona), "Saodat" (firma), "Navro'z" (xayriya jamg'armasi), "Kamalak" (matbaa birlashmasi), "G'uncha" (bog'cha), "Botanika" (sanatoriy), "Paxtakor" (stadion), "Qutlug'qon" (roman), "Dilorom" (opera), "Tanovar" (kuy), "Ozodlik" (haykal), "Jasorat" (yodgorlik), "Sino" (sovutgich) kabi.

70. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro'z bayrami* kabi.

71. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: *O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi* kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning o'rinbosari, Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi* kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Sog'liqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti* kabi.

72. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: *"O'zbekiston Qahramoni"* (unvon), *"Oltin Yulduz"* (medal). Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birin-

chi so‘zgina bosh harf bilan boshlanadi: “*Sog‘lom avlod uchun*” (orden), “*O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi*” (faxriy unvon), “*Matbaa a‘lochisi*” (nishon) kabi.

73. Gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan boshlanadi. *Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim* (O. Yoqubov).

Eslatma:

1) ko‘chirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi so‘zi (agar u atoqli ot bo‘lmasa) kichik harf bilan yoziladi: “*Bu men*”, – *qo‘rqibgina javob berdi ko‘laga* (O. Yoqubov);

2) xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda bunday qismlar oldidan chiziq qo‘yiladi va ular kichik harf bilan yoziladi: *Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni:*

- *mazkur ishni ko‘rib chiqish uning huquq doirasiga kirish-kirmasligini;*

- *ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar to‘g‘ri tuzilgan-tuzilmaganligini... hal qiladi;*

3) gapning qismlari qavsli raqam yoki qavsli harf qo‘yib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi:

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining lug‘at boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan: 1) umumturkiy so‘zlar, 2) o‘zbekcha so‘zlar, 3) tojik tilidan kirgan so‘zlar, 4) arab tilidan kirgan so‘zlar, 5) rus tilidan kirgan so‘zlar (“O‘zbek tili” darsligidan)

74. Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo‘lmagan ba‘zi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: *AQSh* (*Amerika Qo‘shma Shtatlari*), *BMT* (*Birlashgan Millatlar Tashkiloti*), *AES* (*atom elektr stansiyasi*) kabi. Qisqartma tarkibida

bo'g'inga teng qism bo'lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: *ToshDTU* (*Toshkent davlat texnika universiteti*) kabi.

Ko'chirish qoidalari

75. Ko'p bo'g'inli so'zning oldingi satrga sig'may qolgan qismi keyingi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi *to'q-son, si-fatli, sifat-li, pax-takor, paxta-kor* kabi. Tutuq belgisi oldingi bo'g'inda qoldiriladi. *va'-da, ma'-rifat, mash'-al, in'-om* kabi.

76. So'zning bosh yoki oxirgi bo'g'ini bir harfdan iborat bo'lsa, ular quyidagicha ko'chiriladi:

1) so'z boshidagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi oldingi satrda qoldirilmaydi: *a-badiy* emas, *aba-diy, e-shikdan* emas, *eshik-dan* kabi;

2) so'z oxiridagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi keyingi satrga ko'chirilmaydi: *mudofa-a* emas, *mudofaa, matba-a* emas, *mat-baa* kabi

77. O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:

1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi *dia-gramma, mono-grafiya* kabi;

2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: *silin-drik* kabi.

78. Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (**sh, ch, ng**) birgalikda ko'chiriladi: *pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, de-ngiz* kabi.

79. Bosh harflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harfdan iborat qisqartmalar, shuningdek ko'p xonali raqamlar satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi. *AQSh, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX* kabi.

80. Harfdan iborat shartli belgi o‘zi tegishli raqamdan ajratib ko‘chirilmaydi: 5-“A” sinfi, V “B” guruhi, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm kabi.

81. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko‘chirilmaydi: “Navro‘z-92” (festival), “O‘qituvchi-91” (ko‘rik-tanlov), “Andijon-9”, “Termiz-16” (g‘o‘za navlari), “Boing-767” (samolyot), “Foton-774” (televizor) kabi.

82. A.J.Jabborov, A.D.Abduvaliyev kabilarda ismining va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko‘chirilmaydi. Shuningdek, **v.b.** (va boshqalar), **sh.k.** (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so‘zdan ajratib ko‘chirilmaydi.



GLOSSARIY

Afisha tili – ona tilini bilmasdan gaplashish: muhandis hamkasbi bilan ona tilini bilmasdan gaplashishi mumkin, chunki agar ular chizmalardan foydalansalar, bir-birlarini tushunadilar; rassom tasvirlarda o‘ylaydi, maqsadini chiziq va ranglar yordamida ifodalaydi

Aksentologik me‘yor – urg‘uni to‘g‘ri qo‘llash me‘yori. O‘zbek tilidagi urg‘u, asosan, so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi, ammo ayrim o‘zlashgan so‘zlarda urg‘u so‘zning oldingi bo‘g‘inlarida bo‘lishi ham mumkin

Dalolatnoma – muassasa yoki ayrim shaxslar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib o‘tgan (sodir bo‘lgan) voqea, hodisa, ish harakatni yoki mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjat.

Dialogik matn – ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr-axborot almashinuvi.

Farmoyish – muassasa ma‘muriyati, shuningdek, bo‘limlarning rahbarlari tomonidan amaliy masalalar yuzasidan qabul qilinadigan hujjat.

Fonetika – tilning butun tovush sistemasi, uning qonuniyatlari, urg‘u, ohang, nutqning tovush qurilishiga daxldor boshqa ko‘plab masalalarni o‘rganuvchi bo‘lim.

Fonetik me‘yor – milliy tovush talaffuzi, so‘z ohangi va gap intonatsiyasi.

Ichki hujjatlar – muassasaning o‘zida tuziladigan va shu muassasa ichida foydalaniladigan hujjatlar

Ichki nutq – odamning o‘z ichida gapiradigan pasiv nutqi bo‘lib, og‘zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi.

Leksik me‘yor – nutq jarayonida umumxalq tilida mavjud bo‘lgan so‘zlarni to‘g‘ri tanlash va o‘rinli ishlatish.

Mantiqiy nutq – yaxlit bir tizim asosida shakllangan, fikrlar rivoji izchil bo‘lgan, har bir so‘z, ibora aniq, maqsadga muvofiq ravishda yuzaga keladigan nutq

Matn – ma‘lum voqelik haqida ma‘lumot beradigan bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy butunlik.

Me‘yor – jamiyat a‘zolari tomonidan qabul qilingan, ma‘qullangan va ularga tushunarli bo‘lgan til birliklarining nutq jarayonida qo‘llanish holati va imkoniyati.

Monologik matn – so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxs tasviri, tavsifi yoxud xabar, ma‘lumot bayoni.

Morfologik me‘yor – so‘zlarning morfologik shakli va ularning nutqda qo‘llanishini tartibga soluvchi qoidalar.

Murakkab hujjatlar – ikki yoki undan ortiq masalani o‘z ichiga oluvchi hujjatlar (shartnomalar, ma‘lumotnoma, rejalashtirilgan hisobot hujjatlari va b).

Musiq a tili – ona tilini bilmasdan gaplashish, musiqachi o‘z his-tuyg‘ularini musiq a orqali yetkazadi va tinglovchilar uni tushunadilar.

Namunaviy hujjatlar – boshqaruvning muayyan bir vaziyatlari bilan bog‘liq, bir-biriga o‘xshash va ko‘p takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matnlarni o‘z ichiga oladigan hujjatlar (tavsiyanoma, ariza, e‘lon, taklifnoma va b).

Nutq madaniyati – amaliy jihatdan nutqning xilma-xil muammolarini tadqiq qiluvchi, ifodali nutq tuzishning qonuniyatlari, sirlari, til, til normalari, nutq, nutqning sifatleri, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo‘lgan kamchilik va xatolar, nutqning talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yurituvchi fan.

Nutq texnikasi – nutqni tinglovchi yoki o‘quvchiga yetkazishda qo‘llaniladigan vositalar: jonli, tovushli nutq

va uning barcha unsurlarini to‘g‘ri voqelantirish ko‘nikma va malakalari

Nutqning aniqligi – so‘zning o‘zi ifodalayotgan voqelikka mos va muvofiq kelishidir.

Nutqning ta‘sirchanligi – tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi e‘tiborga olingan ruhiy vaziyat.

Nutqning tozaligi – til elementlarining ishlatilishida adabiy til me‘yorlariga amal qilish-qilmaslik.

Nutqning to‘g‘riligi – uning adabiy til me‘yorlariga muvofiq kelishi.

Orfoepiya – tovushlarning talaffuz xususiyatlarini o‘rganuvchi, adabiy talaffuz me‘yorlarini belgilab beruvchi bo‘lim.

Orfoepik me‘yor – jonli tildagi turlicha talaffuz ko‘rinishlaridan adabiy til an‘analariga mos keladiganini tanlash.

Og‘zaki nutq – tovushli so‘zlashuv nutqi bo‘lib, ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqador, fikrni ixcham ifodalash maqsadida to‘liqsiz gaplar keng qo‘llaniladi.

Og‘zaki nutq texnikasi – tovush, bo‘g‘in, so‘zlarni, uning shakllarini talaffuz etishni yaxshilash borasida nutq organlarini faollashtiruvchi mashqlar.

Punktatsion me‘yor – yozma nutqqa xos, tinish belgilari me‘yori.

Qolipli hujjatlar – oldindan tayyorlangan bosma ish qog‘ozlariga yoziladigan hujjatlar bo‘lib, ularga nisbatan ko‘pincha «yozmoq» emas, balki «to‘ldirmoq» so‘zi ishlatiladi.

Ritorika – notiqlik san‘ati, filologiyaning uslubshunoslik yo‘nalishida o‘rganiladi.

Sintaktik me‘yor – so‘zlarning birikish yo‘llari, so‘z birikmasi va gap tuzilishi bilan bog‘liq qoidalar.

Sodda hujjatlar – bir masalani o‘z ichiga oladigan hujjatlar (ariza, e‘lon, tilxat, kafolat xati va b.)

So‘z yasalishi me‘yori – yasaladigan so‘z shu me‘yor doirasida bo‘lmog‘i shart, aks holda tilning lug‘at tarkibidan o‘rin ololmaydi.

Tashkiliy hujjatlar – mazmunan tashkilot, muassasa va korxonalarining huquqiy maqomi, tarkibiy tarmoqlari va xodimlari, boshqaruv jarayonida jamoa ishtirokining qayd qilinishi, boshqa tashkilotlar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalarni aks ettiruvchi hujjatlar (guvohnoma, yo‘riqnoma, nizom, qoida, ustav, shartnomalar va b).

Tashqi hujjatlar – muayyan muassasaga boshqa tashkilot yoki ayrim shaxslardan keladigan hujjatlar.

Tashqi nutq – boshqalarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin bo‘lgan faol nutq bo‘lib, u og‘zaki va yozma ko‘rinishlarga ega.

Termin – semantik nuqtayi nazardan maxsus soha doirasi bilan chegaralangan leksik birlik, fan-texnika, qishloq xo‘jaligi, san‘at va madaniyat sohasiga xos so‘zlar, grekcha “terminus” so‘zidan olingan bo‘lib, chek, chegara degan ma‘noni bildiradi.

Terminning aniqligi – ta‘riflanayotgan harakat (mashq) yoki tushunchaning mohiyati haqida ochiq-oydin tasavvur beradigan bo‘lishi kerak bo‘lgan termin talabidan biri.

Terminning tushunarlilik – ona tili lug‘at sostavi va boshqa tillardan olingan so‘zlar, shuningdek, international termin-so‘zlar asosida qurilgan bo‘lib, xalq tilidagi va so‘z yasash, grammatika qoidalariga to‘la mos bo‘ladi.

Terminning qisqaligi – terminga qo‘yilgan talablardan biri, mashqlarga nom berish va ularni yozishni yangillashtiradigan qisqartiruv qoidalari ham shunga xizmat qiladi.

Terminologiya – terminlar haqidagi ta‘limot va terminlar majmuyi.

Til – ijtimoiy hayotdagi tarixiy, siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlarning ta’siri ostida bo‘lgan, ijtimoiy-siyosiy vazifani bajarishga xizmat qiluvchi tirik organizm.

To‘xtam – ovozning vaqtincha to‘xtashi (dam olishi orqali) bo‘lib, bu bir davrda nafas olinadi va nutq a’zolari artikulyatsiyadan to‘xtaydi va nutq oqimi uziladi

Umumiy me’yor – o‘zbek tiliga tegishli bo‘lgan barcha me’yorlar yig‘indisi.

Uslubiy me’yor – muayyan sohadagi aloqani ta’minlaydigan nutqning mazmuni, maqsadi va vazifasi uchun mos keladigan til birliklarini tanlash qoidalari.

Voizlik san’ati – jamoat oldida nutq so‘zlash, notiqlik san’ati; ilmiy-siyosiy ma’ruza, bahs, munozara, targ‘ibot va tashviqotning asosiy vositasi sifatida keng ijtimoiy mavqega ega bo‘lgan san’at Yunonistonda voizlik – ritorika deyilgan.

Xizmat (rasmiy) hujjatlari – tayyorlanishiga ko‘ra tashkilot yoki mansabdor shaxslarga tegishli hujjatlar (ishga qabul qilish buyruqlari, javob, kafolat, axborot xatlari va b).

Xususiy me’yor – ma’lum til umumiy me’yorlarining yashash shakli, o‘zbek adabiy tili, lahja va shevalari hamda ijtimoiy tarmoqlarining me’yori.

O‘zbek tili – turkiy tillar oilasiga mansub eng yirik tillardan biri, o‘zbek xalqining milliy tili. Dunyo miqyosida bu tilda 50 millionga yaqin odam so‘zlashadi.

“O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fanini o‘qitishdan maqsad – ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni muntazam boyitib borish va yangilash, sohalarda bo‘yicha yo‘naltirish berish, o‘zbek adabiy tilining sohalarda qo‘llanishi, soha leksikasi va terminologiyasi haqida ma’lumot berish asosida ularning kompetentligini rivojlantirish.

“O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fanining vazifalari – Davlat tili talablariga rioya qilish, soha leksikasidagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish, kasbiy mu loqot etikasi bo‘yicha tushunchalarni takomillashtirish; har bir mutaxassis o‘z sohasining davlat tilidagi muhim jihatlarini bilishi va o‘zlashtirishi shart; soha leksikasi va terminologiyasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish; Davlat tili talablariga rioya qilish, soha leksikasidagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish malakalarini rivojlantirish.

Shartnoma – ikki yoki undan ortiq tomonning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, o‘zgartirish yoki to‘xtatish yo‘lidagi kelishuvi.

Shaxsiy hujjat – yakka shaxs tomonidan yoziladigan, ularning xizmat faoliyatlaridan tashqaridagi yoki jamoat ishlarini bajarish bilan bog‘liq masalalarga tegishli bo‘ladigan hujjatlar (shaxsiy ariza, shikoyat va b).



TEST TOPSHIRIQLARI

1. Insonni boshqa jonzotlardan ajratib turadigan vosita qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

- A. Madaniyat
- B. Ma’naviyat
- C. Til
- D. Ong

2. “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanini o‘qitishdan maqsad nima?

A. Ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni muntazam yangilash

B. O‘qituvchi, talaba, rahbar va xodimlarga sohalar bo‘yicha (tibbiyot, texnika, huquq kabi) yo‘naltirish berish

C. O‘zbek adabiy tilining sohalarda qo‘llanilishi, soha leksikasi va terminologiyasi haqida ma’lumot berish asosida ularning kompetentligini rivojlantirish

D. Javoblarning barchasi to‘g‘ri

3. “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanining vazifalari qaysi qatorda keltirilgan?

A. Davlat tili talablariga rioya qilish, soha leksikasidagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish, kasbiy muloqot etikasi bo‘yicha tushunchalarni takomillashtirish

B. Har bir mutaxassis o‘z sohasining davlat tilidagi muhim jihatlarini bilishi va o‘zlashtirishi shart; soha leksikasi va terminologiyasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish;

C. Davlat tili talablariga rioya qilish, soha leksikasidagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish malakalarini rivojlantirish

D. Barcha javoblar to‘g‘ri

4. “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini tuzish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan sana to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni belgilang.

- A. 1993-yil 2-sentabr
- B. 2021-yil 1-aprel
- C. 2019-yil 21-oktabr
- D. 2021-yil 5-may

5. O‘zbek tiliga “O‘zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador” deya ta’rif bergan olim nomi aniqlang.

- A. A.M.Kozlyanina
- B. R.Doniyorov
- C. H.Jamolxonov
- D. A.A.Potebnya

6. **Dunyoda qancha til mavjud?**

- A. 2000 ta
- B. 5600 dan ortiq
- C. 4000 tadan ortiq
- D. 3000 ga yaqin

7. *“Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta’minlanadi. O‘zbekistonda o‘tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek, qatnashchilarning o‘zlari tanlagan tillar anjumaning ish tili hisoblanadi”*. Berilgan jumla Davlat tili haqidagi qonunning nechanchi moddasida keltirilgan?

- A. 10-modda
- B. 5-modda
- C. 9-modda
- D. 12-modda

8. *“O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o‘z millatidan qat’i nazar, o‘z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an’analarga muvofiq yozish*

huquqiga egadirlar”. Berilgan gap qaysi moddaga tegishli?

- A. 15-modda
- B. 11-modda
- C. 7-modda
- D. 16-modda

9. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o‘zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi. Davlat tili to‘g‘risidagi qonunning qaysi moddasida bu haqida yozilgan?

- A. 21-modda.
- B. 17-modda
- C. 20-modda
- D. 23-modda

10. Mashhur ingliz yozuvchisi B.Shouning fikriga ko‘ra, “yo‘q” deyishning nechta usuli bor?

- A. 50 ta
- B. 200 ta
- C. 420 ta
- D. 500 ta

11. Qaysi tilshunos olim tomoshabinlarni g‘ayrioddiy tarzda benihoya mutaassir eta olgan bir aktyor haqida hikoya qilgan?

- A. K.Fossler
- B. B.Shou
- C. A.A.Potebnya
- D. A.M.Kozlyanina

12. “Qalam so‘zning soyasini chizadi” ta’rifi qaysi yozuvchiga tegishli?

- A. A.Qodiriy
- B. A.Muxtor

C. A.Qahhor

D. Oybek

13. Tilshunos olim Karl Fosslerning vatani ko'rsatilgan javobni belgilang.

A. Rus

B. Germaniya

C. Xitoy

D. Fransuz

14. Jumla *Bor-may-man!* tarzida bo'g'inlab aytilganda qanday ma'no ifoda etiladi?

A. Qat'iylik, g'azab

B. Araz, g'azab

C. Nafrat, zarda

D. Quvonch, shodlik

15. Nutq madaniyati so'zlarni konkret nutq uchun tanlashda qaysi yo'nalishning ma'lumotlariga tayanadi?

A. Morfologiya

B. Sintaksis

C. Fonetika

D. Leksikologiya

16. So'zlar va ularning ma'no tavsifini o'zida jamlagan, kerakli so'zni tanlash, ma'nosini to'g'ri tasavvur etish, o'rnini adashtirmaslik, demakki, madaniy nutq tuzishda eng yaxshi va yaqin yordamchi berilgan javobni belgilang.

A. Lug'atlar

B. Darslik

C. Qo'llanmalar

D. Badiiy asarlar

17. O'rganish obyektining yaqinligi jihatidan bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan bo'limlar qaysi?

A. Nutq madaniyati va leksikologiya

- B. Uslubiyat va fonetika
- C. Nutq madaniyati va uslubiyat
- D. Leksikologiya va morfologiya

18. Tilning butun tovush sistemasi, uning qonuniyatlari, urg‘u, intonatsiya, ohang, nutqning tovush qurilishiga daxldor boshqa ko‘plab masalalarni o‘rganadigan bo‘lim qaysi?

- A. Orfografiya
- B. Orfoepiya
- C. Fonetika
- D. Grafika

19. *“Nutq madaniyati fan va o‘quv predmeti sifatida til haqida normativ grammatikada bayon qilingan ma‘lumotlarga suyansa-da, til materialiga yondashuv nuqtayi nazaridan undan farq qiladi: tilning grammatik faktlari nutq madaniyatini, eng avvalo, me‘yorlarga tobeligi – amal qilinganligi, ikkilanilganligi va buzilganligi bilan qiziqtiradi”.* Berilgan fikr kimga tegishli?

- A. B.N.Golovin
- B. A.A.Potebnya
- C. A.M.Kozlyanina
- D. K.Fossler

20. Quyidagi fikrlar kimga tegishli? *“O‘zbek tili va dilini bilishga qiziqqan barcha millat kishilari tilning ichki tomoni – fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini o‘rganishlari bilan birgalikda, uning amaliy tomoni – til birliklaridan to‘g‘ri foydalanish, o‘zbeklar bilan muloqotga kirishishning ijtimoiy va hududiy xususiyatlarini ham bilishlari muhim ahamiyatga ega”.*

- A. S.Mo‘minov
- B. B.Shou
- C. A.Potebnya
- D. R.Sayfullayeva

21. O‘zbek mumtoz adabiy tilining homiysi, turkiy tilda go‘zal nutq tuzishning bayroqdori sifatida ulug‘lanadigan olim kim?

- A. Rabg‘uziy
- B. Navoiy
- C. Uvasiy
- D. Muqimiy

22. Odam qanday vosita yordamida o‘zining fikrlari, his-tuyg‘ulari, istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg‘ulari, istaklarini anglab oladi?

- A. Til
- B. Gap
- C. Matn
- D. Nutq

23. Nutqning necha xil ko‘rinishi mavjud?

- A. 2 xil
- B. 3 xil
- C. 4 xil
- D. 6 xil

24. Ko‘proq ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqador bo‘lgan nutq turini belgilang?

- A. Ichki nutq
- B. Tashqi nutq
- C. Passiv nutq
- D. Bunday nutq mavjud emas

25. Tajribali o‘qituvchilar suhbat chog‘ida inson ko‘ngliga qay tarzda yo‘l topishga harakat qiladilar?

- A. Muloyimlik bilan
- B. Qattiqo‘llik bilan
- C. Talabchanlik bilan
- D. Tartib bilan

26. “Ona tilida puxta, lo‘nda va shirador nutq tuza olish malakasi va mahorati matematika o‘qituvchisi



uchun ham, ona tili o'qituvchisi uchun ham birday zaruriy fazilatdir. O'qituvchi go'zal, o'zini ham, so'zini ham qiynamaydigan ravon va iboralarga boy nutqi bilan o'quvchilarni mahliyo etib, bermoqchi bo'lgan bilimini yosh inson shuuriga osonlik bilan olib kiradi. Zotan ona tili milliy ma'naviyatimizning, dunyoni teran idrok etishimizning zaminidir". Bu fikrlar kimning kitobidan olingan?

- A. R.Sayfullayeva
- B. A.Nurmonov
- C. N.Mahmudov
- D. N.Uluqov

27. Notiqning ovozida qanday xususiyatlar bo'lmog'i lozim?

- A. Keng diapazonlilik, jarangdorlik
- B. Havodorlik, ixchamlik, chidamlilik
- C. Moslashuvchanlik, qarshi to'qlinlarga nisbatan barqarorlik
- D. Barcha javoblar to'g'ri

28. Hujjatshunoslikdagi an'anaga ko'ra ish yuritishdagi hujjatlar tuzilish o'rniga ko'ra nechaga tasnif qilinadi?

- A. 2ga
- B. 3ga
- C. 4ga
- D. 5ga

29. Ayni muassasaning o'zida tuziladigan va shu muassasa ichida foydalaniladigan hujjatlar qanday hujjatlar deyiladi?

- A. sodda hujjatlar
- B. tashqi hujjatlar
- C. ichki hujjatlar
- D. murakkab hujjatlar

30. Javoblarning qaysi birida sodda hujjat berilgan?

- A. Ariza
- B. E'lon
- C. Tilxat
- D. Javoblarning barchasi to'g'ri

31. Mazmun bayonining shakli jihatidan hujjatlar necha turga bo'linadi?

- A. 2ga
- B. 3ga
- C. 4ga
- D. 6ga

32. Qaysi hujjat turi boshqaruvning muayyan bir vaziyatlari bilan bog'liq, bir-biriga o'xshash va ko'p takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matnlarni o'z ichiga oladigan hujjatlar bo'lib, ularga tavsiyanoma, ariza, e'lon, taklifnoma va boshqalar kiradi?

- A. Xususiy
- B. Murakkab
- C. Namunaviy
- D. Qolipli

33. Oldindan tayyorlangan bosma ish qog'ozlariga yoziladigan hujjatlar qanday hujjatlar sanaladi?

- A. Qolipli hujjatlar
- B. Namunaviy hujjatlar
- C. Xususiy hujjatlar
- D. Sodda hujjatlar

34. Matnning o'ziga xosligi, betakrorligi, hamisha ham bir andozada bo'lmasligi, mazmun bayonining erkinligi kabi belgilarga ega hujjatlar berilgan javobni belgilang.



- A. Murakkab hujjatlar
- B. Sodda hujjatlar
- C. Xususiy hujjatlar
- D. Qolipli hujjatlar

35. Qanday xususiyatiga ko'ra hujjatlar xizmat (rasmiiy) va shaxsiy hujjatlarga farqlanadi?

- A. Tuzilishiga ko'ra
- B. Yaratilishiga ko'ra
- C. Tegishlilik jihatiga ko'ra
- D. Kim tomonidan tuzilganiga ko'ra

36. Xizmat hujjatlarining yana bir nomi ko'rsatilgan javobni belgilang.

- A. Shaxsiy
- B. Rasmiy
- C. Xususiy
- D. Namunaviy

37. Ma'muriy-boshqaruv faoliyatida xizmat mavqeyiga ko'ra hujjatlar hozirgi kunda asosan nechaga bo'linadi?

- A. 5 ga
- B. 4 ga
- C. 6 ga
- D. 2 ga

38. Nutq jarayonida umumxalq tilida mavjud bo'lgan so'zlarni to'g'ri tanlash va o'rinli ishlatishni anglatadigan me'yorlarga nima deyiladi?

- A. Fonetik
- B. Shakily
- C. Orfografik
- D. Leksik

39. Shevalarda murcha-qarinja-qumursqa sifatida ishlatiladigan atama nomini toping?

- A. Sigir

- B. Chumoli
- C. Tuxum
- D. Chaqaloq

40. O‘zbek tilida aynan ekvivalentlari mavjud va varvarizm sifatida qaraladigan so‘zlar qatorini belgilang?

- A. *sigir-siyir-inak*
- B. *nu, tak, vot, sovsem*
- C. *tuxum-moyak-yumurta*
- D. *chaqaloq-buvak*

41. Shunday bir vaziyat yuzaga keldiki, atamalarni “milliylashtirish”ga ishtiyoq kuchayib ketdi. Tavsiyalar ham nihoyatda ko‘paydi. *Samolyot* so‘zi o‘rniga qanday atama taklif etildi?

- A. *Tayyora*
- B. *Pargar*
- C. *Ko‘rik*
- D. *Aeroplan*

42. *Ko‘k, karam* so‘zlarining og‘zaki nutqda qo‘llaniluvchi shakli berilgan to‘g‘ri javobni belgilang.

- A. Dollar
- B. O‘simlik
- C. Rang
- D. Tamaki

43. Termin so‘zi qaysi tildan olingan?

- A. Grekcha
- B. Ruscha
- C. Lotincha
- D. Fransuzcha

44. Termin so‘zi o‘rnida ishlatish hollari uchrab turuvchi so‘z berilgan javobni belgilang.

- A. Mavzu
- B. Istiloh



C. Qoida

D. Reja

45. Javoblarning qaysi birida “... terminlar – bu maxsus so‘zlardir”, deya xulosaga kelgan olim nomi ko‘rsatilgan?

A. A.V.Kalinin

B. Potebnya

C. A.Reformatskiy

D. A. Nurmonov

46. Umumadabiy tilda ... tilning boyligi bo‘lsa, terminologiyada bular salbiy hodisa hisoblanadi. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘ying?

A. metafora, metonimiya, sinekdoxa

B. sinonimiya, omonimiya, ko‘p ma’ nolilik

C. morfema, fonema, leksema

D. to‘g‘ri javob yo‘q

47. Sohaga oid terminlarga ham ma‘lum talablar qo‘yiladi. Ular qaysilar?

A. To‘g‘rilik, aniqlik, ravonlik

B. Tushunarlik, aniqlik, qisqalik

C. Soddalik, ixchamlik, tushunarlik

D. Murakkablik, ravonlik, aniqlik

48. “Tosh” termini moliya, soliq, iqtisod sohalarida qanday ma‘noni ifodalaydi?

A. Qattiq jism

B. O‘lchov birligi

C. Og‘ir qurol

D. Bu sohada ishlatilmaydi.

49. Sport terminlari umumiste‘mol leksemalari sifatida qachondan boshlab qo‘llanilgan?

A. XII-XIII

B. VIII-IX

C. IX-X

D. XIV-XVI

50. *Trening* so‘zi qaysi tildan olingan?

A. Lotincha

B. Inglizcha

C. Fransuzcha

D. Grekcha

51. “Trenirovka” leksemasi ma’lum sifat-xususiyatlarga ega bo‘lish yoki ularni saqlab qolish uchun muntazam ravishda amalga oshiriladigan mashqlar, mashg‘ulotlar tushunchasini ifodalaydi. Bu leksemaning asl varianti mustaqillikdan so‘ng qay shaklda o‘zlashtirildi?

A. trening

B. chempionat

C. kovboyka

D. tanketka

52. “... uchinchi keng tarqalgan stilistik kasallik – bu so‘zning voqelikka mos kelmasligidir, so‘zning predmetdan uzilib qolishi – bu buzilish, hatto ba’zan uning predmet (asosiy) ma’nosini yo‘q qilishdir. Bu kasallik tasvirlanayotgan hayot bilan tanish bo‘lmaslikdan, yozuvchilar o‘zlari chizayotgan narsa va hodisalarni yaxshi bilmasligidan kelib chiqadi”. Yuqoridagi fikr muallifini belgilang.

A. A. Qahhor

B. V.V. Vinogradov

C. V.A. Iskovich

D. Aristotel

53. “Qahramonning o‘limi” hikoyasining muallifini aniqlang.

A. Ma’ruf Hakim

B. A. Qahhor

C. O‘.Hoshimov



D. Said Ahmad

54. “Adabiyotda yolg‘onning katta-kichigi yo‘q. Hammasi ham baravar zarardir”. Fikr muallifini aniqlang.

- A. A. Qodiriy
- B. Ozod Sharafiddinov
- C. Cho‘lpon
- D. A. Qahhor

55. “Oq simob rang bulutday siljib / Biz tomonga kelar qo‘ylar galasi”. Keltirilgan she‘riy parchada qanday ma‘no ifodalangan?

- A. tozalik, musaffolik
- B. belgini kuchaytirish
- C. harakatni kuchaytirish
- D. aniqlik

56. Notiqlik san‘ati dastlab qachon shakllangan?

- A. Eramizdan avvalgi III-II asrlarda
- B. Eramizdan avvalgi IV-III asrlarda
- C. Milodiy III-IV asrlarda
- D. Milodiy V-VI asrlarda

57. Notiqlik san‘ati dastlab qayerda shakllangan?

- A. Rimda
- B. Yunonistonda
- C. Xitoyda
- D. Amerikada

58. Notiqlik san‘ati qadimda qaysi san‘at bilan barobar ulug‘landi?

- A. Sarkardalik san‘ati
- B. Adabiyot
- C. Rassomchilik
- D. Musiqa

59. Notiqlikda o‘ziga xos uslub egasi bo‘lgan Demosfen o‘z nutqida qanday vositalardan foydalangan?

- A. Eskirgan soʻzlardan qochgan
- B. Latif va jozibali soʻzlarni qoʻllamagan
- C. Gohi-gohida xalq hikmatlaridan foydalangan, xolos
- D. Barcha javoblar toʻgʻri

60. “Nutqi tuzilishi jihatdan mukammal boʻlgan. Ifodada qaytariqlarni, qarama-qarshilikni yoqtirgan, ritorik soʻroqni koʻp ishlatgan. Jest va mimikalardan, kishining diqqatini tortadigan, hayajonlantiradigan usullardan unumli foydalangan”. Oʻz nutqida yuqoridagilardan foydalangan notiq kim?

- A. Sitseron
- B. Aristotel
- C. Demosfen
- D. Platon

61. Oʻrta Osiyo madaniyati tarixida yuqori darajaga ega boʻlgan notiq shaxslarni aniqlang?

- A. Bahovuddin Valad
- B. Jalodiddin Rumi
- C. Husayn Voiz Koshifiy
- D. Barcha javoblar toʻgʻri

62. “Avbob ul-jinon” asarining muallifi kim?

- A. Muhammad Rofi Voiz
- B. Voiz Qazviniy
- C. Voiz Shirvoniy
- D. Quraysh Sindiy

63. “Anis ul-voizin” asarining muallifi kim?

- A. Husayn Voiz Koshifiy
- B. Quraysh Sindiy
- C. Voiz Qazviniy
- D. Qozi Ushiy

64. “Ravzat ul-voizin” asarining muallifi kim?

- A. Mulla Kalon Voiz Samarqandiy



- B. Quraysh Sindiy
- C. Voiz Shirvoniy
- D. Qozi Ushiy

65. “Zilolu maqol” asarining muallifi kim?

- A. Jalodiddin Rumi
- B. Bahovuddin Valad
- C. Qozi Ushiy
- D. Voiz Qazviniy

66. Dastlab kimlar namunaviy nutqning sifatlarini o‘zida aks ettiruvchi qoidalar ishlab chiqishgan?

- A. Rimliklar
- B. Misrliklar
- C. Yunonlar
- D. Ruslar

67. “Aniqlik va tozalik nutq uchun shunchalik zarurki, ularni asoslab o‘tirishning ham hojati yo‘q. Ammo notiq tinglovchilarni o‘ziga jalb qilishi uchun bu sifatlar hali yetarli emas. Buning uchun nutq jozibador bo‘lishi ham kerak”. Yuqoridagi fikrlar kimga tegishli?

- A. Demosfen
- B. Bahovuddin Valad
- C. Sitseron
- D. Husayn Voiz Koshifiy

68. Kim nutqda maqsadga muvofiqlikni muhim deb hisoblagan?

- A. Qozi Ushiy
- B. Sitseron
- C. Dionis Galikarnas
- D. Demosfen

69. Mavlono Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomayi sultoniy” asarining “Tariqat ahlining odobi” deb nomlangan bobi asarning nechanchi bobi hisoblanadi?

- A. oltinchi bob
- B. o'ninchi bob
- C. ikkinchi bob
- D. beshinchi bob

70. Nutqning to'g'ri bo'lishi asosan qaysi me'yorlarga amal qiladi?

- A. Urg'u va grammatik me'yor
- B. Stilistik me'yor
- C. Orfoepik me'yor
- D. Dialektal me'yor

71. O'zbek tilida urg'u asosan so'zning nechanchi bo'g'iniga tushadi?

- A. so'zning ikkinchi bo'g'iniga
- B. so'z o'rtasiga
- C. so'zning boshiga
- D. so'zning oxiriga

72. Nutqimizning toza bo'lishiga xalaqit berayotgan lingvistik elementlar qaysilar?

- A. Dialektizmlar
- B. Varvarizmlar
- C. Vulgarizmlar
- D. Barcha javoblar to'g'ri

73. *Voobshe, tolko, tolko tak, yestestvenno, obyazatelno, konechno, uje, pochti, tak chto, znachit* kabi so'zlar qanday so'zlar hisoblanadi?

- A. Argolar
- B. Vulgarizmlar
- C. Varvarizmlar
- D. Dialektizmlar

74. "Nutq" hikoyasining muallifi kim?

- A. Said Ahmad
- B. Mirtemir
- C. A.Qahhor



D. Chexov

75. Ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr-axborot almashinuvidan iborat matn qanday matn hisoblanadi?

- A. Monologik matn
- B. Dialogik matn
- C. Tavsifiy matn
- D. Kommunikativ matn

76. O'zida aniqlikka asoslanuvchi, ma'lum terminlariga ega matn qanday matn hisoblanadi?

- A. Publitsistik matn
- B. Rasmiy matn
- C. Badiiy matn
- D. Ilmiy matn

77. Ma'lum qolipga solinganlik qanday matnga xos?

- A. Rasmiy matn
- B. Publitsistik matn
- C. Badiiy matn
- D. Ilmiy matn

78. Ommaga axborot berish qaysi matnga xos?

- A. Ilmiy matn
- B. Badiiy matn
- C. Publitsistik matn
- D. Rasmiy matn

79. Ekspressivlik, obrazlilik qanday matnlarga xos?

- A. Badiiy matn
- B. Rasmiy matn
- C. Publitsistik matn
- D. Ilmiy matn

80. Bir shaxsning nutqiga xos matnlar qanday matnlar hisoblanadi?

- A. Monologik matn
- B. Dialogik matn
- C. Ilmiy matn
- D. Publitsistik matn

81. yozilgan asarlar yaxlit bir qurilishga ega. Unda kirish, asosiy qism va xulosa mavjud bo‘lib, ular yagona bir halqaga birlashadi. Matnda bayon qilinayotgan fikrlar qat’iy izchillikda bayon qilinadi. Yuqorida qanday uslub haqida gap bormoqda?

- A. badiiy uslub
- B. ilmiy uslub
- C. rasmiy uslub
- D. publitsistik uslub

82. Matn tarkibiga kiruvchi muhim ahamiyatga ega birliklarni belgilang.

- A. gap
- B. abzats
- C. kirish so‘zlar
- D. A va B javoblar

83. Hujjat oluvchi shaxs qaysi atama bilan ataladi?

- A. rezolyutsiya
- B. rezolyut
- C. adresant
- D. adresat

84. hujjatlarga fuqarolardan kelib tushgan ariza va shikoyatlar, ularning asosida olib boriladigan xizmat yozishmalari misol bo‘ladi. Ular aksariyat hollarda ayni bir vaziyat va holatni izohlab, tushuntirib berish maqsadida yoziladi. Nuqtalar o‘rniga to‘g‘ri so‘zni topib qo‘ying.

- A. xususiy
- B. umumiy
- C. tashkiliy



D.namunaviy

85. hujjatlar sirasiga ish yuritish sohasiga oid hujjatlarning aksariyati, ya'ni har bir tashkilot va uning bo'linmalari uchun zaruriy bo'lgan bildirgi, xizmat ma'lumotnomasi, tavsifnoma, majlis bayoni kabi belgilangan tartibda tuziladigan hujjatlar kiradi. Nuqtalar o'rniga to'g'ri so'zni topib qo'ying.

- A. xususiy
- B. umumiy
- C. tashkiliy
- D. namunaviy

86. Davlat idoralarida hujjatlarning ko'plab turlari qo'llanadi, ular ish faoliyatini osonlashtiradi, vaqt va moddiy resurslarni tejashga imkon beradi, ish jarayonida qulaylikni oshiradi. Nuqtalar o'rniga to'g'ri so'zni topib qo'ying.

- A. qolipli
- B. umumiy
- C. tashkiliy
- D. xususiy

87. Mazmuniga ko'ra hujjatlar va bo'ladi.

- A. umumiy va xususiy
- B. sodda va murakkab
- C. tashkiliy va farmoyish
- D. qolipli va namunali

88. mansabdor shaxs tomonidan hujjatdagi ma'lumotlarning to'g'riligini tasdiqlovchi yozuv. Hujjatning yuqori o'ng burchagiga qo'yiladi. To'g'ri javobni belgilang.

- A. rezolutsiya
- B. viza
- C. tasdiqlash ustxati
- D. kelishuv ustxati

89. Muallif tomonidan uning shaxsiy hayoti va faoliyati bayon qilingan rasmiy hujjat qanday nomlanadi?

- A. ariza
- B. tavsifnoma
- C. tushuntirish xati
- D. tarjimayi hol

90. Shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, shuningdek uning o'ziga xos xislati va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjat bu ...

- A. tavsifnoma
- B. tavsifyanoma
- C. ariza
- D. tarjimayi hol

91. Turli majlis, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, yig'ilish qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat deb ataladi. Nuqtalar o'rnini mos so'z bilan to'ldiring.

- A. majlis bayoni
- B. bildirgi
- C. shrtнома
- D. ishonchnoma

92. Tavsifnoma matnini shartli ravishda necha qismga ajratish mumkin?

- A. to'rt
- B. ikki
- C. uch
- D. qismga ajratilmaydi

93. Fikrni bayon etishda qisqalik va aniqlik qanday atama bilan ataladi?

- A. rezolutsiya
- B. litota



C. lakonizm

D. rezyume

94. *“O‘qituvchi kasbining o‘ziga xostalablari mavjud. Bu talablarning eng muhimi o‘z bilimini o‘quvchilarga yetkazishdan iborat bo‘lib, bu kasb egasining majburiyatini hosil qiladi. Shuningdek, o‘qituvchi o‘z nutqiga va harakatlariga o‘quvchilarning diqqatini qaratish huquqiga ham ega. Bu belgilar o‘qituvchining butun dars davomida kommunikativ jihatdan o‘rnining yuqori turishligini ko‘rsatadi. Bu esa o‘qituvchi o‘quvchilar bilan qanday muloqotga kirishini ta‘minlaydi.”* Yuqoridagi fikrlar kimga tegishli?

A. N.Mahmudov

B. M.Yo‘ldoshev

C. Q.Rasulov

D. S.Mo‘minov

95. XX asrning oxirida tadqiqotchilar, birinchi navbatda, sportga madaniyatning bir bo‘lagi sifatida murojaat qilishdi, terminologik apparatga sport tillari maydoni tushunchasini kiritdilar, til konsept maydonida sport konseptining mavjudligini aniqladilar. Bu-lar kimlarning ishlarida aks etadi?

A. I.G.Kojevnikova

B. A.S.Rilov

C. L.V.Sizikova

D. barcha javoblar to‘g‘ri

96. Sportdagi muloqot tilining qanday turlari bor?

A. jurnalistlar nutqi

B. sport sharhlovchilari nutqi

C. sportchilar nutqi

D. barcha javoblar to‘g‘ri

97. Sportdagi muloqot tilining muhim tarkibiy qismi nima?

- A. noverbal muloqot
- B. verbal muloqot
- C. kirish qism
- D. bahs

98. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni qabul qilingan sana to‘g‘ri keltirilgan javobni belgilang.

- A. 2019-yil 21-oktabr
- B. 2020-yil 21-mart
- C. 1989-yil 2-oktabr
- D. 1989-yil 21-oktabr

99. 21-oktabr qachondan boshlab “O‘zbek tili bayrami kuni” deb e‘lon qilindi?

- A. 1989-yil 21-oktabr
- B. 2020-yil 21-mart
- C. 2019-yil 21-oktabr
- D. 2021-yil 21-dekabr

100. Javoblarning qaysi birida sport o‘yinlari o‘tkaziladigan maydon nomi to‘g‘ri berilgan?

- A. gilam
- B. ring
- C. stadion
- D. Barcha javoblar to‘g‘ri



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги фармони (“Халқ сўзи”, 2017 йил 8 февраль).

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисида (“Халқ сўзи”, 2017 йил 21 апрель).

3. Aminov M va b. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo‘llanma. Toshkent., “O‘zbekiston”, 2020.

4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. (amaliy qo‘llanma) – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. -455 b.

5. Бекмирзаев Н. Муаллимнинг ён дафтари. – Тошкент: Муҳаррир, 2011.

6. Жуманиёзов Р. Муомала маданияти. – Тошкент: Маънавият, 2015.

7. Imamova T., Tuxvatulina L. Ish qog‘ozlari qanday yoziladi? - Toshkent, 1992.

8. Iskandarova Sh., Shokirova M. Lug‘aviy birliklarning struktur-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari. – Farg‘ona, 2021

9. Карнеги Д. Ўз-ўзига ишонч ҳосил қилиш ва омма олдида сўзлаш санъати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010.

10. Колесов В.В. Язык города. – М.: Высшая школа, 1991.

11. Конфуций. Сухбат ва мулоҳазалар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014.

12. Lutfullayeva D. Mustaqillik davri rasmiy-idoraviy ish uslubi taraqqiyoti. (Monografiya.) – Toshkent, 2020.

13. Mamajonov A., Abdupattoyev M. O‘zbek matnining semantik-sintaktik va stilistik aspekti. – Farg‘ona, 2021.

14. Маҳмудов Н. Маърифат манзиллари. – Тошкент: Маънавият, 1999.

15. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.

16. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish (Darslik) – Toshkent: Cho‘lpon, 2013.

17. Муҳаммадиев Н.Э. Ички ишлар идоралари ходимларининг касб этикаси ва эстетик маданияти. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги томонидан вазирлик олий ўқув юртлари учун дарслик сифатида тасдиқланган. – Тошкент: 1998.

18. Мўмин С. Сухбатга тайёرمىсиз? “Маънавият” газетаси. 2019 йил 2-сон.

19. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. -Ф., 2021.

20. Омонтурдиев А. Професионал нутқ эвфемикаси. – Тошкент: Фан, 2006.

21. Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar| Инновации в педагогике и психологии| Innovations in pedagogy and psychology. №SI-2| 2020, 8-qism| Maxsus son.

22. Пиз А. Тана тили. – Тошкент: Фафур Фулом нашриёти, 2016.

23. Расулов Р., Хусанов Н., Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиклик санъати. – Т., 2007.

24. Rasulov R., Mo‘yidinov Q. O‘qituvchi nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

25. Расулов Қ. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши. Филол.фанлари номзоди олиш учун дисс. Автореф. Тошкент, 2008.

26. Раҳмонов М. Сўзлар оламига саёҳат. – Тошкент: Фан, 2011.

27. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: EXTREMUM PRES, 2010.

28. Рустамий А. Адиблар одобидан адаблар. – Т.: Маънавият, 2003.

29. Саидхонов М. Алоқа аралашув ва имо-ишоралар. – Т.: 2008.

30. Саримсоков Х. Инглиз ва ўзбек тилларида спорт терминларининг чоғиштира тадқиқи. Филол.фанл.б. фалсафа докт (PhD) дисс. Автореф. Тошкент – 2020

31. Содиқова Т. Мураса илми. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016.

32. Сухарев В. Этика и психология делового человека. – М.: Грант, 1997.

33. Сиддиқ Мўмин. Сўзлашиш санъати. – Фарғона, 1997.

34. Сиддиқ Мўмин. Мулоқот мезони. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004.

35. Tojiyev Y., Hasanova N., Tojimatov Q., Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi va uslubiyat asoslari. - Toshkent, 1994.

36. Шарафиддинов О. Домлалар. – Тошкент: Маънавият, 2015.

37. Қуронов М. Тарғибот тамойиллари. – Тошкент: Маънавият, 2015.

38. Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

39. Husanov N., Mirahmedova Z. Mutaxassislik tili. -T.: TMI, 2003.

40. Ғаззолий А.Ҳ. Тил офатлари. Тилнинг йигирма офати. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2011.
41. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. T.; Akadernashr, 2013.

Axborot manbalari

1. <https://lex.uz/docs/5058351>
2. <https://www.lex.uz/acts/121051>
3. <https://lex.uz/docs/1625271>
4. <https://xs.uz/uzkr/post/til-millat-kozgusi>
5. <https://president.uz/uz/lists/view/3908>
6. <https://president.uz/uz/lists/view/4712>
7. <https://hozir.org/uzbek-tilining-sohada-qollanishi->
8. <https://hozir.org/uzbek-tilining-sohada-qollanishi-fanini-oqitishning-maqсад-va.html>
9. <https://hozir.org/uzbek-tilining-sohada-qollanishi-v3.html>
10. <https://ininet.org/uzbek-tilining-sohada-qollanishi.html>
11. <http://hozir.org/nutqning-mantiqiy-ligi-nutqning-tozaligi-reja.html?page=14>
12. Шавкат Мирзиёевнинг Токио Олимпия ўйинларида иштирок этган Ўзбекистон спорт делегацияси вакиллари билан учрашувдаги нутқи. - Халқ сўзи (xs.uz)

MUNDARIJA

Kirish	3
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida	6
“O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Uning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi	14
O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi va uning jamiyat hayotida tutgan o‘rni	18
O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Davlat tili haqida	21
Soha tili asoslari	26
Soha nutqi asoslari	30
Sohada hujjat yuritish asoslari	35
Soha tilining xususiyatlari	42
Soha tili leksikasi	45
Soha leksikografiyasi	51
Soha tilida adabiy til va uning me‘yorlari	58
Adabiy til me‘yorlari	61
Sohada fikrni aniq ifodalash yo‘llari	65
Soha notiqligi	68
Voizlik san‘ati haqida	72
Soha nutqiga qo‘yiladigan talablar	73
Sohada matn tuzish masalasi	82
Soha hujjatlarini tuzish texnologiyasi	87
Sohada kasbiy muloqot madaniyati va tildan foydalanish	91
O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari	97
Glossariy	115
Test topshiriqlari	121
Foydalanilgan adabiyotlar	143

Ilmiy-yshubiy nashr

Azizaxon RASULOVA

O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANILISHI
Jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalari uchun
o‘quv qo‘llanma

Direktor: N.Hoshimov
Muharrir: H.Boyboboyev
Tex.muharrir: E.Rahimov
Sahifalovchi: M.Hoshimov

Bosishga ruxsat etildi: 27.09.2023. Bichimi: 84/108_{1/32}.
Nashriyot b/t: 4,6. Shartli b/t: 5,0; Times garniturası.
Adadi: 50 dona. Buyurtma №

“Farg‘ona kitob olami” MChJ “Farg‘ona” nashriyoti.
150100. Farg‘ona sh., Kashtanzor k., 7-A uy.

“Print Line Group” XK bosmaxonasi.
100097. Toshkent sh., Bunyodkor, 44.